O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

OCHILOVA NILUFAR NOMOZOVNA

INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LEKSIK KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Monografiya

“Olam Print” nashriyoti
Samarqand – 2026

U O‘K: 378.147:811.111'243(075.4)
KBK: 74.489.8+81.2Ing-9
O-93

Ochilova Nilufar Nomozovna. Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Monografiya. - “Olam Print” nashriyoti, 2026. - 132 bet.

Ushbu monografiya innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Unda ingliz tilini o‘qitish jarayonida leksik kompetensiyani shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Monografiyada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining so‘z boyligini kengaytirish, leksik birliklarni nutqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash, kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda mustaqil ta’lim faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishda innovatsion topshiriqlar, kommunikativ mashqlar, kontekst asosida o‘qitish va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining ahamiyati asoslab berilgan. Mazkur monografiya oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar hamda ingliz tilini o‘qitish metodikasi sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
Axmedova Nodira Muxtorjonovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:
F.I.Ikromxonova - Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti f.f.dok.(DSc), professor
N.J.Isakulova - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, p.f.dok. (DSc), professor
D.Saydazimova - Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, p.f.f.dok. (PhD) dotsent

Mazkur monografiya Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-texnik yig‘ilishining 2026-yil 30-apreldagi 9-sonli yig‘ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-5333-5-8

© Ochilova Nilufar Nomozovna, 2026
© “Olam Print” nashriyoti, 2026

KIRISH

Jahon ta’lim tizimida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, xususan, leksik ko‘nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamli ta’lim muhitining kengayishi hamda xalqaro muloqot ehtiyojining ortib borishi ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy metodlardan zamonaviy, interfaol va kompetensiyaviy yondashuvlarga o‘tishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik birliklarni nafaqat yod olishi, balki ularni kasbiy, akademik va kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri, o‘rinli hamda samarali qo‘llay olishi bugungi ta’lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir.

Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda leksik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik tizimlarni ishlab chiqish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, raqamli vositalar, kommunikativ mashqlar va kontekstga asoslangan topshiriqlardan maqsadli foydalanish zarurati yanada ortmoqda.

Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida leksik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida so‘z boyligini tizimli kengaytirish, leksik birliklarni nutqiy vaziyatlarda qo‘llash, ularning semantik, grammatik va pragmatik xususiyatlarini anglash hamda mustaqil o‘rganish strategiyalaridan foydalanish masalalari yetarli darajada takomillashtirishni talab etadi. Shu bois innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslash, mazmunan boyitish va amaliy jihatdan takomillashtirish zarurati mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

I BOB. INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LEKSIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

§ 1.1. Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish ijtimoiy zaruriyati

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Innovatsion fikr va ilmiy yutuqlarsiz hech bir soha taraqqiy eta olmaydi" degan qimmatli g'oya bugungi ta'lim tizimining asosiy yo'nalishini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalari QS xalqaro reytingining TOP-300 ligiga kirgan yetakchi universitetlar o'quv dasturlarini sinchkovlik bilan o'rganib, ulardagi eng samarali fanlarni tanlab olishi va bu fanlardagi bilimlarni zamonaviy, ilg'or metodikalar orqali talabalarga yetkazishi zarur. Bundan tashqari, tayyorlanayotgan mutaxassislar nafaqat xalqaro mehnat bozori talablariga to'liq javob berishi, balki chuqur nazariy bilim, amaliy malaka va kasbiy kompetensiyalarni mustahkam egallagan holda ularni kelajakdagi pedagogik faoliyatida mahorat bilan qo'llay olishi, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonning global bo‘lgan xususiyatlaridan biri bu rivojlanishning innovatsion usulini muhim ustun deb tan olishdir. Mashhur olim A.Yu.Karpova[76;167-b] ta’kidlaganidek, zamonaviy raqobatda ustunlik resurslar va moddiy qadriyatlar bilan to‘qnashishi emas, balki ishtirok etish qobiliyatidir.

Pedagogik ta’lim sohasini modernizatsiyalash asosida raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish bugungi vaqtda amaliy ahamiyat kasb etadi. Pedagogik ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash ayni vaqtda rivojlangan xorijiy davlatlarni tajribalarini tahlil qilish asosida qiyosiy o‘rganish lozimligini ko‘rsatmoqda.


Modernizatsiya bu obyektning mehnat bozori sharoitlarining yangi talablar va me’yorlar, texnik ko‘rsatmalar, sifat ko‘rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi sanaladi. Mazkur modernizatsiya ta’lim oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalashga oid eng maqbul an’analarni saqlagan va kengaytirgan holda majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘liq o‘z ichiga oladi va jamiyatda qaror topgan innovatsion fikrlashga ega mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga asos bo‘ladi.

XIX asrning o‘rtalariga kelib “Innovatsiya” tushunchasi muayyan tadqiqot ishlarida paydo bo‘lgan. Shu tariqa XX asrning boshlarida mutlaqo yangi bo‘lgan innovatika fani paydo bo‘ldi. Innovatikada ustuvor bo‘lgan tushuncha — innovatsion jarayon sanaladi. “Innovatsiya” tushunchasi “yangilik kiritish” ma’nosini anglatadi. Innovatsiya — bu uzluksiz rivojlanish jarayonini vujudga keltiradigan yangilik sanaladi. Innovatsiya — bu barcha sohalardagi innovatsion jarayonlarning mohiyati, shuningdek, mazkur jarayonlarni boshqarish tushunchalari, usullari va vositalari to‘g‘risida ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi. Innovatsiyalarning asosiy manbalari jamiyatning ehtiyojlari, insonlarning intellektual faoliyati va milliy innovatsion tizimlar bilan bevosita bo‘lingan.

N.A.Muslimov[18;54-b]ning ta’kidlashicha ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, oldingidan bir qator jihatlari bilan samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan innovatsion metodlar asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlillariga ko‘ra Rossiyalik tadqiqotchilar A.Prigojin[121;77-b], B.Sazanov[132;45-b], N.Stepanovlar[143;56-b] innovatsion jarayonlar va mazkur jarayonning asosiy tarkibiy qisimlarini o‘rgangan. Tadqiqotlari natijasida innovatsion jarayonning loyihalashda ikki yondashuv bo‘lishini isbotladi(1.1-rasm)



1.1-rasm. Innovatsion jarayonning loyihalshdagi yondashuv turlari

Yangilikning mikro darajasida muayyan g‘oya amaliyotga tatbiq qilinadi. Yangilikning makro darajasida esa kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’sirlanishi, bu yangiliklarning raqobati, birligi, o‘rin almashinishi kuzatiladi.

XX asrning 50-yillari oxirlariga kelib, innovatsion pedagogik jarayonlar G‘arbda, bizda esa keyingi o‘n yillikda maxsus o‘rganish predmetiga aylandi. Ma’lumki, innovatsiyalarning juda ko‘p turlari bo‘lib, ular orasida ta’lim innovatsiyalari jamiyat hayotida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Masalan pedagogik innovatsiyalar ta’lim tizimida shu kunga qadar ma’lum bo‘lmagan, biror bir joyda tilga olinmagan holat

sanaladi. Ta’lim innovatsiyalari ba’zi adabiyotlarda innovatsion ta’lim degan nom bilan uchratish mumkin lekin bu ikki tushuncha bir ma’noni anglatadi. Mazkur tushuncha dastlab 1979-yilda amaliyotga tatbiq etilgan.

Inovatsion faoliyatni shu bilan birga innovatsion jarayonlar tuzilishini o‘rganish jarayonida N.Lapin[88;34-b], A.Krutikov[84;34-b], N.Stepanov[143;56-b], A.Prigojiy[121;77-b], B.Sazonov[132;45-b] kabi olimlarning o‘rni beqiyos sanaladi. Bu olimlar o‘z tadqiqotlarida innovatsion jarayonning loyihalashning ikki turi: mikrodaraja – yangilik kiritish, makro darajasida alohida yangiliklarning o‘zaro aloqasi sifatida qaraydi.

V.A.Slastinin[142;32-b] yangilik kiritishni maqsadga muvofiq ravishda ehtiyojlardan kelib chiqqan holda yangilik yaratish, va bu yangilikni ko‘lamini kengaytirish va undan samarali foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning turli xil ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qanoatlantirish deb ta’riflaydi.

V.Slastenin[142;87-b], M.Levina[90;48-b], A.Prigojinlar[121;77-b] tomonidan oliy ta’lim muassasalaridagi innovatsion jarayonlar o‘rganilgan. V.Slastenin[142;89-b] o‘zining tadqiqotlari davomida pedagogning innovatsion faoliyatini loyihalashda unga akmeologik tomondan yondashuvni taklif qilgan. Akmeologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi esa oliy nuqta, o‘tkir, gullagan yetuk, eng qulay davr degan ma’nonlarni anglatadi. Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o‘qituvchining kasbiy mahorati cho‘qqilariga erishuvida uning shaxsiy rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Olib borilgan tahlillar asosida pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanishi aniqlandi:

ta’lim jarayoniga mavjud yangilikni tatbiq etishga tayyorgarligi; pedagogga xos bo‘lgan yangiliklarni to‘liq o‘zlashtirishi; pedagogning novatorlik darajasi va ko‘rsatgichlari; kommunikativ layoqatining takomillashganligi; pedagogning kreativ sifatlarining rivojlanganligi va boshqalar.

Innovatsion faoliyat natijasida pedagog o‘zining ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltira oladi va shu asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallab borishi, o‘zing amaliy pedagogik faoliyatni nazariy bilimlar bilan muntazam boyitib borishi, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik, boshqaruvchalik, iqtidorini doimo tizimli ravishda rivojlantirishni taqozo qiladi.

N.B.Kuzmina[87;34-b] ta’biri bilan aytganda, inson o‘zining kasbiy faoliyatning samarasini uzluksiz oshirib borishi natijasida hayotining eng rivojlangan kreativ davrlari yetuklik bosqichlari to‘g‘risida fikr yuritadilar.

Ta’lim sohasidagi innovatsion jarayonlar haqidagi ilmiy qarashlar L.Podmova[] va L.Dolinskayalarning ma’lumotlarida o‘z aksini topgan. Innovatsion jarayonlar turli tarixiy davrlarda paydo bo‘lgan va uning rivojlanishini belgilab bergan. Shuningdek, olimlar o‘qituvchining innovatsion faoliyat komponentlari haqida to‘xtalib, motivatsion, ijodiy, texnologik qismlarni taklif qilgan.


A. I. Prigojin[121;77-b] yangilikni shartli ravishda ikki turga mutlaq va nisbiyga ajratadi. Agar biz texnologik taraqqiyotni nazarda tutsak, unda birinchisi, hozirgacha noma’lum bo‘lganlarga ega keng miqyosda amalga oshiriladigan yangiliklar ko‘pchilikka nisbatan radikal yangiliklar ulardan olingan. Mutlaq yangilik quyidagilar bilan belgilanadi ushbu yangilik uchun analoglarning yo‘qligi. Nisbiy yangilikning bir nechta variantlari bor. Masalan, mahalliy yangilik. Bu shuni anglatadiki, yangilik allaqachon boshqa obyektlarda (tashkilotlarda, mamlakatlarda) qo‘llanilgan, ammo bu yerda – birinchi marta. A. I. Prigojin[121;90-b] shuningdek, xususiy yangilik, shartli yangilik va samarali yangilik tushunchalarini kiritadi. Olimning innovatsiya bo‘yicha bildirgan fikr-mulohazalari albatta o‘rinli. Bizningcha har qanday yangilik dastlab mutlaq keyinchalik esa u vaqt o‘tishi bilan nisbiy daraja bilan belgilanadi.

Innovatsiya tushunchasi turli olimlar tomonidan e’tirof etila boshladi. Xususan, “innovatsiya” tushunchasini nafaqat yangiliklarni ishlab chiqish balki ularni keng doirada tarqatish, qolaversa ishlab chiqilgan yangiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan yangi o‘zgarishlarga, faoliyatni tashkil etishdagi, yangicha tarzda fikrlash uslubidagi o‘zgarishlarga ham tegishli ekanligi M.V.Klarin tomonidan ilgari surilgan.

R.N.Yusufbekova[154;156-b] o‘zining ilmiy-tadqiqot faoliyati davomida pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi uch blokdan iborat deb hisoblaydi(1.2-rasm).

1. Sohada namoyon bo‘layotgan yangilikni ajratib ko‘rsatuvchi blok. Ushbu blokda pedagogika tizimidagi yangi g‘oyalar, pedagogik yangiliklarning tasniflanishi, pedagogik yangiliklarni dalillashga yo‘naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar, ishlab chiqilgan yangilik darajasini ko‘rsatadigan ijtimoiy normalar, pedagoglarning yangiliklarni o‘zlashtirish va undan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari, novatorlik qobiliyati, pedagogika sohasida yangiliklarni ishlab chiqish bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o‘zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok. Bu blokda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklar-ning bir ovozdan qo‘llab quvvatlash va baholanishi, qabul qilishlari – turli innovatsion jarayonlar, novatorlik, innovatsiya muhitini shaklantirish, pedagogik jamoa tomonidan yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari ifodalanadi.




1.2-rasm. Innovatsion jarayon tuzilmasining bloklari(R.Yusufbekova[154;171-b] bo‘yicha)

3. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish blok. Ishlab chiqilgan yangilikni tajriba sinovdan o‘tkazish orqali amaliyotga tatbiq etish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari aks etadi.

Innovatsion jarayonning quyidagi tuzilmalari farqlanadi: faoliyat, subyektiv, darajali, g‘oyaviy, davriylik, boshqaruv, tashkiliy tuzilmalardir. Innovatsiya jarayon tarkibiy tuzilmalardan iborat. Innovatsiya jarayon tuzilmalar bilan bir qatorda muayyan qonuniyatlar bilan aloqadorligi ko‘zga tashlanadi. Mazkur jarayon uchun yuqoridagi to‘rtta qonuniyat xarakterlidir(1.3-rasm).

Pedagogik innovatsion jarayonning keskin beqarorlik qonuniyatiga ko‘ra pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar o‘zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e’tirof etiladi.

Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyligini ifodalaydi, unga ko‘ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o‘ta tezkor yoki tezkor ravishda amaliyotga tatbiq etiladi.




1.3-rasm. Pedagogik innovatsion jarayonning qonuniyatlari

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘lida faollik ko‘rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion xarakter kasb etgan g‘oyalar yanada ilg‘or yangiliklarni amalga oshirish yo‘lida to‘siq bo‘la boshlaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

Pedagogik innovatsiyalar tegishli sohada ijobiy o‘zgarishlarni sodir etish, sifat jihatdan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo‘llaniladi. Bu turdagi innovatsiyalarni asoslash muayyan bosqichlarda kechadi(1.6-rasm).



1.4-rasm. Innovatsiyalarni asoslash bosqichlari

A.V.Xutorskiy[79;132-b] o‘zining pedagogik qarashlarini umumlashtirgan holda innovatsion jarayon bir-biri bilan uzviy bog‘langan 3 ta: innovatsion jarayonning ishlab chiqilishi, ishlab chiqilgan innovatsion jarayonni imkon qadar rivojlantirish va innovatsion jarayonning pedagogik faoliyatga tatbiq qilish kabi tarkibiy qismlarni farqlaydi. Xuddi mana shu uch tarkibli innovatsion jarayon pedagogik innovatikani o‘rganish obyekti sanaladi va didaktikadan farqli ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida ta’lim jarayoni e’tiborga olinadi .

Bugungi kunda tilshunoslik OTMlari bitiruvchilariga xorijiy tillarni egallaganlik bo‘yicha qo‘yiladigan talablar tobora oshib bormoqda. Nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirish, balki turli ijtimoiy-madaniy, masalan, Angliya, Amerika jamiyatlari vakillari bilan tegishlicha (adekvat) va muvaffaqiyatli o‘zaro faoliyat qila oladigan ko‘pmadaniyatli (polikultura) lisoniy shaxsni shakllantirish ham o‘qitish maqsadiga aylanmoqda.

O‘z nutqiy rivojlanishida inson lisoniy shaxsga aylanishning pastki darajasidan asta-sekin yuqori darajasiga ko‘tariladi. Olim Yu.N.Karaulovning konsepsiyasiga ko‘ra, lisoniy shaxs “turli murakkablik darajasidagi nutqiy amallarni amalga oshirishga bo‘lgan ko‘p qatlamli va ko‘p komponentli til qobiliyatlari, malakalari, tayyorliklar to‘plamidan” iborat . Lisoniy shaxsi uch darajali tashkiliy tizimga ega. Uning shakllanishi ikkinchi (mantiqiy-kognitiv) darajadan boshlanadi. Umumlashgan tushunchalar, kattalashtirilgan tushunchalar va g‘oyalar bu darajadagi birliklarni tashkil qiladi. Bu darajada individual tanlov, bir tushunchani boshqasiga nisbatan shaxsiy afzal ko‘rishning imkoni mavjud bo‘ladi. Bu daraja birliklari orasidagi munosabatlar “dunyo obrazi/siymosi” yoki “dunyo haqidagi bilimlar tizimini” aks ettiruvchi va dunyo haqida lisoniy tasavvur hosil qiluvchi elementlarni o‘z ichiga oluvchi tartibli, qat’iy iyerarxik tizimda quriladi.

Xorijiy til darslarida dunyoning lisoniy siymosi/tasavvurini shakllantirishning asosiy usuli til va, xususan, leksika bo‘lib, u “til tashuvchilarining lisoniy ongining ob’yektivlashuvining shaklidir” . Bu holat so‘zlar voqelikning bir bo‘lagini aks ettirishi va uning omma tomonidan tushunilishi bilan shartlanadi. Demak, olamning, boshqa xalqning olam haqidagi lisoniy siymosi, tasavvurini shakllantirish leksik kompetensiyaning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Bu, ayniqsa, tilshunoslik OTMida tahsil olishning 2-kursida alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi kurs - talabalarining tayyorlanmagan nutq asoslarining shakllanish bosqichi hisoblanadi.

O‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan leksik materialning hajmi va uning murakkabligi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga auditoriya darslari uchun ajratiladigan soatlari soni keskin qisqaradi, va mustaqil ishlarning ulushi ortadi.

Uzoq vaqt davomida o‘qituvchilar va metodistlarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi masalasiga qiziqishlari so‘nmay kelmoqda. Bu muammo hozirgi kunda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak fani o'qituvchilarini o'qitishda talabalarni o‘zini mustaqil rivojlantirish, o‘zini takomillashtirish va o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini ijodiy ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan talaba shaxsini shakllantirish jarayoni sifatida qaraladi. Bu maqsadga talabaning ijodiy faolligi rivojlansagina, ta’limning motivasion bazasi shakllantirilsagina erishish mumkin.

Tadqiqotning e’lon qilingan maqsadiga ko‘ra, leksik kompetensiyani rivojdlantirish jarayoni o‘rganish ob’yekti hisoblanadi. Bunday maqsadning qo‘yilishi, "psixologik nuqtai nazardan, leksikani o‘quv jarayonida amalda o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan xorijiy tilning barcha asosiy jihatlaridan eng muhimi va jiddiysi deb hisoblash lozim, chunki tilni o‘zlashtirishgan so‘zlar zaxirasi bo‘lmasa, tilni o‘zlashtirishning imkoni yo‘q" .

Olim V.V, Rijovning[126;204-b] eksperimental ishlaridan olingan ma’lumotlarga va S.T. Grigoryan[61;110-b] va P.B. Gurvichlarning[63;172-b] tadqiqotlari natijalariga tayangan holda xorijiy til leksikasini o‘rganishda o‘quv motivatsiyasining quyidagi turlarini ajratiamiz:

1) kommunikativ;

2) lingvo-bilish/lisoniy bilish (tahsil oluvchilarning til shaklini chuqurroq fikrlab tushunishga qiziqishi bilan hosil bo‘ladi);

3) bilish-ta’limiy (har tomonlama savodli inson bo‘lishga intilish bilan; o‘zini o‘rab turgan olamning bilish hodisalarining doirasini kengaytirishga intilish bilan; boshqa mamlakatlarning hayoti, madaniyati, adabiyotini va hok.ni bilib olish istagi bilan rag‘batlanadi/uyg‘otiladi);

4) instrumental (tahsil oluvchilarning muayyan ish turlarini (mashqlarni) bajarishda oladigan qoniqish hissi bilan paydo bo‘ladi);

5) aqliy/intelektual-rivojlantiruvchi (tafakkurni, xotirani, va inosnning boshqa intellektual xossalarini rivojlantirish imkoniyati);

6) kasbiy-pedagogik;

7) emosional/hissiy;

8) izzattalablik motivatsiyasi (xorijiy tilni bilishning nufuzliligi);


9) identifikasion (o‘zini ba’zi boshqa odamlarg ao‘xshatish yoki ular haqida tushunishlar bilan o‘zini belgilashga intilishi);

10) pragmatik (chet elga borib, nufuzli ishg ajoylashish);

11) burch motivatsiyasi (ta’lim/o‘quv vazifalarni bajarish, oliy ma’lumot olish, jamiyatga foyda keltirish zaruriyati)

Bir-biri bilan o‘zaro faoliyatni amalga oshirish bilan, motivatsiyaning yuqorida ko‘rsatilgan turlari xorijiy til leksikasini o‘rgatishning motivasion bazasini tashkil qiladi.

Xorijiy til leksik materialini o‘rganish jarayonida motivatsiyaning ajratib ko‘rsatilgan turlari orasida quyidagi turlar yetakchi o‘rin tutadi(1-rasm):



1-rasm. Xorijiy til leksik materialini o‘rganish jarayonida motivatsiyaning ajratib ko‘rsatilgan turlari

Gurvich[63;143-b], Grigoryan[61;169-b] ta’kidlashicha, kommunikativ motivatsiya uch kichik turga bo‘linadi:

1) muayyan kommunikativ vaziyat bilan shartlangan motivatsiya;

2) muayyan doiraning kommunikativ-bilish/kognitiv vazifalarini hal qilish uchun ushbu leksikani qo‘llashga yaroqliligini anglash bilan sharntlangan leksik materialni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiya;

3) umumiy kechiktirilgan xossali motivatsiya, ushbu nazarda tutilgan leksikani qo‘llashni aniq tushunmasdan umuman nutqiy muloqot uchun leksikani o‘zlashtirish zarurligini anglash bilan shartlangan/kelib chiqqan otivatsiya

Olima A.K. Markovaning[99;78-b] fikriga qo‘shilib, bilish/kognitiv motivatsiya deganda biz shaxsning zarur bilimlarning yetishmasligini aks ettiruvchi holatini tushunamiz. Talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlari bilish motivatsiyasini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Shu munosabat bilan, bilish motivatsiyasi xorijiy til leksikasi

ustida ishlash jarayonining sifatini va uning natijasini belgilaydi. Kognitiv motivatsiya quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:


- yetishmaydigan leksik bilimlarni egallashga intilish;
- chet tili leksikasi bilan bilish amallarini amalga oshirishning rasional usullarini egallash zaruriyati;
- leksik bilimlarni tizimlashtirish va ularni yanada chuqurlashtirish zaruriyati;
- so‘z boyligini kengaytirish ehtiyoji.

Xorijiy til leksikasini o‘qitishda instrumental motivatsiya yetakchi rol o‘ynaydi. Bu turdagi motivatsiyaning mavjudligi va rivojlanishi leksik material bilan ishlashning butun jarayonini, ya’ni kirish bosqichidan boshlanib, nazorat bilan tugaydigan bosqichlarini belgilaydi. Leksikani o‘zlashtirishning samaradorligi talabalarning turli xil mashqlarni bajarishga, leksika bilan ishlashning yangi strategiyalarini o‘zlashtirishga qanchalik qiziqishlariga bevosita bog‘liq. Mashqlarning sifati leksik birliklarni o‘zlashtirish sifatini va leksik kompetensiyani shakllantirishni shartlaydi, belgilaydi.

Ushbu tadqiqot ishida biz kommunikativ va bilish motivatsiyasi bilan birga, instrumental motivatsiyani leksikani o‘rgatishda yetakchi motivatsiyalardan biri sifatida o‘rganamiz.

Lisoniy-bilish (lingvo-bilish/kognitiv) motivatsiyasi til materiyasining o‘ziga, til belgilarining asosiy xususiyatlarini o‘rganishga ijobiy munosabatni anglatadi . Motivatsiyaning bu turi nutqning leksik tomonini o‘rgatishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda lisoniy-bilish motivatsiyaning mavjudligi ko‘p jihatdan motivatsiyalarning kommunikativ va bilish turlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqotchi Brown[45;32-b] fikricha, xorijiy til leksikasini o‘qitish jarayonida ta’lim motivatsiyasi uch darajada namoyon bo‘ladi(2-rasm):



2-rasm. Xorijiy til leksikasini o‘qitish jarayonida ta’lim motivatsiyasi uch darajasi (Brown)

Meske fikricha, xorijiy til leksikasini o‘rganish motivatsiyasini kuchaytirishga yordama beradigan yo‘llarni o‘rganishda biz "muayyan, konkret o‘qitish, o‘quv amalining motivasion komponenti ushbu amalning uni qabul qilish, uni amalga oshirish va yakunlash jarayonlari orqali amalga oshiriladigan sub’yektiv ma’no-mohiyati hisoblanadi" degan fikrdan kelib chiqib ish yuritamiz .

Binobarin, xorijiy til leksikasini o‘rganishda birinchi navbatda: a) talabalarda maqsadning rag‘bat/motivlarini kuchaytirish, ya’ni kelgusi ta’lim amallarining zarurligini, foydaliligini va natijasini asoslash; b) leksik birliklarni eng samarali idrok etish va o‘zlashtirish uchun barcha kognitiv/bilish jarayonlarini ishga solish; v) talabalarning kommunikativ-bilish ehtiyojlariga javob beradigan mashqlar tizimini yaratish va taklif qilish; g) erishilgan natijalarga yakun yasab umumlashtirish, muhokama qilish; d) leksika ustida ishlash perspektivalari/istiqbollarini rejalashtirish.

Yuqorida bayon qilingan fikrlar leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida talabalarda fanga shunday munosabat shakllantirish kerakki, unda o‘quv mayllari ular (talablar) uchun ehtiyojga va o‘zlari intiladigan maqsadga aylansin.

Bunga o‘qitishning motivasion bazasini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga ta’minlashga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab rag‘batlar/turtkilar/stimullar va omillar yordam berishi mumkin. Ularning eng muhimlariga quyidagilar kiradi:

1) akademik (o‘qish/o‘zlashtirishda) muvaffaqiyat;

2) fanlararo aloqalar;

3) xorijiy tilning kelajakda kasbiy faoliyat uchun ahamiyati;

4) ta’lim jamoasida qulay muhitning mavjudligi;

5) tahsil oluvchilar va tahsil beruvich/o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar (muloqotning demokratik uslubi);

6) o‘zini faoliyat sub’yekti sifatida anglash: talaba o‘ziga taklif qilinayotgan o‘quv maqsadlarini o‘zi baholaydi, tanlaydi va qabul qiladi, o‘z harakatlarini o‘zi rejalashtiradi, baholaydi va nazorat qiladi;

7) o‘quv faoliyatining mazmuni va tashkil etilishi;

8) ishda qo‘llaniladigan metodlar va usullarning xilma-xilligi;

9) faol izlanish/qidiruv faoliyatiga sabab bo‘ladigan muammoli vazifalar;

10) o‘quv jarayonida erkin tanlash vaziyati;

11) muvaffaqiyat vaziyati;


12) vazifalarning umunli, ijodiy turlari;

13) materialni bayon qilish shakli (emosionallik, hayotdan quvnoq/qiziqarli misollar, o‘rganilayotgan material bilan bog‘liq latifalar, paradokslar);

14) talabalar ishining kognitiv uslubi;

15) ikki tomonlama aloqaning mavjudligi va boshq

O‘qitishning motivasion bazasini shakllantirishga yordam beradigan barcha rag‘bat/stimullar/turtkilar va omillarni uchta asosiy komponent bilan cheklash mumkin: 1) shaxsiy-psixologik; 2) mazmun; 3) prosessual (2 - rasm).



2 – rasm. O‘qitishning motivasion bazasini shakllantirish komponentlari

Shaxsiy-psixologik komponent tarkibida quyidagi asosiy komponentlar mavjud:

1) mashg‘ulotdagi a) o‘qituvchi va talablaarning o‘zaro munosabatlarining tabiatidan (muloqotning demokratik uslubi); b) talabalarning jamoa ichidagi munosabatlari bilan shartlanadigan psixologik iqlim;

2) o‘qituvchining shaxsi (fan bo‘yicha erudisiya/ bilimdonlik, professionalizm, muloqot uslubi, kommunikativ sifatlar/ fazilatlar, emosional/hissiy madaniyat, xushmuomalalik (takt), shaxsiy sifatlar/fazilatlar va hok.);

3) o‘quvchining shaxsi (dunyoqarashi, qiziqishlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlari, kognitiv/bilish faoliyat uslubi va hok.).

Mazmun komponenti talabalarning rivojlanganlik darajasi, ularning yosh va shaxsiy qiziqishlariga moss kelashi zarur bo‘lgan o‘rganish uchun til va nutq materialini nazarda tutadi.

Prosessual komponentga quyidagilar kiradi: 1) o‘qitish vositalari; 2) o‘qitish shakllari; 3) qo‘llaniladigan topshiriq lar, strategiyalar; 4) mashqlar tizimi.

Ishda asosiy e’tibor prosessual komponentga, ya’ni leksikaga o‘rgatish vositalariga, ish topshiriq lari va strategiyalariga, leksik yo‘naltirilgan mashqlar tizimiga qaratiladi.

Yuqoridagilarga yakun yasab, ta’limning motivasion bazasining rivojlanganlik darajasi tilning o‘rganilayotgan aspektini idrok etish, unga diqqatni jamlashga tayyorligini belgilaydi, fikrlash/aqliy faollikka undaydi va shu sababli xorijiy til leksikasini o‘rganishning yakuniy ijobiy natijasini belgilaydi deb xulosa chiqarish mumkin.

Ta’lim jarayonida, o‘qituvchilar zarur rag‘bat/motivlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar va asoslar shakllantirish bilan, o‘qitishning muayyan shart-sharoitlari va muhitini yaratish bilan, aktual/dolzarb/eng yangi til va nutqiy materialni tanlab olish bilan, ishning maxsus shakllari, topshiriq lari, strategiyalari va mashqlardan foydalanish bilan talabalarning o‘qitish motivasion bazasining rivojlanishiga bilvosita ta’sir qilishi mumkin.

Leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o‘qitishning motivasion bazasini optimallashtirish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi deb taxmin qilish mumkin:

1) xorijiy til leksikasini o‘rganishning maqsadga yo‘naltirilganligi;

2) o‘quv jarayonining ma’no bilan (semantik jixatdan) to‘liqligi (xorijiy tilning leksik birliklarini o‘zlashtirish jarayoniga shaxsan qiziqqanlik);

3) o‘quv jarayonini intellektualizatsiyalash (aqlga/zakovatga moslashtirish);

4) til darslarida ham va uyda ham faol ta’lim faoliyati;

5) talabchanlik va vijdonlilik;

6) sinchkovlik bilan tagiga yetishga (tushunishga) intilish sifati;

7) leksik birliklar bilan ishlashning eng samarali strategiyalarini o‘zlashtirish;

8) xorijiy til leksikasi ustida muntazam mustaqil ishlash.

Binobarin, leksik kompetensiyani rivojlantirish va o‘qitishning motivasion bazasini integratsiya qilish (birlashtirish) leksik birliklar va leksik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini oqilona yo‘naltirish imkonini beradigan samarali tizimni qurishga urinishdir.

Odatda, bilish faoliyati strukturasida ikki komponent ajratiladi:

1) axborot (informasion); va 2) motivasion , .

Axborot komponenti o‘quv axborotlari bilan ishlash uchun javob beradi: idrok qilish, o‘ylab tushunish, yodda eslab qolish va uni keyinchalik xotiradan chiqarish va qo‘llash. Shunday qilib, faoliyatning axborot komponentini o‘rganish shaxsning kiruvchi ma’lumotlar bilan ishlash uchun mas’ul bilish jarayonlarini (fikrlash, xotira,

diqqat va boshqalarni) o‘rganishdan boshqa narsani o‘z ichiga olmaydi. Motivatsiyaning kognitiv/bilish jarayonlari bilan munosabati umuman faoliyat bilan munosabatlari qurish bilan bir xil tarzda quriladi. Motivatsiya mazmun jihatdan terib/tanlab olish jihatni (izbiratelnost) aniqlaydi, kognitiv/bilish jarayonlarining davomiyligi va jadalligini shartlaydi, ularning yakuniy natijasiga jiddiy/sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv jarayonida motivatsiyaning rivojlanishi tufayli "idrok, xotira, tafakkur va faoliyatni bajarishga ko‘maklashuvchi boshqa imkoniyatlarning psixik jarayonlarini qayta qurish" yuzaga keladi .

Kognitiv/bilish jarayonlari, o‘z navbatida, kiruvchi axborotlar bilan ishlash sifati va unumdorligini belgilaydi. Shu munosabat bilan, keyingi paragrafda xorijiy til leksikasini o‘qitish jarayonida bilish jarayonlarining ahamiyatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tilshunoslik OTMi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish quyidagilar bilan belgilangan: a) o‘qitishning motivasion bazasini rivojlantirish bilan; va shaxsiy-psixologik, mazmun, prosessual komponentlar uni shakllantirishning asosiy komponentlari hisoblanadi; b)

xorijiy til leksikasini o‘zlashtirish jarayonida kognitiv faoliyatini rivojlantirish va jalb qilish bilan.

Leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalanish tamoyillarining amalga oshirilishini va talabalarning ichki leksikonining amal qilish qonuniyatlarini hisobga olishni ta’minlaydi.

Tilshunoslik OTMining 2-kurs talabalarining leksik kompetensiyasini o‘qitishning motivasion bazani shakllantirish asosida rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tizimi tarkibida maqsad, mazmun, prosessual va ijobiy natija beruvchi komponentlar mavjud bo‘ladi. O‘qitishning prosessual komponenti quyidagilarni qamrab oladi: a) leksikaga o‘qitish strategiyasi va metodlari (rag‘batlantiruvchi strategiya, grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalanish strategiyasi, lingvotizimlashtiruvchi, ehtimoliy bashorat qilish strategiyasi, kompensator, refleksiv strategiyalar); b) o‘qitish vositalari: grafik tashkil etuvchi vositalar; v) uch kichik tizimni o‘z ichiga olgan leksik jihatga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi; g) o‘qitish shakllari: auditoriya/sinf ishi, mustaqil ish.

Leksik jihatga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi leksik kompetensiyani shakllantirish samaradorligini ta’minlaydi va talabalarning o‘quv motivasion bazasining rivojlanganlik darajasini oshiradi: a) talabalarning o‘quv-bilish, kommunikativ ehtiyojlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish; b) leksik bilimlarni kengaytirish; v) leksik ko‘nikma va malakalarni sifat va miqdor jihatdan takomillashtirish; g) o‘zlashtirilgan leksik birliklar yordamida vazifalarni bajarish.

§ 1.2. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Til — bu millatning ruhi, uning ma'naviy boyligidir". Darhaqiqat, o'qitish jarayonida xorijiy til faqat o'zlashtirilishi kerak bo'lgan fan sifatida emas, balki insonning dunyoni anglash va fikrlash qobiliyatini kengaytiruvchi kuchli vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Xorijiy til orqali o'quvchi nafaqat yangi so'z va grammatik qoidalarni o'rganadi, balki butunlay boshqacha tafakkur tarzini, boshqa xalqning dunyoqarashini o'zlashtiradi.

Til va tafakkur o'rtasidagi bu ajralmas bog'liqlik juda muhim ahamiyat kasb etadi. Til yordamida inson hodisalar va narsalarni umumlashtirish, ularning mohiyatini, yashirin xossalarini anglash, hamda

atrofdagi borliqni chuqurroq idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Chet tillarini bilish — bu nafaqat muloqot vositasi, balki insonning intellektual salohiyatini oshirishning eng samarali yo'lidir" deb bejiz ta'kidlamaganlar. Binobarin, til insonning ichki fikrlarini tashqi olamga chiqaradi, ularni boshqalar uchun tushunarli va qabul qilinishga tayyor shaklga keltiradi. Aynan shu sababli til inson bilish faoliyatining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, uni rivojlantirmasdan turib mukammal mutaxassis bo'lish mumkin emas.

Leksik koʻnikma xorijiy tilni oʻqitish jarayonida nutq faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Olim Ye.I. Passov[115;92-b]ning fikriga koʻra, leksik koʻnikma "koʻnikmaning koʻrsatkichlar/parametrlarda amalga oshiriladigan va berilgan leksik birlikni nutqda vaziyatli qoʻllashni ta’minlaydigan oldindan rejalashtirilgan gʻoya va uni boshqalari (gʻoyalar) bilan toʻgʻri birlashtirishga tegishli/adekvat tarzda leksik birlikni tanlash boʻyicha sintez qilingan amalni" ifodalaydi .

Kommunikatsiya/muloqot - ikki tomonlama jarayon boʻlib, u nafaqat faol nutq faoliyatini, balki suhbatdosh nutqini idrok etishni ham taqozo etadi. Ma’lum boʻlyaptiki, leksik koʻnikmaning bunday ta’rifi uning mohiyatini toʻliq ochib bermaydi.

E.G. Azimov[33;76-b] va A.N. Shukin[154;87-b] kabi olimlar bu kamchilikning/yetishmovchilikni bartaraf qilishga urinshadi Ular leksik koʻnikma deganda "leksik birlikni

rejalashtirilgan gʻoya va uni mahsuldor nutqda boshqa birliklar bilan toʻgʻri birgalikda qoʻllashga tegishlicha/adekvat boʻlgan tanlash boʻyicha avtomatlashtirilgan amal, reseptiv nutqda avtomatlashtirilgan idrok va mazmun, ma’no bilan assosiatsiyalashtirish" deb tushunishgan .

Shu tariqa, eksperssiv (mahsuldor/unumli) va reseptiv leksik koʻnikmalar turlarini ajratib koʻrsatishadi. Nutqiy ekspressiv leksik koʻnikmalar deganda "ogʻzaki va yozma nutqda muloqot vaziyatlari va muloqot maqsadlariga muvofiq ravishda soʻzlarni toʻgʻri qoʻllash va soʻzlarni toʻgʻri yasash koʻnikmalari" tushuniladi. Reseptiv leksik koʻnikmalar deganda "leksik hodisalarni eshitishda yoki oʻqishda (soʻzning strukturasi va uni qoʻllash) idrok qilishda tanish va tushunish koʻnikmalari" nazarda tutiladi .

Ekspressiv leksik koʻnikmalarga soʻzlash/gapirish leksik koʻnikmasi va yozma nutq leksik koʻnikmasi, reseptiv leksik koʻnikmalar qatoriga esa tinglab tushunish leksik koʻnikmasi va oʻqish leksik mahorati kiradi.

Nutq qobiliyatining sharti va uning asosi sifatidagi amal qilish sharti bo‘lishi uchun har qanday ko‘nikma xususiyatlarning malaka uchun ham xos bo‘lgan, biroq sifat jihatdan boshqa darajaga ega bo‘lgan muayyan tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Ye.I. Passov[115;92-b], S.L. Rubinshteyn[129;102-b], S.F. Shatilov[136;13-b] va boshqa olimlarning fikrlariga ko‘ra, avtomatlashtirilganlik, onglilik, barqarorlik, moslashuvchanlik, nisbatan murakkablik leksik ko‘nikmaning ajralmas xarakteristikalar/xususiyatlari hisoblanadi.

Avtomatlashtirilganlik ma’lum tezlik, ravonlik/silliqlik, tejamkorlik (kuch, harakat, vaqtni kam sarflovchi), va amalning/harakatning taranglik jadalligining/darajasining pastligini nazarda tutadi. Avtomatlashtirilganlik "ko‘nikmaning ong osti bilan, tez kechadigan, o‘zini mustaqil nazorat qilish doirasidan tashqarida qolgan amal qilishini" ifodalaydi. Bunda onglilik ko‘nikmaning faqat shakllanish, shakllantirilish jarayonida kuzatiladi" .

Tinglab tushunishsh va o‘qish leksik ko‘nikmasi uchun avtomatlashtirilganlik so‘zning nutqdagi ma’nosini yaxlit idrok etish va tez tushunishdan iborat. So‘zlash/gapirish leksik ko‘nikmasi uchun avtomatlashtirilganlik so‘zni xotiradan tez chiqarib olish va uni to‘g‘ri qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Ko‘nikmaning shubhasiz xosasi bo‘lgan holda, "onglilik" ko‘nikma uchun faqat ichki jihatdan xos, chunki "tabiatan ongli bo‘lish bilan ko‘nikma amal qilish jarayonida o‘z ongliligini ochib bermaydi: u ong bilan ong osti orqali bog‘liq" . Onglilik xato ro‘y berganda, talaba uni tuzatish maqsadida qoidaga murojaat qilganda kuzatiladi. Bu ko‘nikmani shakllantirishda va amal qilishida onglilik komponentning mavjudligini ko‘rsatadi. Bu xususiyat tufayli ko‘nikma talabalarning diqqatini oraliq operatsiyalarni nazorat qilish zaruriyatidan ozod qiladi.

Olim A.N. Leontyev[92;114-b] agar ko‘nikma "amalni predmet sharoitlaiga moslashtirish yoki oddiy taqlid qilish, ya’ni puxta o‘ylab tushunmasdan" shakllantirilgan bo‘lsa, uning ongli nazorat qilishning imkoni bo‘lmasligiga e’tibor qaratadi . Shuning uchun, kelajakda nazorat qilishning imkoni bo‘lishi uchun ko‘nikmani ongli maqsadga yo‘naltirilgan amal/harakat asosida shakllantirish zarur.

Ko‘nikmaning barqarorligi "uni shakllantirish va boshqa ko‘nikmalar bilan o‘zaro faoliyati jarayonida har xil turdagi ta’sirlar ostida o‘zgarmaslik, barqarorlik" sifatida namoyon bo‘ladi . Ushbu xususiyati

tufayli shakllantirilgan leksik ko‘nikma har xil turdagi salbiy ta’sir tufayli buzilmaydi.

Ko‘nikmaning yangi vaziyatda yoki yangi nutq materialida amal qila olishi (qobiliyati) uning moslashuvchanlik kabi sifati mavjudligidan dalolat beradi. Moslashuvchanlik tufayli operatsiyalarni amalga oshirish uchun o‘zlashtirilgan tamoyillar yangi faoliyat yoki vaziyatga o‘tkazish amalga oshadi. Reseptiv tabiatdagi leksik ko‘nikmalar uchun moslashuvchanlik turli kontekstlarda yangi so‘zlarni tez taniy olishni (tanib, tushunishni) anglatadi. So‘zlash leksik ko‘nikmasi uchun moslashuvchanlik leksik materialdan yangi muloqot vaziyatlarida foydalana olish, yangi kommunikativ vazifalarni bajara olishdan iborat.

Ko‘nikmani (boshqa vazifani bajarishga) to‘g‘ri o‘tkazish yangi faoliyat turlarini va noma’lum vazifalarni o‘ta xatosiz va ancha tezroq o‘zlashtirish va bajarish imkonini beradi. Agar o‘tkazish noto‘g‘ri bo‘lsa, interferensiya (xalal berish, xaldaqit berish) kabi sodir bo‘ladi. U operatsiyalar yoki amallarni bajarishning ilgari shakllangan topshiriq lari tashqi o‘xshash, lekin bajarish usullari jihatidan o‘zgacha operatsiyalarga o‘tkazilishi bilan ifodalanadi. va bu xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Olim S.F. Shatilovning[135;135-b] fikricha, "interferensiyaga qarshi tura oladigan kuchli xorijiy til ko‘nikmalarining yaratilishi" ona tili ko‘nikmalarining xorijiy til ko‘nikmalariga xalal berishi/interferensiya qilishini yengib o‘tishda asosiy omil hisoblanadi .

Olima I.A. Zimnyaya[157;315-b] puxta, mustahkam ko‘nikmani shakllantirish uchun quyidagi zarur shart-sharoitlarni ko‘rsatadi:

a) maqsadga yo‘naltirilganlik;

b) ichki motivatsiya va tashqi ustanovkaning mavjudligi;

v) ta’lim jarayonida mashqlarning to‘g‘ri taqsimlanganligi;

g) mashq qilinayotgan hodisani puxta o‘ylangan/tushunilgan nutq vaziyatiga kiritish;

d) tahsil oluvchi uchun amalni bajrishning natijalarini doim bilishning zarurligi;

e) amalning/harakatning umumiy tamoyilini, trenirovka qilinayotgan (mashq qilinayotgan) operatsiya qiritilgan harakat sxemasini tushunish;

j) ilgari yaratilgan/tarbiyalangan ko‘nikmalarning ko‘chirilishi va interferensiyasini hisobga olish .

Ko‘nikmalarni ongli ravishda shakllantirish, amallarni/harakatlarni bajarish yoki shu kabi vazifalarni yechish jarayonidagi farqlarni aniqlash ham interferensiyaning oldini olishga yordam beradi. Shu sababli

moslashuvchanlikni shakllantirish "avtomatlashtirilganlik va barqarorlikni yaratish jarayonida" sodir bo‘ladi .

Ko‘nikmaning nisbiy murakkabligi shundaki, u kichik elementar/sodda amallar/harakatlardan iborat bo‘lishi yoki murakkabroq ko‘nikma trkibiga kiritilgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘nikmaning sayqallanganligi, to‘la shakllantirilganligini tashqi va ichki mezonlarini ajratib ko‘rsatishadi. Tashqi mezonlarga quyidagilar kiradi: a) to‘g‘rilik (xatolarning yo‘qligi); b) sifatlilik (ya’ni mustahkamlik/puxtalik, barqarorlik, moslashuvchanlik, "onglilik"); v) alohida operatsiyalarni bajarishning tezligi yoki ularning ketma-ketligi.

Ichki mezonlar deganda: a) amal, harakatni bajarish shakliga yo‘naltirilgan anglaganlikning yo‘qligi; b) taranglilik va tez horiqishning yo‘qligi; v) oraliq operatsiyalarning tushirib qoldirilishi, ya’ni amal/harakatlarning qisqartirilganligi tushuniladi .

Olim S.F. Shatilov[135;140-b] leksik ko‘nikmani shakllantirish jarayonida uchta ketma-ket bosqichni ajratadi:

1) Yo‘naltiruvchi-tayyorgarlik bosqichi. Bu yangi so‘zni kiritish, semantizatsiyasi va birlamchi takror ishlab chiqarish bosqichidir. Ushbu bosqichda yangi so‘zning talabalarning avvalgi bilimlari, ularda mavjud nutq tajribasi bilan imkoni boricha ko‘p mantiqiy va assosiativ aloqalarini aktuallashtirish/dolzarblashtiri/yangilash zarur. Bu yangi leksik birliklarni allaqachon o‘zlashtirishlgan/o‘rnashgan semantik strukturalar va bu bilan yangi stereotiplarni tezroq ishlab chiqarish/shakllantirish imkonini beradi.

2) Stereotiplashtirish-vaziyatli/situativ bosqich. Bir xil/turli nutq vaziyatlarida berilgan doirada situativ/vaziyatli tayyorlash va mustahkam/puxta leksik aloqalarni yaratish bosqichi. Ushbu bosqichda nutq amalining doimiy komponentlarining avtomatlashuvchi sodir bo‘ladi. Faoliyatning refleksiv komponenti, faoliyat komponenti, bosqichning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi, va u tufayli avtomatlashtirilganlik angli asosda shakllanadi.

3) O‘zgaruvchan situativ/vaziyat bosqich. Dinamik leksik aloqalarni yaratish bosqichi, ya’ni tanish/ma’lum leksik elementlarni berilgan doiralarda turli kontekstlarda yangicha birlashtirish. Ushbu bosqichning maqsadi ko‘nikmaning avtomatlashtirilganligi va moslashuvchanligini shakllantirishni davom ettirishdan iborat .

Kognitiv yondashuvda, leksik ko‘nikmalarni shakllantirish intellektual/aqliy ko‘nimalarni shakllantirish bilan birga amalga oshadi.

Intellektual/aqliy ko‘nikma “avval uchragan vazifani yechishning avtomatlashtirilgan topshiriq i, usulini” ifodalaydi [Qisqa psixologik lug‘at/Kratkiy psixologiche¬skiy slovar, 2001:195].

Intellektual/aqliy leksik ko‘nikmalarning ikki turini ajratib ko‘rsatishadi: 1) leksik bilmlarni egallash/olish ko‘nikmalari; 2) leksik bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari , , .

Intelektual/aqliy ko‘nikmalar leksik material bilan turli amallarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlaydi (leksik birliklarni tanish, taqqoslash, differensiatsiya qilish/farqlash, ularni xotirad asaqlab olish, ularning ma’nosini anglash, xorijiy til so‘z komponentlarini egallaganlik, leksik materialni unumli va reseptiv birlashtirish/kombinatsiya qilish, uni ijodiy tarzda qo‘llash) .

Leksik birlikni egallaganlik talabaning uni idrok qilish va undan faol foydalana olish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu esa reseptiv va ekspressiv leksik ko‘nikmalar orasida juda yaqin o‘zaro aloqadorlikni artlaydi. Bu o‘zaro aloqadorlikni leksik ko‘nikmaning ma’lum bir strukturasining mavjudligi tufayli kuzatish mumkin.

Leksik ko‘nikmaning har bir turini alohida-alohida batafsil ko‘rib chiqqandan keyin, ularning o‘xshashlik va spesifikasini/o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz

Tinglab tushunishning leksik ko‘nikmasi "tinglovchining psixologik mexanizmlarining leksik birlikka teng tashqi nutq signali bilan, va uzoq muddatli xotirada saqlanadigan ichki obraz - etalon bilan o‘zaro faoliyati/ta’siriga asoslangan dinamik tizimniifodalaydi" .

Tinglab tushuinish leksik ko‘nikmasining strukturasida quyidagi operatsiyalar farqlanadi:

a) xorijiy til so‘zini ovoz/tovush kontekstida eshitish bilan idrok qilish;

b) idrok qilingan so‘zni etalon obraz bilan taqqoslash;

v) so‘zning dastlabki shaklini aniqlash;

g) so‘zning strukturasini aniqlash va uning ma’nosini (kontekst taxmini) chiqarish/tuzish;

d) so‘zning grammatik kategoriyalarini aniqlash;

e) so‘zning idrok qilingan ovoz/tovush obrazini uning ma’nosibilan taqqoslash;

j) so‘z birikmasi yoki ibora tarkibidagi keyingi so‘zni odindan sezish/payqash (tushunish);

z). talaffuz qilinishi va shakli o‘xshash so‘zlarni bir biridan farqlash;

i) omonim, sinonim va antonim hodisalarni bir biridan farqlash;

k) so‘zning kontekstdagi ma’nosini aniqlash .

Olima M.P. Bazina[38;74-b] strukturasiga ko‘ra tinglab tushunish leksik ko‘nikmasini grammatik va prosodik belgilar/xususiyatlarni idrok etish ko‘nikmasiga qaraganda murakkabroq ekanligini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, nutqning tovush tomonini ongostida idrok qilmasdan va grammatik xususiyatlarni ularning mos ma’nolari bilan bog‘lamasdan "shakl - leksik ma’no" aloqasini o‘rnatishning imkoni yo‘q .

So‘zlash leksik nutqiy ko‘nikmasi deganda "og‘zaki nutqda muloqot/kommunikatsiya vaziyatlari va maqsadlariga muvofiq ravishda intutitiv tarzda so‘zni to‘g‘ri qo‘llash va b.

So‘zlash lekski ko‘nikmasi tarkibiga quyidagi operatsiyalarni avtomatik o‘zlashtirganlik kiradi:

a) leksik birlikni xotirada aktuallashtirish/yangilash;

b) so‘zning tovush obrazini etalon namunasi asosida tashqi nutqda qayta takrorlash/qo‘llash/ishlab chiqarish;

v) so‘zning tegishli grammatik shaklini tanlash;

g) leksik va grammatik valentlikni hisobga olgan holda bu so‘zni boshqa so‘zlar bilan birga qo‘llash/bog‘lash;

d) so‘zni nutq namunasiga qo‘shish;

e) so‘zni minimal (eng kichik) bayonga kiritish .

Bir tomondan, so‘zlash leksik ko‘nikmasi barcha jihat/aspekt ko‘nikmalar orasida eng onglisi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmadan, avvalo bayonning mazmun tomoni bog‘liq bo‘ladi. Boshqa tomondan esa, "so‘zlash leksik ko‘nikmasining alohida olingan operatsiyalari alohida e’tibor talab qilmaydi, balki kompleks tarzda (shaklda) amalga oshiriladi" . Til va vaziyatli mos kelishlik, moslashuvchanlik so‘zlash leksik ko‘nikmasining asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

O‘qish (o‘qib tushunish) leksik ko‘nikmasini "o‘qish jarayonida leksik birliklarni idrok etish, tanish va tushunish bo‘yicha amalni ko‘nikma ko‘rsatkichlarida/parametrlarida sintezlashgan tarzda bajarish qobiliyati" deb qarash mumkin

O‘qish leksik ko‘nikmasining strukturasiga quyidagi operatsiyalar kiradi: a) ko‘rish/ vizual kontektsda xorijiy til so‘zini ko‘rish/vizual tarzda idrok etish; b) ko‘rish/vizual namunani/obrazini etalon namuna bilan taqqoslash; v) so‘zni tushunish qiyin bo‘lgan holatda regressiya; g) ko‘rish/vizual kontekstda idrok etilgan so‘zning boshlang‘ich shaklini aniqlash; d) so‘zning strukturasini uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish asosida aniqlash (kontekstli taxmin); ye) so‘zning grammatik kategoriyalarini aniqlash; j) so‘zning idrok etilgan ko‘rish/vizual obrazini

uning mazmuni/ma’nosi bilan taqqoslash; z) so‘z birikmasi yoki ibora tarkibidagi keyingi keldadigan so‘zni odindan sezish/bilish; i) talaffuz qilinishi va shakli o‘xshash so‘zlarni farqlash; k) omonim, sinonim va antonim hodisalarni farqlay olish; l) kontekstda so‘zning kontekstdagi ma’nosini aniqlash .

Avtomatlashtirilganlik, moslashuvchanlik va barqarorlik o‘qish leksik ko‘nikmasining asosiy xususiyatlaridir. O‘qish leksik ko‘nikmasi boshqa barcha turdagi ko‘nikmalar orasida eng barqarori hisoblanadi. Uni ishlab chiqilganlik/ sayqallashtirilganlik/o‘rnatilganlik mezonlari quyidagilar: a) o‘qishning tezligi; b) o‘qib tushunish darajasi va ko‘lami/hajmi; v) notanish so‘zning ma’nosini fahmlay olish/taxmsin qila malakasi .

Nutq faoliyatining turli xil leksik ko‘nikmalari operatsiyalarining strukturasini ko‘rib chiqqandan keyin, o‘qish leksik ko‘nikmasi va tinglab tushunish leksik ko‘nikmasi: idrok, taqqoslash, idrok qilingan obrazni ma’no bilan taqqoslash/bog‘lash, o‘xshash obrazlarni shaklga ko‘ra farqlash, so‘zning kontekstdagi ma’nosini aniqlash kabi umumiy (mushtarak) operatsiyalarni o‘z ichiga oladi deb qayd qilish mumkin. Biroq, bu operatsiyalar to‘laligicha/butunlay bir xil emas. Tinglab tushunish leksik ko‘nikmasi va o‘qish leksik ko‘nikmaasi xorijiy tildagi so‘z taqdim etilgan/keltirilgan kodda farqlanadi. Bu ushbu operatsiyalarning xarakteri/tabiatiga, ularni amalga oshirish tezligiga ta’sir qiladi.

Reseptiv va unumli/mahsuldor leksik ko‘nikmalar o‘z operatsiyalariga ko‘ra farqlanadi. Buning sababi ular nutq bayonining turli tomonlariga (idrok qilish va hosil qilish/ishlab chiqarishga) qaratilgan.

Nutqiy faoliyatning har xil turlarining leksik ko‘nikmalarining aniqlangan umumiyligi (mushtarakligi) operatsiyalar va amallarni bajarishning o‘xshash usullarini o‘tkazish (ko‘chirish) imkoniyatini va binobarin, xorijiy tilni o‘qitish jarayonida ularni o‘zaro bog‘liq ravishda shakllantirish zarurligidan dalolat beradi. Bunday yondashuv yanada mustahkam/puxta, barqaror, moslashuvchan va ongli leksik ko‘nikmalarni shakllantirishga erishish imkonini beradi. Bunda leksik ko‘nikmalarni faqat bir-biri bilan o‘zaro faoliyat/ta’sirda emas, balki grammatik va fonetik ko‘nikmalar bilan o‘zaro faoliyat/ta’sirni hisobga olib ham shakllantirish lozimligini hisobga olish zarur. Leksikani o‘tilgan va mustahkamlashtirilgan grammatik materialda/asosida tushuntirilishi zarur, eshitish-talaffuz va ritmik-ohang/intonatsiya ko‘nikmalarini esa

leksik materialning ma’lum dozasi ustida ishlash jarayonida mustahkamlanishi va takomillashtirilishi lozim.

Leksik ko‘nikmalar ustida ishlarni ularning o‘zaro aloqadorligida amalga oshirishda, ko‘nikmalarni nutq faoliyatining bir turidan boshqasiga ko‘chirish faqat ushbu jarayonni qat’iy boshqarish sharoitidagina mumkin bo‘lishini ham hisobga olish zarur.

Olim N.I. Berishvili[42;153-b] ko‘chirish mexanizmini shakllantirishning muvaffaqiyati uning tabiati va jadalligini/intensivligini belgilaydigan quyidagi omillarning mavjudligiga bog‘liq deb hisoblaydi: a) faoliyat ob’yektiga aloqador omillar: talabalar egallagan va yangi yaratilayotgan amallarning o‘xshashlik darajasi; amal/harakatlarning shakllanganlik darajasi va boshq.; b) amallarni bajarish shart-sharoitlariga bog‘liq omillar: amallarni bajarishning stereotipikliligi va muntazamliligi; ishlash sharoitlarining variativligi/o‘zgaruvchanligi; mashqlarning xarakteri va boshq.; v) faoliyat sub’yekti bilan bog‘liq omillar: individual psixik jarayonlarning sifati; tahsil oluvchilarning ijtimoiy maqomi va yoshi

S.F. Shatilov[135;134-b] moslashuvchan ko‘nikmalarni shakllantirish va ko‘chirish/uzatish uchun zarur quyidagi omillarni ko‘rsatadi: a) til hodisasini qo‘llashning tashqi va ichki jihatdan o‘xshash, ammo variativ/o‘zgaruvchan, analogiyaga ko‘ra shakllantirilayotgan stereotipni buzmaydigan doirada (chegarada) sharoitlar (vaziyatlar) yaratish; b) o‘rganilayotgan hodisaning ushbu xorijiy tilning boshqa til hodisalari bilan yoki ona tilining mos keladigan/tegishli hodisasi bilan o‘xshashlik darajasini bilish. shuningdek nutq operatsiyalarini bitta til doirasida yoki bir tildan boshqa tilga ko‘chirish chegaralarini, ya’ni qarama qarshi qo‘yish yo‘li bilan o‘xshash hodisalarda mos kelmasliklarning tabiatini tushunish .

Muloqot jarayonida nutqiy ko‘nikmalarning komponentlari sifatida leksik ko‘nikmalar muloqot kilish/kommunikativ vazifalarni bajarishda nutq-fikrlash operatsiyalari va amallarni bajarish sifatiga ta’sir qiladi. Shakllangan leksik ko‘nikmalarning yetarlicha yuqori darajasi, ularning nutq faoliyatining bir turidan ikkinchisiga muvaffaqiyatli ko‘chirilishi talabalar diqqatini umuman nutqiy faoliyat natijasiga qaratish, alohida operatsiyalarni nazorat qilishga chalg‘imasdan kommunikayiya/muloqot muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Olima I.A. Zimnyaya[157;323-b] nutq faqat ko‘nikmalar bilan cheklanmaydi, chunki u "ijodiy, ikkilamchi malakani" ifodalaydi deb

ta’kidlaydi . Demak, olimaing fikriga ko‘ra, nutq malakalari nutqning muhim komponentidir

Malaka deganda, "olingan bilimlar va ko‘nikmalar majmui bilan ta’minlanadigan, sub’yekt tomonidan o‘zlashtirilgan amalni bajarish usuli" tushuniladi. "Malaka mashqlar orqali shakllantiriladi va amallarni nafaqat tanish/odatiy, balki o‘zgargan sharoitlarda ham bajarish imkoniyatini yaratadi "[Qisqacha psixologik lug‘at/Kratkiy psixologicheskiy slovar, 1995:365].

Olima I.S. Yakimanskaya[153;64-b] malakani "bilimlarni (amal qilish usullarini) vazifaning muayyan/konkret sharoitlariga qo‘llashni ta’minlaydigan o‘ziga xos oriyentir/tayanch/yo‘nalish" deb ta’riflaydi. Bunday qo‘llash avtomatik ravishda amalga oshirilmaydi. U muayyan intelektual/aqliy amallarni taqozo etadi " .

Malakalarni shakllantirish deganda ushbu muallif "ma’lumotlarni ularni qo‘llash lozim bo‘lgan muayyan/konkret vaziyat bilan taqqoslash (tanlash, bog‘lash) bo‘yicha bilimlarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash va qayta ishlash bo‘yicha murakkab amallar tizimini egallaganlikni" tushunadi .

Tadqiqotchi olim Ye.I. Passov[115;132-b] nutq malakalarining quyidagikabi asosiy xarakteristikalarini/xususiyatlarini aniqlaydi: 1) nutq strategiyasini belgilaydigan maqsadga yo‘naltirilganlik; 2) dinamizm, muammolarni yechish yo‘llarini (nutqqa nisbatan qo‘llaganda - vaziyatlarni hal qilish) zudlik bilan topish qobiliyatini nazarda tutadi; 3) mahsuldorlik; 4) ko‘nikmalarning integratsiya qilinganligi (birlashtirilganligi), ya’ni ko‘nikmalarning sintez asosida paydo bo‘ladigan "mustahkam birlashtirilganligi".

Muallif nutq malakasida doimo quyidagilar integratsiya qilinishiga/ birlashtirilishiga ishora qiladi: 1) turli tabiatli (leksik, grammatik, talaffuz) ko‘nikmalar; 2) turli darajada avtomatlashtirilgan ko‘nikmalar; avtomatlashtirilmagan komponentlar (hayotiy tajriba, bilimlar, emosional/hissiy soha va boshq.); 4) iyerarxiyaga solinganlik (tobelik asosida tartibga solinganlik): a) operasion daraja (uning barcha ko‘nikmalari); b) motivasion-fikrlash (tajriba, bilimlar, his-tuyg‘ular va boshq.); 5) mustaqillik: a) xorijiy tilda nutq malkasining muxtorligi/avtonomligi, uning (shakllangan holida) ona tilidan mustaqilligi; b) bevosita idrok qilinadigan so‘zlar, faoliyat rejasi, voqelik ob’yektlari ko‘rinishidagi tayanch-aytib berishlar/ko‘makchilardan (podskazkalardan) mustaqillik .


Olim J.L. Vitlin[149;132-b] malakalarning ularni ko‘nikmalardan farqlovchi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajrati ko‘rsatadigan) amallarni bajarishda avtomatlashtirilganlikning yo‘qligi; b) amallarni bajarish jarayonida bilim va oldingi tajribaga tayanishning doimiy ishlatilishi; v) avtomatlashtirilmagan amallardan bilim bilan birga parallel tarzda foydalanish; g) amallarni bajarish jarayonida kengaytirilgan o‘zini mustaqil nazorat qilishning mavjudligi; d) malakalarni shakllantirishning maxsus bosqichlarining mavjudligi ("birlamchi/dastlabki malakadan" "yuqoori daraja rivojlangan ijodiy malakagacha"); ye) kommunikativ (muloqot) malakalarining ijodiytabiati/xarakteri .

P.B. Gurvich[63;185-b] va Yu.A. Kudryashov[85;105-b] kabi olimlar leksik malakalarning ikki turini ajratib ko‘rsatishadi:1) asosiy leksik malakalar nutq faoliyatining avtomatlashtirish lozim bo‘lgan ajralmas komponentlaridir; 2) asosiy malakalarning rivojlanishiga yordam beruvchi yordamchi leksik malakalar .

Nomlari zikr qilingan mualliflar asosiy leksik malakalariga quyidagilarni kiritishadi: a) leksik birliklarni ularning barcha xarakterli shakl va funksiyalarida qo‘llay olish malakasi; b) nutq tajribasida ilgari uchramagan so‘z va leksik birikmalarni yarata olish malakasi; v) bir biriga qarama qarshi qo‘yilgan, ma’nosi bir biriga yaqin bo‘lgan birliklar qatoridan vaziyatga qarab tanlab olish malakasi

Make up a semantic map on the topic:

a. Write down a list of your associations (words, phrases, proverbs, etc.)
b. underline the key words
c try to divide all the words into groups in any way you like
d. think of the most common situations, problems related to the topic
e. correlate the word groups with the situations and problems
f. think of any other possible associative/group/logical relations
g. draw and fill in the semantic map
h. compare your answers with somebody else's e.g.



2. Play a word game. Say the names of fruit/vegetables (or anything that you eat) in alphabetical order. For example: apple-banana-cabbage... To make the game more difficult and interesting you may set the certain number of words for each letter.

3. Write down a vegetable and a fruit.

Vegetable

Beginning with the letter 'p'

Beginning with the letter 'b'

Beginning with the letter 'm'

Beginning with the letter 'c'

Beginning with the letter 'a'

Yordamchi leksik malakalarga quyidagilar kiradi: a) leksik bilimlarni ongli ravishda qo‘llash malakasi: leksik "qoidalardan" ularning kengaytirilgan yoki parchalangan shaklida foydalanish malakasi; ona tili bilan turli xil ongli taqqoslashlar; so‘zlarni boshqalar bilan irga kelishi (birga qo‘llashda) ijobiy tajribalarni eslash (ongli analogiya/o‘xshatish); so‘zlarning qo‘llanilishi va birga kela olish/qo‘llanilish imkoniyatida salbiy tajribalarni eslash; so‘zning ichki obrazi va leksik birliklarning boshqa leksik birliklar bilan birga qo‘llanilish uyg‘unligini eslash; mustaqil so‘z hosil qilish uchun so‘z yasash me’yorlarini bilishni qo‘llash.; b) leksika darajasida kategoriya tushunchalarini yarata olish malakasi; v) leksik parafraza (fikr ifodalash uchun cheklangan til materialidan foydalana olish, boshqa so‘zlar bilan ifodalash); g) so‘zlarni tez esga tushirish malakasi (so‘zlarning semantik-assosiativ aloqalari asosida) .

Nutq faoliyatining turli xil turlarining o‘zaro aloqador leksik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish ularni og‘zaki va yozma nutqqa kiritishning yuqori darajada moslashuvchanligi va operasion tayyorligiga

erishish va natijada talabalarning kommunikativ/muloqot imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Barqaror leksik ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning muvaffaqiyati bir qator omillarga bog‘liq bo‘lib, bu leksik-semantik axborotni tashkil qilish usulidir. Taklif qilinayotgan usul leksik materialni turli ko‘rsatkichlar/parametrlar bo‘yicha tartibga solish, tizimlashtirish va kategoriyazatsiyalashtirish/turkumlash tamoyillariga asoslangan bo‘lib, bu uni chuqurroq tushunish va o‘zlashtirishga yordam beradi.

§ 1.3. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik xususiyatlari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz farzandlarimizni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirgan, chuqur intellektual salohiyatga ega, har tomonlama kamol topgan insonlar etib tarbiyalashimiz zarur" deb alohida urg'u berganlar. Bu olijanob maqsadga erishishda mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida leksik ko'nikmalarni shakllantirish va mustahkamlashning ahamiyati beqiyos ekanligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, bu ko'nikmalarni xorijiy tillarni o'rganish orqali rivojlantirish eng samarali va natijali yo'l ekanligi amaliyot tomonidan isbotlangan.

Prezidentimiz shuningdek, "Chet tillarini o'rganish — bu kelajakka investitsiyadir" degan hikmatli so'zlarni ham aytganlar. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak fan o'qituvchilarini tayyorlashda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining eng muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biriga aylangan. Zero, leksik boylik va nutq madaniyatiga ega o'qituvchigina o'z fani va chet tili orqali yosh avlodga sifatli bilim bera oladi hamda ularni xalqaro miqyosdagi raqobatga tayyor mutaxassislar sifatida shakllantirishga hissa qo'sha oladi.

O‘zbekistonda mavjud barcha oliy ta’limda globallashuv, yangi kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro muloqot tillari sifatida ingliz va nemis tillari, raqobat kuchayib borayotgan va tijoratlashuv bilan tavsiflangan yangi sharoitga moslashgan holda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ekanligi nazarda tutilgan. Shu nuqtai nazardan, ta’limda chet tillarini o‘rganishning ahamiyati oshdi, mehnat bozorida kasbiy faoliyat rivojlandi va axborot kommunikatsiya

texnologiyalari vositasida kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni oshirishga bo;lgan ishtiyoq va talab ortib bormoqda.

Leksikaning moslashuvchanligi va harakatlanuvchanligiga qaramay, u kerakli ma’lumotlarni chiqarib olishning soddaligi va qulayligini ta’minlaydi. Bu ichki leksikonda saqlanayotgan barcha leksik birliklarning tartibga solingan tizimni tashkil etishi bilan izohlanadi. Tizimning asosiy so‘zini faollashtirish "boshqa elementlarning bir vaqtning o‘zida, ketma-ket/izchil yoki tanlab yangilanishi/aktualizatsiyasiga" olib keladi .

Binobarin, ichki leksikonning amal qilishi quyidagi qonuniyatlar bilan belgilanadi: 1) kognitiv va lisoniy bilimlarning nisbati; 2) ichki leksikonning strukturasi, ya’ni leksikon birliklarini saqlash va ulardan foydalanish/kirish yo‘llari.

Leksikonning leksik birliklari quyidagicha semantik modellar asosida tashkil topadi deb hisoblanadi: 1) klasterli; 2) guruhiy; 3) qiyosiy semantik belgilar modeli; 4) tarmoqli .

Klaster modeliga muvofiq so‘zlar ko‘rinishida berilgan tushunchalar tizimlashtirilgan holda, o‘xshash elementlarning klasterlari yoki to‘plamlar/yig‘indilari ko‘rinishida saqlanadi. Masalan, muayyan/konkret qush haqidagi xotiralar boshqa qushlarning xotiralari bilan, ya’ni turkum bo‘yicha o‘xshash so‘zlar bilan saqlanadi. masalan, chumchuqsimon qo‘shlar oilasiga mansub qush - malinovka so‘zi burgut, vyurok, qizilishton, chumchuq va boshqa shu kabi so‘zlar bilan birg ajoylashgan bo‘ladi.

Guruhiy modellar klasterli model bilan umumiy xususiyatga ega. Ularda (tushunchalar) so‘zlar guruhlar (klasterlar) ko‘rinishida namoyon bo‘lishi nazarda tutiladi. ular orasidagi farq tushunchalarning nafaqat toifalar/kategoriyalarga ko‘ra, balki ushbu guruhga xos xususiyatlar bilan ham birlashishidan iborat. Malinovka tegishli bo‘lgan guruh quyidagi belgilarni o‘z ichiga oladi: qizil ko‘krak, qanot, patlar va boshqalar.

Qiyosiy semantik belgilar modeli guruhiy modeliga yaqin, lekin unda juda muhim farq mavjud - bu model ikki xil belgini ko‘rsatadi. Bular belgilovchi va xarakterli xususiyatlardir. Belgilovchi xususiyatlar so‘z ma’nosining muhim jihatlarini tashkil etadiki bundan jihat/aspkektlarsiz so‘z ushbu turkumga mansub qili/kiritib bo‘lmaydi. Xarakterli (o‘ziga xos) belgilar elementga xosdir, ammo uni ushbu toifaga kiritish/mansub qilish uchun muhim (yetarli) emas. Tarmoqli modellarda saqlanidigan so‘zlar aloqalar yoki propozisiyalar bilan murakkab tarmoqqa birlashtirilgan. Malinovka so‘zining belgilovchi belgilari quyidagilar:

qizil ko‘krak, qanotlarning mavjudligi va boshqalar. Xarakterli xususiyatlarga esa quyidagilar kiradi: zararsiz, daraxtlarda in quradi va boshqalar.

Tarmoqli modellarida ichki leksikonda saqlanayotgan so‘zlar turli aloqalar yoki propozisiyalar (fikr/mulohaza) bilan murakkab tarmoqqa birlashtirilgan.

So‘zlarning tashkil etilishining bu strukturalarini ajratuvchi chegaralar aniq emas. Sanab o‘tilgan modellar ma’lum darajada bir-birini kesib o‘tishi/ustma-ust tushishi mumkin.

Ichki leksikonni tashkil etishning mental/aqliy tabiatini hisobga olgan holda, biz so‘z birikmasi ustida ishlashda quyidagi tamoyillardan kelib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1) leksikonning yangi birliklarining individningongida allaqachon shakllangan semantik strukturalarga tayangan holda va mavjud bo‘lgan kognitiv bazasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur; 2) leksikonning yangi birliklarining ma’nolarini sharhlash va anglash yangi leksik aloqalar/bog‘lanishlarni shakllantirilishi va allaqachon mavjudlarining qayta qurilishi, to‘ldirilishi bilan bir vaqtda amalga oshirilishi zarur.

Shu munosabat bilan, biz leksika bilan ishlashni grafik tashkil etuvchi vositalar, ya’ni konseptual va leksik-semantik axborotlarni, leksik birlik va g‘oyalar guruhlarini ifodalashning vizual/ko‘rgazmali yo‘llari yordamida tashkil etishni taklif qilamiz. Grafik tashkil etuvchi vositalar biror tushuncha yoki leksik birlik haqidagi ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish, e’tiborni ham lisoniy (lingvistik), ham ekstralingvistik ma’lumotlarga qaratish, asosiy ma’no/mohiyat/jihatga diqqat-e’tiborni qaratish imkonini beradi.

Grafik tashkil etuvchi vositalar orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatishadi: 1) associograma; 2) klaster modeli; 3) matrisa; 4) diagramma; 5) daraxt modeli; 6) vilka/sanchqi modeli; 7) "baliq suyagi" modeli; 8) goyaviy/mafkuraviy panjara modeli; 9) semantik xarita modeli.

Grafik tashkil etuvchi vositalar quyidagi xususiyatlarga ega: 1) bilimlarning ma’lum bloklarini ifodalaydi; 2) eng sodda/elementar birliklardan, ya’ni so‘zlar, tushunchalar va ularning aloqalaridan quriladi/tuziladi; 3) ko‘rgamalilik vositasi hisoblanadi; 4) reprezentativlikka xossasiga ega, ular voqelikning u yoki boshqa/muayyan fragmentini/ bo‘lagini ob’yektivlashtirilgan obrazini qurish jarayonida ishtirok etadi; 5) ma’lum konstruktivlik xossasiga, ya’ni ko‘rinishining o‘zgarishi va qayta qurish imkoniyatiga ega. Bu esa ichki

leksikon qurilishining/tuzilishining harakatlanuvchanligi va moslashuvchanligini aks ettirish imkonini beradi.

Assosiogrammalarning asosiy maqsadi - so‘zlar o‘rtasida turli xil aloqalar/ bog‘lanishlar (semantik, assosiativ, mantiqiy va boshq.) turlarini o‘rnatishdir.).

Klaster modelidan foydalanish so‘zlarni muayyan mezonlarga ko‘ra guruhlash, ularni qabul qilingan tamoyilga ko‘ra tizimlashtirish imkonini beradi.

Matrisalardan (jadvallardan) foydalanish bilimlarni tizimlashtirishga, umumiy/ mushtarak va farqli belgilarni aniqlashga, ularni ko‘rgazmali tarzda taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yishga yordam beradi.

Diagrammalar so‘zda biror belgining mavjudligi yoki yo‘qligi daraasini o‘rnatish, sinonimik va antonimik qatorlarni qurish uchun ishlatiladi.

Daraxt modelini maqsad va vazifalarga bog‘liq ravishda osonlik bilan o‘zgartirish mumkin. Bu model o‘rganilayotgan leksik materialni tahlil qilish va taqqoslash, umumlashtirish, qarama qarshi qo‘yish, maqomiga ko‘ra joylashtirish (ranjirovaniye), tizimlashtirish uchun ham mos keladi.

Sanchqi/vilka modelini semantik aloqalarni/bog‘lanishlarni o‘rnatish, sinonimik/ antonimik qatorlarni tuzish va derivasion (yasash/hosil qilish/keltirib chiqarish) inini yaratish uchun kalit so‘z bilan ishlashda qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

"Baliq suyagi" modelidan har qanday muammolarni hal qilish, bahs-munozaralar o‘tkazish, dialoglar tuzish, mavzu/muammo bo‘yicha bir biriga qarshi (qutbiy) fikrlarni ajratish tanyach nuqtasi sifatida foydalanish mumkin.

O‘z mohiyatiga ko‘ra g‘oyaviy/mafkuraviy to‘r modeli assosiogrammaga yaqin. Uning farqi u faqat assosiativ seriyani yaratish uchun emas, balki u kengaytirish, sabab-oqibat, mantiqiy va boshqa turdagi munosabatlarni o‘rnatish, kalit so‘zlar va tushunchalarni ta’kidlash uchun ishlatiladi. Bu tayanchni "miya bo‘roni" (jamoa bo‘lib muhokama qilish) shaklidagi mashqlarni bajarishda qo‘llash yaxshi. Mashqni bajarishda ish boshida uzluksiz assosiatsiyalar oqimi yoziladi, so‘ngra axborotlar tizimlashtiriladi, aloqadorliklar/bog‘lanishlar va tobeliklar/ bog‘liqliklar o‘rnatiladi.

Semantik xarita modelini mavzuni kiritishning dastlabki bosqichida ham, yakuniy bosqichida ham va nazorat bosqichida ham muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Ushbu tayanch mavzuning asosiy jihatlari/tomonlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Bu model leksik axborotlarni osish

yoki umumlashtirish va tizimlashtirishga, talabalarning fondagi bilimlarini faollashtirishga yordam beruvchi reja sifatida foydalaniladi.

Olima M.V. Xarlamova[20;307-b] semantik xaritalar bilan ishlashga quyidagi bosqichma-bosqich tartibni taklif qiladi. Bunday tartibni barcha turdagi tashkil etuvchi vositalar bilan ishlashda qo‘llash mumkin:

1. Varaqning, sinf taxtasining markazida mavzu (so‘z, ibora) yoziladi;

2. Talabalar bu mavzu haqida o‘z miyalari/fikrlariga kelgan har qanday fikr/gaplarni aytishlari mumkin. O‘qituvchi bu tushunchalarni, assosiatsiyalarni sinf taxtasining bir tomoniga yozadi. Talabalarning mustaqilligi ayon, hech qanday cheklov (syenzura) yo‘q, kimning g‘oyasi yaxshiroq yoki yomonroq ekanligiga baho berish yo‘q;

3. Mavzu bo‘yicha hamma gapirib bo‘lgandan so‘ng, birgalikda kalit so‘zlarni aniqlash mumkin;

4. Markaziy mavzudan asosiy shoxobchalar chiqib ketadi, va ularga boshqa kalit so‘zlar yoziladi;

5. Boshqa barcha yuqorida aytib o‘tilgan g‘oyalar bu kalit so‘zlardan chiqqan shoxobchalar bo‘yicha tartibga solinadi. Balki, bunda talabalarda yangi g‘oyalarga paydo bo‘lishi mumki, va ular ham yozib olinadi. Agar bir qator g‘oyalar ko‘rsatilgan kalit so‘zlarga mos kelmasa, ular uchun alohida kalit so‘zlarni aniqlash kerak;


6. Asosiy va ikkilamchi shoxobchalarni raqamlash, rang bilan belgilash/ko‘rsatish, va kelishuvga ko‘ra ayrim so‘zlar amzlar/simvollar, rasmlar va boshqalar bilan almashtirilishi mumkin. .

Olim I.V. Basenko[37;73-b] barcha grafik tashkil etuvchi vositalarni quyidagi mezonlarga ko‘ra tasniflaydi: 1) strukturasiga ko‘ra (iyerarxik, tarmoqli, chiziqli, blok-sxemalar); 2) mental/aqliy operatsiyalarning tabiatiga ko‘ra (tahlil qiluvchi, taqqoslovchi, qara-qarshi qo‘yuvchi, sintezlaydigan, baholaydigan); 3) tahlil qilingan konseptlar, tushunchalar, leksikon birliklari soniga ko‘ra (bir konseptli, ko‘p konseptli); 4) tayanch komponentlarning kamayishi darajasiga ko‘ra (to‘liq, qisman to‘ldirilgan, siqilgan, to‘ldirilmagan) .

Masalan:

Complete the word maps with words from the box. Add three-five words to each word map.

Yard veggie citras flesh to catch tough &chips minced saltwater ripe plant crab turkey shellfish eggs salmon restaurant creatures grinder root garden cauliflower to grow plant seeds a slice juice plum flesh marine fin lamb sausage pork feather



2. Which is the odd one out in each group, and why?

Pork veal salmon beef

Salmon shrimp oyster lobster

11.Lettuce aubergine tomato cucumber 12.Peach onion mushroom courgette 13.Chicken lamb beef mussels

6. Each word in the following group is connected with the same thing. Write down the missing word. Can you add 5-7 words to each group?

Clutch, brake, wheel, bumper - car

9. Chicken, turkey, duck, goose - p t.. ..

lO.Maize, wheat, barley, oats - c

11.Trout, salmon, herring, cod - ..i.. ..

12.Beer, milk, water, paraffin -.. ..q

13.Saucepan, frying pan, grater, baking dish - s

7. Match the words with their definitions.

1. Rapid 2. Snail 3. Entrails 4. Nutritive 5. Lace with 6. Be compelled to do smth 7. Staple 8. Shortage	A. Add a small amount of smth. To smth. B. Quick C. Basic D. Be made to. do smth. the inside parts of an animal E. A small plant - eating creatures, which moves very slowly F. A condition of having less than needed: an amount lacking

	G. Valuable to the body as food: nourishing

8. Write your associations to the following words: food, meal, cuisine, cooking, culinary, taste/to taste, recipe.

9. Give definitions to the following words: food, cuisine, culinary, cooking, meal, dish, course. Translate them into Russian. Try to explain the difference of the words that might be confused.

10. Add two letters to each of the following words (in any place) to form a new word. A clue is given to help you. Think over your own examples.

SIT sixth ordinal number
CART a vegetable
RAGE a fruit
WAR it's good for the garden
RIPE helps you cook
BAND it tastes nice, especially with coffee

11. Fill in the missing words in the sentences below. Each missing word can be formed by changing the letters of the word in bold type after each sentence. You have an example.

She can't hear you, I'm afraid she is deaf fade
1. Pass me the , please. last
2 are my favourite fruit. lumps
I'm... .the water for the pasta now. nigolbi
The represents the very best in continental cooking, enusici
Lunch and dinner are two meals of the day. Laibsuntast

12. Underline two of the words on the right which are associated with or are part of the word on the left.

TREE brim, trunk, car, cabbage, climb
RECIPE method, ingredients, package, servings, course, yield
RESTAURANT eatery, menu, dish, bill, drive-in section, doggy-bag, tips

Leksika ustida ishlashda grafik tashkil etuvchi vositalar: 1) leksikani tartibga solish; 2) turli xil aloqalarni aniqlash va tushuntirish; 3) leksik

birliklar orasidagi bog‘liqliklarni/tobeliklarni aniqlash; 4) yodga olinadigan leksik ma’lumotlarni mustahkamlash va ko‘rgazmali qilish/vizuallashtirishga yordam yerdam beradi.

Grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega: leksik axborotni taqdim etishning an’anaviy shakllaridan voz kechish (mavzuga oid so‘zlar ro‘yxati);

• mashg‘ulotlarda grafik tashkil etuvchi vositalar "ish asboblari/vositalari" va tayanchlar sifatida ishlatiladi; tashkil etuvchi vositalar o‘rganishidan oldin mavzuni (leksik material) egallaganlik darajasini aniqlashga imkon beradi;

•tashkil etuvchi vositalar talabalarda mavjud leksik bilimlar, ularning hayotiy tajribasi va emosional/hissiy sohasini aktuallashtiradi/yangilaydi;

•tashkil etuvchi vositalar bilan ishlash talabalarning kognitiv jarayonlarini ishga tushirish/jalb etish imkonini beradi;

•tashkil etuvchi vositalar mantiq va assosiativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi;

•tashkil etuvchi vositalardan foydalanish original/boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni izlashni hosil qiladi/keltirib chiqaradi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi va binobarin, motivatsiyani oshirishga yordam beradi;

•tashkil etuvchi vositalar, bir tomondan, leksik materialning rasional qismlarga bo‘linishini ta’minlaydilar, ikkinchi tomondan esa uni kichik guruhlarga, sinflarga birlashtiradilar (so‘zlar ma’lum tamoyilga ko‘ra guruhlanadi);

•kalit jihat/tomonlarni va tayanch nuqtalarni ajratish hisobiga tashkil etuvchi vositalar mavzuni yaxshiroq tushunishga (unda o‘z yo‘lini topa olishga) yordam beradi;

•leksikon birliklarining ma’nolarini izohlash va anglash yangi leksik aloqalarni shakllantiirish, mavjud aloqalarni to‘ldirish, qayta qurish bilan bir vaqtda sodir bo‘ladi;

•tashkil etuvchi vositalardan foydalanish o‘qitishda leksika bilan ishlashning guruhlashtirish kabi mnemotexnik topshiriq laridan foydalanish imkonini beradi;

•tayanch nuqtalarni aniqlash; reja tuzish; tasniflash; strukturalash; sxematizatsiya; tizimlashtirish; qayta kodlash; yakunlash/qurilishini tugatish; assosiatsiyalardan foydalanish; takrorlash;

•tashkil etuvchi vositalar o‘z fikrlash jarayonlarini va ularning natijalarini ko‘rgazmali tarzda taqdim etish (tushunish) imkonini beradi,

bu esa shakllantirilgan va aytilgan fikrlarni tartibga solish, strukturalashtirish va tahrir qilishga yordam beradi;

•tashkil etuvchi vositalar insonga o‘z mulohazalari va o‘ini tahlili qilishga qiziqish uyg‘otishga imkon beradi;

•tashkil etuvchi vositalardan foydalanish darhol ikki tomonlama aloqani o‘rnatish imkonini beradi. Bu leksika ustida ishlashning butun jarayonini ongli va tushunarli qilish imkonini beradi.

Grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalansh xorijiy til leksik birliklarini o‘zlashtirish va keyinchalik qayta ishlab chiqarish (amalda qo‘llash, takroran ishlatish) samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu holat leksik irliklarning bir vaqtning o‘zida ichki leksikonda leksik bilimlarning qanday tashkil qilinganligi, va ushbu bilimlar tushunishda, esda saqlab qolishda va aqliy xulosa chiqarishda qanday ishlatilishini qayta taqdim etish usuli ham ekanligi bilan shartlanadi.

Grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalanganda talabalarning mavjud tajribasi va bilimlarining aktuallashuvi/yangilanishi, leksik materialaning har tomonlama tahlili, so‘zlar orasida ko‘p o‘lchamli aloqalar va assosiatsiyalarning yaratilishi amalga oshadi. Leksik material tayyor ko‘rinishda berilmaydi/taqdim etilmaaydi, balki talabalarning o‘zlari ushbu materialni i tashkil etishadi va (shakl, mazmun, ma’nosini) o‘zgartirishadi. Shu tufayli yangi leksik birliklar va bilimlarning ichki leksikon tizimiga “bir-biriga bog‘lab, tugunlashtirish” jarayoni jadallashadi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Motivatsiya shunday jarayonki, uning natijasida faoliyat indiqid uchun shaxsiy mazmun kasb etadi, unga bo‘lgan qiziqishining barqarorligini ta’minlaydi/yaratadi va faoliyatning tashqi berilgan maqsadlarini uning ichki ehtiyojlariga aylantiradi/o‘zgartiradi. Shu munosabat bilan, leksikani o‘rganish uchun o‘quv motivatsiyaning turli xil turlarining o‘zaro faoliyati deb tushuniladigan o‘qitishning motivasion bazasini shakllantirish leksik kompetensiyani rivojlantirishning ajralmas komponenti sifatida qaraladi. Motivatsiyaning: kommunikativ, kognitiv, instrumental, lisoniy-kognitiv, kasbiy kabi turlari motivasion bazaning asosiy komopnentlari hisoblanadi.

2. O‘qitishning motivasion bazasini shakllantirish o‘zaro aloqador/bog‘liq uchta komponent bilan belgilanadi: a) shaxsiy-psixologik; b) mazmun; v) prosessual.

3. O‘qitishning motivasion bazasini shakllantirish va rivojlantirish: a) o‘quv-biluv jarayoniga maqsadga yo‘nalirilganlik xossasini berish; b) leksik materialni ongli o‘zlashtirishni rag‘batlantirish; v) talabalarning bilish ehtiyojlarini, tashabbusini, mustaqilligini faollashtirish va ularni ma’lum darajada saqlab qolish; g) talabalarning emosional/hissiy-irodaviy sohasini jalb qilish (o‘quv axborotiga shaxsiy ahamiyat berish); d) kognitiv jarayonlari ishiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish.

4. Talabalarning leksik kompetensiyasining shakllanishi va lisoniy rivojlanishi ularning kognitiv/bilish sohasining rivojlanishini hisobga olmasdan amalga oshmaydi (iloji yo‘q). Xorijiy til leksikasini o‘zlashtirishda tafakkur, idrok, diqqat, xotira va tasavvur kabi kognitiv jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Fikrlash o‘quvchilarning ichki leksikonida leksik materialni faol puxta o‘ylab tushunish va qayta ishlash, uni o‘zgartirish va saqlab qolish uchun mas’uldir.

II BOB. INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING LEKSIK KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

§ 2.1. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik ko'nikmalarni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizning asosiy maqsadimiz — yosh avlodni zamonaviy bilimlar, ilg'or ko'nikmalar va yuqori kompetentlik bilan qurollantirish, ularni hayotga va kasbiy faoliyatga to'liq tayyorlashdan iborat" deb ta'kidlaganlar. Aynan shu g'oya tadqiqotchi J.S.Pustavalova[122;98-b] tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan hamohang bo'lib, olima innovatsion ta'lim muhitida talabalarning leksik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun qator muhim pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini o'z tadqiqotlarida asoslab bergan..

Xususan, ushbu shart-sharoitlar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: birinchidan, ta'lim, tarbiya va kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida boshqalar bilan ongli va maqsadli hamkorlik qila olish ko'nikmasini egallash; ikkinchidan, shaxslararo muloqot va o'zaro ta'sirni zamonaviy texnologiyalar yordamida samarali yo'lga qo'ya bilish hamda kasbiy jihatdan muhim natijalarga erisha olish qobiliyatini shakllantirish; uchinchidan esa, axborot texnologiyalari sohasidagi ta'lim, ilmiy izlanish va mehnat jarayonlarida ishtirok etuvchi barcha subyektlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, o'z malakasini uzluksiz oshirib borish va kasbiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan qulay pedagogik muhitni yaratish, qo'llab-quvvatlash hamda doimiy ravishda takomillashtirishga tayyor bo'lishdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari asrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish — bu vaqt talabi, davr zaruratidir" deb alohida urg'u berganlar. Binobarin, yuqorida sanab o'tilgan pedagogik shart-sharoitlarni to'liq va izchil amalga oshirish orqaligina bo'lajak mutaxassislarni xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh va kasbiy jihatdan yetuk qilib tayyorlash mumkin.

Leksik kompetensiyasini rivojlantirish tizimida quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatamiz (3-rasm): ta’lim mazmunining maqsadli komponenti, prosessual, ijobiy natija berish. Komponentlarning har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Tizimning maqsadli komponenti odatda o‘qitish jarayonida ko‘zlangan natijaga erishishga yordam beruvchi muayyan tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladigan maqsad va vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tizimning maqsadi leksik kompetensiyani rivojlantirish va va motivasion ta’lim bazasini shakllantirish jarayonini integratsiyalashdan (birlashtirishdan) iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni yechish kerak:

1. O‘qish/o‘qitishga bo‘lgan rag‘bat/motivlarini rag‘batlantirish.

2. Talabalarning kognitiv jarayonlarini faollashtirish va maksimal darajada ishga tushirish/jalb qilish.

3. Mobil lug‘at zaxirasini/boyligini yaratishni ta’minlash va ichki leksikonni tashkil etish va uning amal qilishi qonuniyatlarini hisobga olgan holda uning chiqib ketishining oldini olish.

4. Lug‘at zaxirasidan/boyligidan nutqda muloqotning maqsad va sharoitlariga ko‘ra tegishli tarzda/adekvat tarzda foydalanishni mashq qilish/tarbiyalash/ta’minlash.

5. Leksika ustida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. Leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘qitishning umumta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari ham amalga oshiriladi.

Masalan.

Puzzle it out.

Here are five words:

CABBAGE BANANA CARROT STRAWBERRY EGG

Read through the following dialogue and try to work out which words the above are used instead of

A: Excuse me, do you cabbage children? B: No, I'm afraid I banana. A: Oh, carrot's a pity. B: Why do you say carrot? A: Because everyone should cabbage children. B: Why?

A: Well. Strawberry's only natural.

B: I disagree. I egg carrot there are far too many children in the world already and I certainly banana want to add to the numbers. A: Carrot's a strange way to egg.

B: Is strawberry? I egg strawberry's the only sensible way to look at things. A: Well, T certainly want to cabbage at least four children. B: I beg carrot's a very selfish attitude to take. A: I banana care! Carrot's what I'm going to do.

B: Well - go ahead - cabbage all those children but banana try to tell me to cabbage any.

A: Banana worry, carrot's the last thing I'd egg of doing. B: I'm glad to hear strawberry.

CABBAGE means -... BANANA means

CARROT means - ... STRAWBERRY means

EGG means

Work with a partner and try to make a dialogue similar to the above on the topic

"FOOD". Encode at least five words from your active vocabulary (instead of

them use any words related to the topic as in the example).Perform the dialogue

and make the others guess the words.

2. How would you say the following sentences without words, using the gestures only?

11.It's too hot! (about the dish)

12.1t's too cold! (about the dish)

13.It's delicious!

H.Yuk!

15.Umm.. .Yummy-yummy!

3. a.Choose the right word for each person. Try dividing these words into groups. Can you add your examples?

French fries dessert eggplant jello hamburger meat chips aubergine jelly mince/minced beef alcohol/booze sweet,pudding liquor chickpeas swede beetroot marrow spring onions corn garbanzos bell peppers beet zucchini rutabaga peppers sweetcorn green onions

Englishman /^~^\	American /-—-%.

b. Read the text below that is written in American English. There are eleven typical American English words. See if you can find them and write the British equivalents.

One day last fall I had a terrible day. For lunch I had a plate of eggplant with French Fries, cake for dessert, and water from the faucet. Suddenly the baby started screaming and I went to change her diaper, but there weren't any new ones so I had to use a dish-towel. Later, I went down in the elevator and drove along the freeway to the drugstore, but on the way I got a flat so I had to stop. What a day! c Use any ten words from the box and write a story in British/American English.

4. Complete the dialogues using the suitable idioms and proverbs:

1)-1 wish 1 hadn't been so rude to her. After all, the soup was quite eatable.

-As the proverb goes ... 2) -Really, English cuisine is so different from Russian. It's quite unique.

-Right you are. People are right saying it is as ... as ...

5. What might you say to the person/people with you in a restaurant if... Use your active vocabulary.

your chips had too much oil/fat on them?

your dish had obviously been cooked too much/too long?

your piece of meat was absolutely perfectly cooked?

your dish seemed to have no flavor at all?

6. Read and comment the following quotes. Try to find quotes by famous people connected with the topic.

> Part of the secret of a success in life is to eat what you like and let the food fight it out inside.

Mark Twain (1835- 1910)

> The only way to keep your health is to eat what you don't want, drink what you don't like, and do what you'd rather not.


Mark Twain

Ona tilining allaqachon ma’lum bo‘lgan tushunchalarni boyitish. Xorijiy til leksikasini o‘zlashtirishda talabalar "xorijiy til yordamida/bilan atrofdagi voqelik hodisalarini ushbu tilga xos bo‘lgan leksik-semantik munosabatlarning o‘ziga xos bir to‘ri yordamida qismlarga bo‘lish/ajratishning yangi usullarini" biladilar/o‘rganadilar" » [.. o‘qitish metodikasi asoslari/ Osnovы metodiki prepodavaniya..., 1996:162].

Shu tufayli xorijiy til leksikasini o‘zlashtirish jarayonida talaba xorijiy tilda ham, ona tilida ham fikrni shakllantirish/hosil qilish va ifodalash yo‘llarini yaxshiroq anglay boshlaydi. Bu holat ekvivalenti bo‘lmagan (boshqa tilda mos/ma’no-mazmuniga to‘g‘ri keladigan variant yo‘q) so‘z va ijtimoiy-madaniy komponenti mavjud leksikani o‘rganishda eng ko‘p namoyon bo‘ladi (o‘z ifodasini topadi). Bunday leksika odamlarning tashqi dunyo bilan va bir-birlari bilan o‘z ona tilida va xorijiy tillarda o‘zaro faoliyati tajribasini taqqoslash, tahlil qilish, puxta o‘ylash va tushunishni tilda shakllantirishga (ifodalashga) yordam beradi.

Leksik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi talabalarning dunyoqarashini shakllantirish, o‘rganilayotgan til madaniyati va tarixiga hurmat, xulq-atvorning axloqiy me’yorlarini o‘zlashtirish va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda

namoyon bo‘ladi. Tarbiyaviy maqsad, birinchi navbatda, talabalarning nutq xulq-atvorini takomillashtirishda, jumladan, ularning lug‘at boyligiga/zaxirasiga "o‘z nutqining vaziyatli va tematik yo‘nalishiga mos keladigan, kommunikativ vazifalarni yechish/bajarishga yordam beradigan semantik qimmatli so‘zlarni" kiritishdan [... o‘qitish metodikasi asoslari..., 1986: 163], shuningdek so‘zlashuv formulalari, klishelar va etiket/odob me’yorlarini o‘zlashtirishdan iborat. Leksikaga o‘qitishning tarbiya beruvchi tabiati, avvalambor, mashg‘ulotlar uchun tanlangan leksik materialning mazmunida o‘z aksini topadi.



Rivojlantiruvchi maqsad leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida psixik jarayonlar, diqqat, xotira, tafakkur va irodaning tarangliligini (jadal ishlashini) taqozo etadi. Talabalarning leksik bilimlari, ko‘nikma va malakalari ularning faol aqliy faoliyati jarayonida shakllanadi. O‘qitishning rivojlantiruvchi komponenti talabalarda leksik materialni o‘rganishda ma’lumotnoma adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Tilshunoslik OTMining 2-kurs talabalarining leksik kompetentsiyasini shakllantirish jarayoni leksikaga o‘qitishning asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi . Ushbu tamoyillar bizning tadqiqotimiz maqsadiga ko‘ra to‘ldirildi va aniqlashtirildi:

O‘qitish belgilangan mavzu doirasida eng ko‘p ishlatiladigan leksikani o‘rganishga qaratilgan. Bu tamoyil materialni shunday tashkil qilishni taqozo qildiki, u muloqotning hayotiy vaziyatlarida amal

qilishining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirsin. O‘qitish uchun ushbu kontingent (tahsil oluvchilar) uchun eng odatiy/tipik va hayotiy ahamiyatli vaziyatlar va muloqot mavzulari, shuningdek, ularga xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar, nutq klishelari tanlab olinadi. Mashg‘ulotlarda real muloqotni imitatsiya/taqlid qiluvchi muhit yaratiladi. Leksikaga o‘rgatishning o‘zi "ikki madaniyatli (bikultural) lisoniy shaxs xususiyatlarini shakllantirishga" qaratilgan, va u kelajakda talabaga "madaniyatlararo muloqotda teng va avtonom ishtirok etish" imkonini beradi . Bu tamoyil talabalarning turli vaziyatlarda ingliz tilida muloqot qilish qobiliyati va tayyorligini, boshqa madaniyat vakillari bilan mavjud leksik zaxira/fond asosida o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini zaruriy ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi.

Leksikani ongli o‘rganish tamoyili.

Bu tamoyil leksikani o‘rganishga kognitiv jarayon, ya’ni leksik birliklarni ongli o‘zlashtirish va ular bilan ishlash harakatlari jarayoni sifatida qarashdan iborat. Leksika ustida ishlash o‘rganilayotgan leksik birliklarning semantika, birga qo‘llanish imkoniyati va stilistik farqlanishning leksik qoidalariga asoslanadi. Bu tamoyilga ko‘ra leksik ko‘nikma va malakalar muloqot jarayonida talablar zarur leksik vositalarni tanlash jarayonini boshqara olishlari va qiyinchilklar tug‘ilgan holatlarda esa zarur qoidaga murojaat qilish imkoniyatlari bo‘lishi ongli ravishda shakllantiriladi.

Leksik materialni berishda/taqdim etishda jamlash/konsentratsiya tamoyili.

O‘qitishning barcha bosqichlarida tizimli va jadal mashq qilish/trenirovka va nutq amaliyoti sharoitida har bir leksik birlik o‘zining xususiyatlarini bosqichma-bosqich, izchil va kengaytiriluvchi tarzda ochib berilishi jarayonidan o‘tadi. Bu esa leksikaning tinimsiz o‘zgarib turuvchi birikmalar va kontekstlarda yetarli darajada ko‘p marta takrorlanishini talab qiladi. Butun o‘quv jarayoni davomida leksik material bilan ishlash turlari, uni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talabalar har bir alohida mashq doirasida, har bir keyingi mashg‘ulotda va mashulotdan mashg‘ulotga o‘tganda murakkablashib boradi.

Leksikani nutq faoliyatining barcha turlarining o‘zaro aloqadorligida o‘rgatish tamoyili.

Mahsuldor va reseptiv leksik ko‘nikmalarni shakllantirish nutq faoliyatining barcha turlari va nutq aspektlarini o‘zaro aloqadorlikda o‘qitish uchun o‘quv materialini kompleks/har tomonlama tashkil etish asosida amalga oshadi. Bunday o‘qitishda nutq faoliyatining har xil

turlarining leksik ko‘nikmalarining bir-biriga o‘xshashligi va farqlarini hisobga olinadi, va bu bilan, leksik ko‘nikmaning o‘xshash, shakllangan operatsiyalarini nutq faoliyatining bir turidan boshqasiga ko‘chirish/o‘tkazish imkonini beradi.

Leksik birliklarning tizimlilik xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.

Leksik birliklar sezgilarning barcha turlarini (ko‘rish, eshitish, nutq-harakat va motor) jalb qilish/ishga tushirish asosida ularning grafik, akustik, semantik, strukturaviy xususiyatlari va boshqa birliklar bilan birikish imkoniyatlari bilan birga (yig‘indisida) o‘zlashtiriladi. Bundan tashqari, so‘z ustida ishlashda qiyinchiliklarning mavjudligi va tabiati/xarakteri omili hisobga olinadi, va bu esa bu so‘zni o‘zlashtirish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini shartlaydi

Uslubiy differensiatsiya/farqlanish tamoyili.

Ushbu tamoyil mashg‘ulotlarni nutqning turli uslublariga va mulqotning turli sohalariga xos til xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilishni, va nutqning qandaydir bir neytral usulibini o‘rganishdan voz kechishni taqozo etadi. Og‘zaki, neytral va adabiy nutq uslublarining leksik birliklarining qo‘llanilishi xususiyatlarini o‘rganish ustida ish olib boriladi.

Ichki leksikonning tizimli tashkil etilishiga tayanish tamoyili.

Ushbu tamoyilga ko‘ra, leksik material ustida ishlash turli tuman grafik tashil etuvchi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu tashkil etuvchi vositalar: 1) talabalarning hayotiy tajribasi va qiziqishlarini aktuallashtirish/yangilash; 2) leksikonning yangi birliklarini individning ongida allaqachon shakllantirilgan semantik strukturalarga tayangan holda o‘zlashtirishni tashkil qilish; 3) o‘z fikrlash jarayonlari va ularning natijalarini ko‘rgazmali taqdim etishni ta’minlash; 4) fikrlashning mantiqiyligini, moslashuvchanligini, mustaqilligini rivojlanirish imkonini beradi. Grafik tashkil etuvchi vositalar leksik birliklarning ichki leksikonda qanday (qay arzda) tashkil etilganlinini taqdim etish (ko‘rsatish, tushunish) vositasi va ular tushunishda, yodda saqlashda, aqliy xulosa chiqarishda qay tarzda qo‘llanilishini ko‘rsatish vositasi hisoblanadi.

Ijtimoiy-madaniy bilimlarga tayanish tamoyili.

Tilda insonning olamni bilish natijalari aks ettirilgan. Olima M.V. Pimenovaning[117;174-b] ta’kidlashicha, har qanday tabiiy til “olamni idrok etish va konseptualizatsiya qilishning muayyan bir usulidar. Konseptualizatsiya o‘zida borliqning tarkibiy qismini kiritib, borliqning barcha tomonlarini qamrab oluvchi qarashlarning yagona tizimini

ifodalaydi” . Demak, til xalq madaniyatining, uning mentaliteti va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarining tashuvchisi hisoblanadi. Bunday bilimlar, birinchi navbatda, til leksik tizimining turli darajadagi birliklarida (so‘zdan matngacha) o‘z aksini topadi. Talabalarni tilning tashuvchisi (xorijiy tida o‘z ona tilida so‘zlovchi) bilan muloqotda o‘z fikrlarini, bayonlarini tegishlicha/adekvat tarzda qurishga va xorijiy madaniyat sharoitlarida teishlicha/adekvat tarzda hatti-harakat qilishga o‘rgatish uchun o‘qitishda (ta’lim berishda) leksik materialning ijtimoiy-madaniy komponentiga alohida e’tibor qarartish zarur.

Asosiy didaktik-metodik vazifalarni kompleks tarzda yechish tamoyili.

Leksikaga o‘qitish arayonida faol lug‘at boyligini shakllantirish, potensial lug‘at zahirasini kengaytirish va leksik taxminni rivojlantirish vazifalari bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlikda bajariladi. O‘qitishning pirovard maqsadiga erishish o‘qitishning umumta’lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishish bilan bir qatorda amalga oshadi.

Pedagogik professionalizatsiya tamoyili.

Talabalarga tahsil berish til bo‘yicha mashg‘ulotlarda pedagogik muloqot uchun zurur bo‘lgan leksik birliklarni ularning malshg‘ulotlarda qo‘llanilishining autenntikligi, tez-tezligini (chastotnost, bir vaqt/makon birligi oralig‘ida necha marta qo‘llanilishi ko‘rsatkichi) hisobga olgan holda, mashg‘ulot bosqichlari va nutq faoliyatining turlarini (umumdidaktik ustanovkalar, og‘zaki nutq faoliyati, yozish va yozma nutq, tahsil oluvchilarning gaplari/bayonlarini izohlashni) hisobga olgan holda kiritishni nazarda tutadi.

Kreaktivlik “insonning fikrlashda, hislarida, muloqotda, faoliyatning ba’zi turlarida namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijodiy imkoniyatlari” deb ta’riflanadi . Nutq o‘zlashtirilgan til vositalarining shunchaki (oddiy) qayta ishlab chiqarish (qo‘llash, takrorlash) bilan ifodalanmaydi, balki ularning tinimsiz va o‘ziga xos tarzda birgalikda ishlatilishi (kombinatsiyaga solinishi) bilan ifodalanadi. Nutq ijodiy jarayon bo‘lib, unda so‘zlovsining ijodiy potensiali/salohiyati akutallashtiriladi/ yangilanadi va rivojlantiriladi. Leksikaga o‘qitishda talabalar taklif qilinayotgan/ berilayotgan leksik materialni shunchaki/oddiy kodlash yoki axborotni uzatish vositasi sifatida o‘zlashtirmasdan, balki uni muayyan kommunikativ vazifaga muvofiq ijodiy va aqlan/intellektual jihatdan qayta ishlaydi.

Tilshunoslik OTMi talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish tizimining mazmuni: lisoniy, psixologik, o‘qitish/o‘qish

texnologiyasi komponenti kabi uchta birbiri bilan o‘zaro aloqador komponentlar bilan ifodalanadi.

Mazmunning lisoniy komponenti o‘qitish uchun mo‘ljallangan o‘quv va autentik matnlarning tanlovi/to‘plami va mazmunini belgilaydigan bir qator mavzularni o‘z ichiga oladi. O‘quv dasturiga ko‘ra, o‘qitish quyidagi mavzular to‘plami doirasida amalga oshiriladi:

- Talabalar hayoti (Rossiyada, xorijda. Karyera/kelajakdagi kasbiy soha tanlovi. Angliya maktablari.);
- Uy-ro‘zg‘orni boshqarish/olib borish (Uy-ro‘zg‘or ishlarini taqsimlash).
- Xonani tozalash (Byudjetni rejalashtirish.);
- Oziq-ovqat (Rus va ingliz ovqatlari (pishirish). Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish. Menyuni tuzish. Kulinar reseptlar.);
- Kiyim-bosh (Tayyor kiyimlar. Buyurtma beriladigan kiyimlar. Shaxsiy gardlerob.);
- Teatr (Moskva va London teatrlari. Teatrga taklif qilish. Tassurotlarni baham ko‘rish. Sevimli teatrlar.);
- Tibbiyot (Salomatlik holati. Umumiy kasalliklar. Bolalar kasalliklari. Tish doktoriga tashrif.);
- Sayohatlar (Poyezdda, samoletda, teploxodda sayohat qilish. Shahar ichida sayohat.) .

Dastur leksik materialni ikki darajada tanlab olish va metodik tashkil qilishni nazarda tutadi: 1) kommunkativ darajada (kommunikativ niyatlar va ularga mos keladigan kommunikativ amallarning zaruriy minimum miqdorini tanlab olish; 2) ulani amalga oshirishning til vositalari darajaasida.

OTMda ikki yil tahsil olish davomida ularni pragmatik-axborot va madaniy-malakatshunoslik mazmuniga ko‘ra tafsilotlashtiradigan quyidagi mavzular ajratib ko‘rsatiladigan o‘rganilgan mavzular doirasida faol leksik lug‘at 1800-ta leksik birlikni tashkil qilishi kerak.

Ikkinchi yil oxiriga kelib, taxminan 1200 yangi leksik birliklar – turli xildagi neytral, adabiy va og‘zaki nutq uslublaridagi so‘zlar va so‘z birikmalarini, muloqot soahalarida (ijtimoiy-har kungi uyda, oilaviy va ijtimoiy-madaniy, hamda ba’zi hollarda – kasbiy va ijtimoiy faoliyatda) kommunikativ/muloqot ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan 320 so‘zlashuv klishelari va taxminan 100 idiomatik iboralar va maqollar o‘zlashtirilgan bo‘lishi lozim. .

Madaniy komponentni o‘z ichiga olgan, ya’ni fondagi, eksvivalentsiz, konnotativ leksika faol leksik minimumning

majburiy/zaruriy tarkibiy qismi bo‘lishi zarur. Ushbu leksika xorijiy tilning tashuvchilarining mental tajribasining o‘ziga xos xususiyatlarini boshqalaridan ko‘ra yorqinroq/yaqqolroq ifodalaydi. Uni o‘rganish talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Leksik materialni egallaganlik uni nafaqat kommunikatsiya doirasida o‘zlashtirishni, balki til bilimlari darajasida ham o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Leksikaga o‘qitish “leksik birliklarning ham funksional xususiyatlariga, ham til tizimiga murojaat qilishni nazarda tutadi, zero tilni muloqot vositasi sifatida egallaganlik tizimli bilimlarsiz mumkin emas” .

Demak, o‘qitishning lisoniy komponenti leksika sohasida quyidagi bilimlarni nazarda tutadi:

•leksik birliklarning eshitish-motor namnalari asosida talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan fonetik

bilimlar;

•ko‘rish-grafik namunalar asosida so‘zlarni yozish va ularni matnda tanish uchun grafika va orfografiya/imlo sohasidagi bilimlar;

•so‘z shakllarini hosil qilish bilan bog‘liq grammatika sohasidagi bilimlar;

•ushbu xorijiy tildagi so‘zlarning ona tilida birga qo‘llash qoidalari bilan kzo‘p hollarda mos keladigan va so‘zlarni qo‘llashda asosiy muammoni ifodalaydigan birga qo‘llash imkoniyatlari qoidalari bilan bog‘liq bilimlar ;

•so‘zlarni uslubiy jihtdan farqlash/differensiatsiya qilish sohasida bilimlar;

•leksik birliklarning so‘z yasalish qoidalarini (affiksa¬siya, so‘zlarni qo‘shish, konversiya) va buning uchun zarur suffikslar va old qo‘shimchalarni bilish;

•gaplarda va matnlarda aloqa vositalari sifatidagi tub va yordamchi so‘zlarni bilish;

• alohida so‘zlarning etimologiyasini bilish;

ijtimoiy-madaniy bilimlar:

 ekvivalentsiz leksikaga oid bilimlar;

 o‘rganilayotgan til mamlakatining kundalik hayotidagi predmetlar va ob’yektlarini naglatuvchi leksikani (pul birliklari, og‘irlik, uzunlik o‘lchovlari, vaqt ko‘rsatkchilari, yo‘l belgilari va boshq.);

 nutq va etiket formulalarini (muloqoti bo‘yicha yoshi kattalarning bolalarga, o‘zuvchilarning o‘qituvchilarga, turli yoshlar va ijtimoiy

guruhlaridagi muloqot sheriklariga murojaat qilish xususiyatlarini bilish) va nutq xulq atvorini o‘rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan me’yorlarga mvofiq qurish malakasi.

Tegishli ko‘nikmalar va malakalarini shakllntirish jarayonida leksik bilimlar mo‘ljal/tayanch/yo‘nalish asosi rolini bajaradi. Leksik birlikni o‘zlashtirish nafaqat uning ma’nosini egallashni, balki uning amal qilishining xususiyatlari va qoidalarini egallashni ham anglatadi.

O‘qitishning psixologik komponenti quyidagi aspektlarni o‘z ichiga oladi: 1) o‘qish/o‘qitish rag‘bat/motivlarni shakllantirish va rivojlantirish; 2) kognitiv jarayonlarga tayanish; 3) talabalarning hissiy/emosional sohasini, ularning hayotiy qadriyatlari va qiziqishlari/manfaatlarini o‘qitish jarayoniga majburiy qo‘shilishi; 4) nutq faoliyatining turli xil turlarining leksik ko‘nikmalari va malakalarini ularning o‘zaro faoliyati, o‘xshashlik va farqiyat xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirish; 5) intellektual leksik ko‘nikmalarni shakllantirish; 6) til avtomatizmlarini shakllantirish; 7) ichki leksikonni shakllantirish; 8) so‘zning ma’nosini kontekstga ko‘ra, uning so‘z yasash elementlari, ona tilidagi so‘zlar bilan taqqoslashga ko‘ra aniqlash kabi maxsus til qobiliyatlarini rivojlantirish va hok.

Tilshunoslik OTMining 2 kurs talabalarida quyidagi mahsuldor leksik ko‘nikmalarni shakllantirish zarur:

•so‘zlar/so‘z birikmalarini komunikativ niyatga muvofiq tarzda to‘g‘ri tanlash;

•so‘zlarni sintagmalar va gaplarda to‘g‘ri birgalikda qo‘llash;

•leksik-ma’no va leksik-mavzu assosiatsiyalarni egallaganlik;

•yangi so‘zlarni avval o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan qo‘shib (bog‘lab) birga qo‘llash;

•tub so‘zlarni tanlash va ularni o‘rin almashtiruvchi so‘zlar bilan birga (bog‘lab) qo‘llash;

•sinonimik va antonimik qarama-qarshiliklardan zarur so‘zni tanlab olish; ekvivalent almashtirishlarni amalga oshirish;

•gaplarni/matnlarni kengaytiriish va qisqartirish mepxanio‘mini egallaganlik;

•so‘zlovchining individual xususityalariga moslashish, tez javob breaksiyasi ko‘rsata olish qobiliyatiga ega bo‘lish.

Reseptiv leksik ko‘nikmalar (tinglab tushunish, o‘qish) orasida quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish lozim bo‘ladi:

•so‘zning ovoz/ko‘rish (vizual) obrazini semantika bilan moslash/taqqoslash/o‘xshatish;

•o‘rganilgan so‘zlar/so‘z birikmalarini nutq oqimida/grafik matnda tanish va tushunish;

•so‘zlar ma’nolarini kontekst yordamida ochib berish;

•so‘zlar ma’nolarini ovz/grafik belgilarga tayangan holda tushunish (affiksaiya, konvertatsiya qilingan leksik birliklar, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar va hok.);

•eshitilishi/talaffuzi va yozilishi o‘xshash so‘zlarni farqlay olish;

•reseptiv birlashtirish (birga qo‘llash, kombinatsiya qilish) mexanizmini egallaganlik;

•yangi (yoki avval o‘zlashtirilgan) leksik material bilan muayyan faoliyatga bo‘lgan ustanovkani yaratish uchun idrok qilish oriyentirlari/mo‘ljal/tayanchlari va bashorat qilishdan keng foydalanish va hok. .

Leksik ko‘nikmalarni shakllantirish leksik ma’nolarni olish va qo‘llash bo‘yicha intellektual/aqliy leksik ko‘nikmalarni shakllantirish bilan birga amalga oshadi. Quyidagilar leksik ma’nolarni olish bo‘yicha intellektual/aqliy ko‘nikmalarga kiradi: 1) leksik ma’lumot/axborotni topib olish/ko‘ra bilish ko‘nikmasi; 2) idrok qilinayotgan leksik axborotning eng muhim xislatlarini (belgilarini) qayd etish ko‘nikmalari; 3) diqqatni mavjud axborotda jamlash; 4) “kognitiv xarita” obrazini shakllantirish ko‘nikmalari; 5) olingan leksik axborotni kodlash ko‘nikmalari; 6) axborotni qisqa muddatli xotiraga o‘tkazish va uni kattalashtirish ko‘nikmalari; 7) axborotni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga o‘tkazish ko‘nikmalari; 8) kiritilgan leksik axborotni boshqa, yanada yuqoriroq darajadagi tashkiliy strukturalarga qo‘shish ko‘nikmalari; 9) leksik axborotni strukturalashtirish va uni uzoq muddatli xotirada saqlash ko‘nikmalari.

Quyidagi ko‘nikmalar leksik bilimlarni qo‘llash bo‘yicha aqli/intellektaul ko‘nikmalar hisoblanadi: 1) zarur/talab qilinadigan leksik axborotni aktuallashtirish/ yangilash ko‘nikmalari; 2) leksik axborotni ichki leksikondan QMSXga o‘tkazish ko‘nikmalari; 3) akutallashtirilgan/yangilangan leksik axborotni qo‘llash maqsadida “sxema” ko‘rinishida ushlab turish ko‘nikmalari; 4) axborotni kengaytirish ko‘nikmalari; 5) leksik axborotni joiy vaziyatda qo‘llay olish ko‘nikmalari; 6) leksik axborotni tanlash omilining to‘g‘riligini tegishlicha/adekvat baholash ko‘nikmalari; 7) leksik axborotni kerakli til shakllarida tegishlicha/adekvat tarzda ifodalash ko‘nikmalari.

Ushbu ko‘nikmalar leksik birliklar haqidagi axborotni qoidalar va ko‘rsatmalar ko‘rinishida olish va qo‘llashni ta’minlaydi. Tahsil

oluvchining tilni egallaganlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uning intellaktual/aqliy ko‘nikmalarining ishlash tezligi va xato qilmaslik darajasi shuncha yuqori bo‘laadi

Xorijiy tildagi so‘zga oid bilimlar asosida til avtomatizmlari shakllanadi. Ular ko‘nikmaning ma’no komponentini ifodalaydi va “nutq-fikrlash vazifasini bajarishda til vositalarini uzoq muddatli xotiradan chiqarib olish va qo‘llashning sifatini” belgilaydi .

Kommunikatsiya/muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalarda quyidgi leksik malakalarni shakllantirish zarur:

•kerakli leksik materialni muloqot vaziyatiga muvofiq va kontekstni hisobga olgan hold tanlab olish;

•avval nutq tajribsida uchramagan so‘zlar va leksik birga kelishlarni (birliklarni) yaratish;

•cheklangan til materialini fikrlarni ifodalash uchun qo‘llash;

•so‘zlarni semantik-assosiativ aloqalar asosida esga olish;

•leksik birliklarning amal qilish xususiyatlarini aniqlash maqsadida strukturaviy-semantik, valentlilik tahlilini o‘tkazish;

•o‘quv birliklarining matndagi belgilarini ajratib (bo‘lib) olish va ularning qo‘llanilish qoidalarii ifodalash/tuzish;

•so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarida, asosiy va ikkilamchi ma’nolarida aniqlash va qo‘llash;

•alohida so‘zlar uchun ham, so‘z birikmalari uchun ham, barqaror iboralar uchun ham antonimlar izlab/tanlab topish;

•sinonimik qatorlarni qurish;

•og‘zaki nutq oqimida omonimlarni farqlash va yozma nutqda omograflarni tanish;

•frazeologik birliklarni alohida so‘zlarning sinonimlari sifatida ham, alohida (mustaqil tarzda) ham qo‘llash;

• nutqda maqollar va matallar (hikmatli so‘zlarni) qo‘llash

Tilshunoslik OTMida ikkinchi yil tahsilidan so‘ng talaba o‘zlashtirilgan leksik-grammatik materialni tayyorlanmagan monolog shaklida bayonda va dialogda qo‘llay olishi, bevosita muloqotda va normal sur’atda (tempda) so‘zlangan nutqning ovoz vositalariga yozib oligan yozuvini tushunishi zarur. Talabaning muloqotda ishtirok etish va o‘z oldiga qo‘yilgan kommunikativ vazifalarni o‘rganilgan mavzular doirasida o‘z fikrlarini tahsil davomida olgan mavjud grammatik bilimlar, leksik zaxira va xorijiy tilda uning qo‘llanilishi va amal qilishi xususiyatlariga oid bilimlar asosida bajara olish imkoniyati pirovard maqsad hisoblanadi.

Mavjud leksik zaxirani qo‘llay olish malakasi ko‘p jihatdan talabalarning ichki leksikonining shakllantirish usullari bilan shartlanadi. Ichki leksikon – real lug‘at zaxirasining mental obrazi bo‘lib, unda nafaqat leksik birliklar haqida to‘la axborot mavjud, balki tahsil oluvchilarning nutq tajribasi, hamda ularning o‘rab turgan voqelik bilan o‘zaro faoliyati tajribasi haqidagi axborot ham mavjud. Ichki leksiondagi leksik axborot bir biri bilan o‘zaro bog‘langan semanik strukturalar ko‘rinishida strukturalashtirilgan tarzda saqlanadi. Shunday qilib, leksikani o‘zlashtirishning samaradorligi ichki leksikonni tashkil etishdan, mavjud semantik strukturalarning tashkil qilinganligiga va talabalarning kognitiv tajribasini hisobga olishga bog‘liq.

Leksik materialni o‘qish/o‘qitish texnologiyasi komponenti quyidagilarni nazarda tutadi: 1) talabaning o‘qitishning pirovard maqsadini qabul qilishi va o‘qitish/o‘qishning oraliq, o‘z maqsadlarini, hamda ularni amalga oshirish mezonlarini aniqlash va anglashi; 2) o‘z o‘quv faoliyatini va vaqtini ham uyda, ham mashg‘ulotlarda rasional/oqilona rejalashtirish; 3) leksik materialni o‘zlashtirishning eng samarali topshiriq lari va strategiyalarini tanlash; 4) leksik materialni o‘zlashtirish jarayonida yuz berdaigan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf qilish ustida ishlash; 5) o‘qishga xalal berayotgan yoki to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf qilish; 6) qo‘shimcha va ma’lumotnoma materiallar (lug‘atlar, jadvallar, sxemalar, o‘qitadigan dasturlar, qo‘llanmalar, jurnallar va hok.) bilan muntazam mustaqil ishlash.

Ikkinchi kursda o‘qitish jarayonini tashkil etishning o‘ziga xosligi unda talabalarning mustaqil ishlariga katta e’tibor berilishida bo‘lib, unga (mustaqil ishga) auditoriya mashg‘ulotlariga ajratilgan dars soatlari soniga teng vaqt ajratiladi. Talabalarda allaqachon yetarli lisoniy tajribaga, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ishlash ko‘nikmalari mavjud. Shu munosabat bilan, o‘qituvchining roli shunchaki o‘qitish jarayonini boshqarish emas, balki uni idrok jarayoniga yo‘naltiruvchi va yordam beruvchi tegishli/zarur axborot, hamda buning uchun kerak bo‘lgan ish strategiyalari bilan ta’minlashdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyatining yakuni bo‘lmish o‘qitishning yakuniy natijasi uchun talabalar o‘qituvchi bilan barobar mas’ul bo‘ladilar.

§ 2.2. Innovatsion ta’lim sharoitida bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining leksik ko’nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ta'lim-tarbiya, ilm-fan va innovatsiyalar — bu bizning kelajagimizning poydevori" deb ta'kidlaganidek, bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan raqamli ta'lim muhitida davlat va jamiyat oldida turgan mas'uliyatli vazifalar tobora kengayib va murakkablashib bormoqda. Xususan, jahon hamjamiyatining ilg'or tajribalarini chuqur o'rganib, ularni milliy ta'lim tizimimizga maqsadli tatbiq etgan holda mamlakatimizdagi ta'lim sohasini tubdan yangilash va zamonaviy mehnat bozorining yuqori talablariga to'liq javob bera oladigan yuksak malakali kadrlarni tayyorlab yetkazish bugunning eng dolzarb va keng qamrovli ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shuningdek, "Biz xalqaro tajribalardan to'g'ri va samarali foydalangan holda ta'lim sifatini tubdan yaxshilashimiz, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida raqobatbardosh mutaxassislarni yetishtirishimiz lozim" deb alohida urg'u berganlar. Zero, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida faqat yuqori bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lgan, yangi texnologiyalarni mohirona qo'llay oladigan mutaxassislargina davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Aynan shu sababli ta'lim tizimini isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi bugun davlatimizning strategik vazifalaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Talabalar tomonidan xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi fani dasturlari va Malaka talablari(DTS) bilan me’yorlangan ma’lum BKMlarni egallash, ularni tarbiyalash va shakllantirish jarayonida mutlaqo yangi metodikalarni tatbiq etish bilan bir qatorda o‘qitish shakllarining barchasidan samarali foydalanish zarur.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi va ilmiy, metodik, psixologik, pedagogik manbalarni qiyosiy tahlil qilish, analiz, sintez, umumlashtirish negizida Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishni integrativ modeli ishlab chiqildi. Model tushunchasi asl nusxa degan ma’noda qo‘llaniladi. Biz model asl nusxa tizimining ma’lum ahamiyatga molik bo‘lgan xususiyatlarini aks ettiradigan obyektlar majmuasi ekanligini hisobga olgan holda yondashuvni amalga oshirdik.

Ixtiyoriy model asl nusxani soddalashtiradi va o‘rganilayotgan tizimning aksi bo‘lib xizmat qiladi. Maqsadli bo‘limni tavsiflashda, modelni amalga oshirish yo‘li bilan erishilishi kerak bo‘lgan maqsad hozirgi vaqtda mustaqil ta’lim olishga va o‘z-o‘zini amalga oshirishga qobiliyatli o‘quvchilarni rivojlantirish hisoblangan ijtimoiy buyurtma asosida amalga oshirilishi ta’kidlash lozim. Bunda mazkur maqsadga erishishning natijasi biologiya fanidan talabalarning tayanch kompetensiyalar shakllanganligi mavjud darajasidan yanada yuqori darajasiga oshirish hisoblanib, bu o‘z navbatida, modelni amalga oshirishning asosiy natijasi hisoblanadi. Pedagogik jarayondagi sodir bo‘ladigan tizimning asosiy tarkibiy qismlari sifatida tadqiqotda o‘zaro faoliyatdagi maqsad, vazifalar, metodlar, vositalar, shart sharoitlar, shakllar, shuningdek, bunda erishish mumkin bo‘ladigan natijalarni ajratib ko‘rsatadi .

Pedagogik adabiyotlarda mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonidagi quyidagi ahamiyatli jihatlarga e’tibor qaratilgan:

o‘lajak mutaxassislar tomonidan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish natijasida egallashi zarur bo‘lgan mazmun, ular o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilish metodi bo‘lib foydalaniladi;

bo‘lajak mutaxassisni innovatsion kasbiy faoliyat jarayoniga barkamol, ma’nan yetuk qilib tayyorlash uchun lozim bo‘lgan o‘quv bilish faoliyati, ta’lim mazmuni, metodlari va vosita hisoblanadi;

mavhum obrazlar natijasida hosil qilingan mutaxassislarni tayyorlash butun mavjud bo‘lgan pedagogik tizimini aynan gavdalantiradi.

Ikkinchi jihatidan bo‘lg‘usi mutaxassislarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi: aniq bir mutaxassislikdagi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga kiruvchi barcha tushunchalarni toifalar darajasida tizimlashtirish;kuzatiladigan pedagogik hodisalarni umumlashtirish, ularning strukturasini va o‘zaro aloqalarini yaqqol ko‘rish; mavhumlashtirish darajasida fikran tajriba o‘tkazish va bu bilan ta’kidlovchi pedagogik tajriba-sinovni o‘tkazishdagi xatoliklar va kamchiliklarning oldini olish; mutaxassislarni tayyorlashdagi uzluksizlik, an’anaviylikni o‘rnatish.

Tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalari ishlab chiqilgan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimi modeli mazmunini amalga oshirish uchun biz pedagogik jarayonda

“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash” maxsus kursini tashkil qildik. Pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimining tuzilishi zamonaviy maktab o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqqan holda tuzilgan. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida u avvalo tayyorgarlikning maqsadlari, vazifalari, prinsiplari, tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, pedagogik va psixologik shart-sharoitlarini qamrab oladi.

Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish tizimi tuzilishi va mazmunini biz takomillashtirishning asosiy prinsiplarini inobatga oldik (ko‘rgazmalilik, izchillik, aniqlik, obyektivlik). Ular uning pedagogik tadqiqotdagi funksiyalarini belgilaydilar, chunki faqatgina mazkur prinsiplarni rioya etishda modellashtiriladi. Ilmiy tadqiqot metodi sifatida pedagogik tadqiqotdagi empirik va nazariyani umumlashtirishga, ya’ni pedagogik obyektni o‘rganish davomida bevosita kuzatish, dalillar, mantiqiy tuzilishlari va ilmiy mavhumliklarni qurish bilan tajribani birlashtirishga imkon beradi.

Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqish davomida biz pedagogik monitoringning gnoseologik, ekspert metodlaridan foydalandik.

Gnoseologik metod talabalarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasini aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur metod yordamida biz tajriba-sinov maqsadini 3-va 4-bosqich talabalari innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasini aniqlash deb belgiladik. Vazifalar quyidagicha belgilab oldik:

1. Talabalarda innovatsion kasbiy faoliyatga nazariy jihatidan tayyorgarlik darajasini aniqlash; 2. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga amaliy jihatidan tayyorgarlik darajasini aniqlash; 3. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga metodik jihatidan tayyorgarlik darajasini aniqlash; 4. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish darajasini aniqlash;

Tajriba-sinov farazi 2-3 kurslarda tahsil olayotgan innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish darajalari zaruriy va yetarli bilimlarning mavjud emasligi sababli qoniqarli natija qayd etilmadi:

Talabalar nazariy, amaliy, metodik va texnologik tayyorgarliklari darajalarini ko‘rsatuvchi anketa so‘rovlari natijalari

Darajalar mezonlar	Miqdoriy ko‘rsatkich	% ko‘rsatkich	Ish staji
Yuqori	42	25	1-2
O‘rta	95	56,5	1-2
Past	31	18,4	1-2
Jami:	168	100	

Tajriba-sinov quyidagilarni ko‘rsatdi:

talabalar o‘qituvchining maktabdagi innovatsion faoliyati pedagogik mahoratini to‘liq o‘zlashtirmaganliklari;

ta’limning innovatsion rivojlanish mexanizmi bilimlarini egallamaganlar;

o‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilishi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega emaslar;

pedagogik innovatsionlarning xususiyatlari va farqli jihatlarini, ularning zamonaviy tasniflarini bilmaydilar;

ko‘pgina talabalar ingliz tili va uni o‘qitish metodikasi faniga oid nazariy, metodik, texnologik faoliyatning ilmiy-nazariy asoslari to‘g‘risidagi bilimlarni chuqurlashtirish ehtiyojini his etadilar.

Shu tariqa, bizning tajriba-sinov ishlarimiz ingliz tili va uni o‘qitish metodikasi fanidan pedagogika oliy ta’lim muassasalar talabasining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi darajasi ko‘rsatkichini va innovatsion faoliyatni ta’minlovchi bo‘lajak o‘qituvchilarning tayyorgarliklarining mazmuni, shakllari, metodlarining zaruriy dastlabki darajasini aniqlab berdi. Biz tomonimizdan o‘tkazilgan ta’kidlovchi tajriba-sinov quyidagilarni aniqlash imkonini berdi:

“klassik” qoidani, talabalar tomonidan pedagogika oliy ta’lim muassasalarda egallanadigan pedagogik bilim ularni innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishda zarur bo‘lgan tegishli bilimlar va ko‘nikmalar bilan ta’minlay olmaydi;

o‘z yechimini talab etuvchi ziddiyatli vaziyat yuzaga keldi, ya’ni aniq ilmiy muammo aniqlandi; innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar majmui qanday?

Aniqlangan muammoni hal etish uchun maxsus kurs ishlab chiqilib, unda tajriba-sinov ma’lumotlarining tahlili va hisobga olishini asosida innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik

ko'nikmalarni rivojlantirish tizimini takomllashtirishda biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishni koʻzda tutdik:

talabalarni innovatsion faoliyat sohasidagi bilimlar tizimi bilan qurollantirish;

zamonaviy maktabdagi ingliz tili oʻqituvchisining innovatsion faoliyati mohiyati va mazmunini ochib berish;

talabalarda innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida ularga yordam berish;

maktabda individual va guruhli innovatsion faoliyat malakalarini singdirish;

boʻlajak oʻqituvchilarni oʻz ijodlarini refleksiv baholashlari uchun tegishli bilimlar, koʻnikma va malakalar bilan qurollantirish;

innovatsion faoliyatning motivatsion yoʻnalganligini shakllantirish.

Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonining yaratilgan modeli, avval taʼkidlab oʻtganimizdek, pedagogik shart-sharoitlarning mumkin boʻlgan komponentlarini tasavvur etishni belgilash va tajriba-sinov ishimiz uchun zarur boʻlgan innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirish texnologiyasini aniqlash imkonini berdi.

Texnologiya – bu erishilgan pedagogik tajribani yetkazish shakllari va metodlari, usullarining, shuningdek, mazkur jarayonni texnik taʼminlash majmui.

Maqsad — innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Vazifalar - innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorgarligining tarkibiy qismlari, darajalari, koʻrsatkichlarini aniqlashtirish;

innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorgarligini oshirishni integratsion yondashuv asosida takomillashtirish;

innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorlashning didaktik va metodik taʼminotini takomillashtirish.

Tayyorgarlik mazmuni.

Nazariy tayyorgarlik. Maxsus kursni joriy etish yordamida pedagogika tarixidagi innovatsion jarayonlarning rivojlanishi to‘g‘risidagi bilimlar; pedagogika nazariyasida innovatsion jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlar; yangi tadqiqotlar, ilg‘or va novatorlik pedagogik tajriba to‘g‘risidagi bilimlar; yangi ta’limiy va tarbiyaviy texnologiyalar to‘g‘risidagi bilimlar; ilmiy va tajriba-sinov ishlari asoslari to‘g‘risidagi bilimlar, ma’naviy soha va madaniyat sohasidagi bilimlar; rivojlantiruvchi ta’lim-tarbiya texnologiyalari sohasidagi bilimlar; o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligi mezonlari to‘g‘risidagi bilimlar shakllantiriladi.

Texnologik tayyorgarlik. Foydalanish: darsda o‘quv jarayonini tashkil etishni texnologik aniq optimallashtirish (Yu.K.Babanskiy[35;17-b]); aqliy xatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish texnologik jarayoni (N.F.Talizina[146;143-b]); didaktik o‘yinlarni mustahkamlash asosiy texnologik usullari; tayanch varaqalar (S.F.Shatilov[135;106-b]); o‘quv jarayonini sharhlashli boshqarish (S.N.Lisenkova[92;354-b]); V.V.Davidovning[50;72-b] rivojlantiruvchi o‘qitish texnologiyalari; shaxsga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’limdan (I.S.Yakimanskaya[153;58-b]); Internet texnologiyalar yordamida masofaviy ta’limiy kommunikatsiya usullaridan

Metodik tayyorgarlik. Shakllantirish: o‘quv-tarbiya jarayonini mustaqil bashorat qilish va rejalashtirish ko‘nikmalarini; axborotning barcha manbalari bilan ishlash; pedagogik hodisalarni kuzatish, baholash; o‘z faoliyatining har bir bosqichida maqsadlar, vazifalarni aniqlash, uning natijalarini bashoratlash; asosli tushuntirish; natijalarni bashoratlashlash; dialog, munozara olib borish, bahslashish, talabani, suhbatdoshini oxirigacha tinglash; pedagogik hodisalarni va muloqotdagi o‘z nuqtai nazarlarini tahlil qilish; axborotni tanlash, ishlov berish, saqlash, maktabda ish joyini tashkil etish bo‘yicha ishlarni tashkil etish; refleksiya elementlaridan foydalanib o‘quv-tarbiya jarayonida o‘z kiritgan yangiliklarini baholash va h.k.

Amaliy tayyorgarlik. Shakllantirish: berilgan mavzu bo‘yicha innovatsiya elementlari bilan ijodiy darslarni tayyorlash va o‘tkazish ko‘nikmasini; o‘z faoliyati natijalarini mustaqil baholash qobiliyatini; turli manbalar bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; turli darsdan tashqari mashg‘ulotlarni rejalashtirish, o‘tkazish ko‘nikmasi, ta’lim, tarbiyaning samarali metodlaridan foydalanish; ilmiy-

metodik ishlarni yuritishning boshlang‘ich tajribasi, talabalar va ularning ota-onalari bilan individual ishlarni tashkil etish bo‘yicha

pedagogik faoliyatning tajriba-sinov shakllaridan va o‘qituvchilar tajribalaridan foydalanish malakalari va boshqalar (2.9-rasm).

Tashkiliy shakllari. An’anaviy (ma’ruzalar, amaliy va seminar mashg‘ulotlari, talabalarning pedagogik amaliyotlari, mustaqil ta’lim, referatlar, imtihon); innovatsion (muammoli ma’ruza, vizual ma’ruza, ma’ruza-munozara, juftlikdagi ma’ruza, avvaldan rejalashtirilgan xatoliklar bilan ma’ruza, matbuot anjumani, rolli o‘yinlar, munozaralar, treninglar, refleksiya va boshqalar)

O‘qitish metodlari. Og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, muammoli-izlanish, mantiqiy, mustaqil ishlash, o‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari, bilan bir qatorda Keys-stadi, aqliy hujum, Assesment, Venn, Klster, FSMU, SWOT-tahlil, Singapur metodi, SAT metodi, 5E modeli, intellektual o‘yin kabi metodlar va boshqalar.

O‘qitish prinsiplariga aksiologik, ilmiylik, ko‘rgazmalilik, yaxlitlilik, tizimlilik, mustaqillik, uzluksizlik kabi prinsiplardan foydalanildi.


Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorgarligining bo‘yicha quyidagi berilgan mezonlar rivojlantirildi:

kognitiv mezonlar: innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik bilim, ko‘nikma, malakalari, biologiyani fanini o‘rganuvchilarning yosh va individual va tafovutlar o‘qitish, psixofiziologik xususiyatlari, o‘quv jarayonini samarali loyihalashning shakl, metod va vositalari, kasbiy faoliyatga tayyorgarligini tashxislashning muhim jihatlari hamda innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirganlik;

jarayonli mezonlar: innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorgarligi jarayonida kommunikativ ko‘nikmalar, ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilar bilan pedagogik muloqotni to‘g‘ri tashkil qilish layoqati, tavsiya qilingan standart va nostandart topshiriqni bajarish davomida ijodiy izlanish muhitini yaratish mahorati, hissiy munosabatlarini boshqarish;

integrativ mezonlar: innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish, boshqa fanlar bilan sinxron, asinxron va diagonal jihatidan integratsiyalay olishi, ijodiy salohiyat, kasbiy metodik jihatidan o‘sishga intilish xususiyatlarining rivojlantirilishi. Natija. innovatsion ta'lim sharoitida

bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.



2.9-rasm. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish modeli

Ishlab chiqilgan innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish tizimining to‘g‘riligini tekshirishda ekspert metodi qo‘llanildi. U tuzatishlar kiritish va innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish tizimi tuzilishini yanada aniq tizimlashtirish va qurishga imkon berdi.

Shuningdek, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik monitoring metodi qo‘llanildi.

Mazkur metod ingliz tili o‘qituvchisining innovatsion shakllanishi uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash holatini bashoratlash, uning borishi, natijalari, rivojlanish istiqbollarini kuzatish yordamida zaruriy va yetarli bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi belgilandi.

Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish tizimini modellashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorgarliklarining komponentlarini nazariy belgilab berdi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining umumiy tayyorgarligi asosida bu komponentlar biz tomonimizdan yechiladigan muammoning o‘ziga xosligi bilan ajratiladi. Shuning uchun mazkur komponentlarni biz nazariy, amaliy, metodik va texnologik tayyorgarlikka guruhladik.

Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ishni rejalashtirish davlat ta’lim standarti va o‘quv rejalari asosida amalga oshirildi.

Ta’kidlovchi tajriba-sinovda quyidagilarni aniqlash maqsadida pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasining semestrlar bo‘yicha tahlili o‘tkazildi: yana qanday pedagogika oliy ta’lim muassasalari fanlari ingliz tili ta’lim fakulteti talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorgarliklariga shakllantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Ingliz tili ta’lim fakulteti talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorgar-liklariga ta’sir ko‘rsatuvchi fanlar miqdorini aniqlash bizga tajriba-sinov dasturini tuzishda fanlararo aloqalarni inobatga olishga va o‘rganiladigan materialning takrorlanishini bartaraf etishga imkon berdi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” kursida o‘qishi davomidagi innovatsion faoliyatga tayyorgarligi komponentlari va darajalarini shakllantirish jarayonining obyektiv manzarasini aniqlash uchun biz ingliz tili ta’lim fakultetining o‘quv rejasi bo‘yicha mazkur kursni o‘rganish uchun mumkin bo‘lgan soatlar taqsimotini tahlil qilindi.

Tahlillar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash kursini o‘rganish davomida xorijiy ta’lim yo‘nalishi talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun imkoniyatlar vaqt bo‘yicha cheklanganligini ko‘rsatdi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonini boshqarish va tizimlashtirish o‘quv jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv rejalari va maxsus kursni joriy etish asosida olib borildi. Innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarini o'qitishda leksik ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni maqsad, jarayon, natija kabi 3 ta komponentlardan tashkil topdi.

O‘qitish texnologiyasi tuzilishiga quyidagi komponentlar mansubligi aniqlandi: bir xil darajali mavjud bilimlar va tajribalar guruhida talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajalarining dastlabki tashxisi; talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish va mustahkamlash bo‘yicha faoliyatlarini tashkil etish; materialni o‘zlashtirish sifati nazorati; guruh yoki alohida talabalar bilan qo‘shimcha ishlash usullari va metodlarini tanlash; talabalarning o‘zlashtirmasliklari sabablari tashxisi; butun kurs talabalarining bilimlaridagi ortda qolishlarni bartaraf etuvchi metodikasini tanlash.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish samaradorligini biz didaktik va metodik material yetarli va zaruriy miqdorini, o‘qitishning texnik vositalarini qo‘llash bilan ta’minladik. Tajriba-sinov ishimizning natijasi bo‘lajak o‘qituvchisi shaxsining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi; OTM talabasi shaxsini shakllantirishga kasbiy-ijodiy yondashuv shakllanganligining yuqori darajasi hisoblanadi.

§ 2.3. Innovatsion ta’lim sharoitida bo’lajak ingliz tili o’qituvchilarining leksik ko’nikmalarini rivojlantirish modeli va mazmuni

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Zamonaviy ta'limda eng ilg'or o'qitish usullari va strategiyalarini qo'llash — bu nafaqat bilim sifatini oshirish, balki yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng samarali yo'lidir" deb ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, o'qitish strategiyalari va ularga asoslangan topshiriqlar tizimi leksik kompetensiyani shakllantirish va boyitishning hal qiluvchi prosessual tarkibiy qismi sifatida tan olingan. Har qanday o'qitish strategiyasining bosh maqsadi o'quv jarayonini ilmiy asosda tartibga solish va uning umumiy samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishdan iboratdir.

Bu borada metodika sohasidagi ingliz-rus terminologik ma'lumotnomasi o'quv strategiyasiga quyidagicha ta'rif beradi: u ta'lim oluvchilar tomonidan yangi axborotni qabul qilish, uni xotirada mustahkamlash, kerak bo'lganda xotiradan tez va aniq chiqarib olish, hamda o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda maqsadli qo'llash kabi jarayonlarni imkon qadar samarali tashkil etish uchun foydalaniladigan ongli harakatlar va aqliy operatsiyalar majmuidir..

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "O'quvchi va talabalar mustaqil o'ylashni, mustaqil xulosalar chiqarishni, axborotni tahlil qila bilishni o'rganishlari kerak — bu zamonaviy ta'limning eng asosiy talabi" deb alohida urg'u berganlar. Binobarin, to'g'ri tanlangan o'qitish strategiyalari talabaga nafaqat bilim beradi, balki uni o'z o'quv faoliyatini ongli boshqara oladigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Olim A.F. Budko o‘quv strategiyasini “tahsil oluvchining maqsadga erishish uchun bajaradigan mental amali rejasi” deb ta’riflaydi . Binobarin, o‘quv strategiyasi talabalarning muayyan o‘quv natijalariga erishishga qaratilgan axborotni qayta ishlash, olish, saqlash va qo‘llashdagi bilish faolligini tashkil qiluvchi va yo‘naltiruvchi amallarning maxsus majmui/kompleksini ifodalaydi. Strategiyaning murakkab strukturali tabiati/xarakteri uni o‘quv topshiriq idan farqlaydi.

Xorijiy tilga o‘qitishda o‘quv strategiyalarining turlari va guruhlarini ajratishga turli tuman yondashuvlar mavjud. Masalan, didaktikada strategiyalarning ikki turi ajratib ko‘rsatiladi: 1) asosiy va 2) yordamchi. Asosiy strategiyalarga: a) inson xotirasi mexanizmlariga asoslanadigan strategiyalari (mental/aqliy aloqalarni o‘rnatish, amallarni takrorlash, qo‘llash; b) kognitiv (amaliyot, xabarlarni almashish, tahlil va mulohaza qilish, so‘z ma’nosini u yetkazayotgan tasavvur/ushuncha bilan taqqoslash); v) kompensator (mulohazaga asoslanadigan taxmin qilib topish, so‘zlash va yozuvda bilimlarning yetishmasligi bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yengib o‘tish). Yordamchi strategiyalar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) metakognitiv (diqqat markazni o‘rgatish/o‘rganishga, urgantish/o‘rganishni tashkil qilishga qaratish (urg‘u berish); o‘rgatish/o‘rganishning kechishi va natijasini baholash; o‘zini/ mustaqil tartibga solish, kechiktirilgan mulohaza); b) emosional; afektiv (hayajonlanganlik darajasining pasayishi, o‘zini o‘zini ko‘nglini ko‘tarish, emosional/hissiy tayyorlik/ kayfiyatni aniqlash); v) ijtimoiy (savollar bilan murojaat qilish, boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish).

Olima A.V. Shepilova[136;12-b] strategiyalarning quyidagi tasnifini taklif etadi: 1) megakognitiv (o‘qitish/tahsil jarayoni haqida mulohaza yuritish, o‘qishga/o‘qitishga o‘zi mustaqil tayyorgalik ko‘rish, natijalarni nazorat qilish); 2) kognitiv, (deduktiv va induktiv aqliy bir fikrga kelish/xulosa chiqarish, qiyosiy tahlil, yakuniy xulosa chiqarish topshiriq larini qo‘llash); 3) ijtimoiy affektiv (boshqa tahsil oluvchilar bilan o‘zaro faoliyat); 4) kompensator (bilim va nutq malakalarining yetishmasligini yengib o‘tish) .

O‘qitishning o‘rganilayotgan tizimining maqsadlariga muvofiq quyidagi strategiyalarni qo‘llashni taklif qilamiz: 1) rag‘batlantiruvchi; 2) grafik tashkil etuvchi vositalarni qo‘llash strategiyasi; 3) lisoniy-tizimlashtiruvchi; 4) ehtimoliy bashorat qilish strategiyasini; 5) kompensator; 6) refleksiv (5-rasm).

Ko‘rsatilgan strategiyalarni qo‘llashning rasionalligi lekski ko‘nikmalarni shakllashtirishning va umuman leksik material ustida ishlashning bosqichma-bosqichlik tamoyili bilan mos keladi (1 - jadval).

1 - jadval.

Leksika bilan ishlash strategiyalarini qo‘llash bosqichlari

Leksik ko‘nikmani shakllantirish va leksik material bilan ishlash bosqichlari	Qo‘llaniladigan strategiyalar
Yangi leksik materialni taqdim etish/berish	Rag‘batlantiruvchi, grafik tashkil etuvchi vositalar strategiyasi.
Yangi leksik materialni mashq/trenirovka qilish	Rag‘batlantiruvchi, grafik tashkil etuvchi vositalar strategiyasi, lisoniy-tizimlashtiruvchi.
Yangi leksik materialni qo‘llash	Rag‘batlantiruvchi, grafik tashkil etuvchi vositalar strategiyasi, ehtimoliy bashorat qilish, kompensator strategiyalari.
Leksik materialni umumlashtirish va takrorlash	Rag‘batlantiruvchi, grafik tashkil etuvchi vositalar strategiyasi, lisoniy-tizimlashtiruvchi, ehtimoliy bashorat qilish, kompensator strategiyalari.
Nazorat alohida bosqich sifatida qaraladi leksik ko‘nikmalar va leksik bilimlarning shakllanganligini nazorat qilish hamda barcha avvalgi	Rag‘batlantiruvchi, refleksiv, grafik tashkil etuvchi vositalar strategiyasi.

bosqichlarning zaruriy komponenti
sifatida qaraladi

Rag‘batlantiruvchi strategiyasining maqsadi ta’lim uchun qulay sharoitlar yaratish va o‘quvdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tish, xorijiy tilni o‘rganishdan ijobiy hissiyotlar/emosiyalarni rivojlantirish, talabalarning bilish faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, ularning ijodiy qobiliyatlarini va shaxsiy potensialini/salohiyatini amalga oshirishdan iborat. Quyidagilar rabatlantiruvchi strategiyaning topshiriq lari qatoriga kiradi: 1) emosional/hissiy sohani jalb etish topshiriq i; 2) interfaol ta’lim berish/olish topshiriq i; 3) aqliy/intellektual-bilish ta’limi topshiriq i; 4) o‘yin topshiriq i.


Emosional/hissi sohani jalb etish topshiriq ini amalga oshirish quyidagi omillar bilan shartlanadi: 1) o‘qituvchi va talabalar muloqotining demokratik uslubi; 2) o‘qituvchining emosional/hissiy muloqot madaniyati (hssiyotlilik/emosio¬nallik, ifodali ohang, qo‘l imo-ishoralarini qo‘llash, mashg‘ulotning hissiy/emosional jihatdan to‘yingan ismlarini/fragmentlarini vazmin/sokin qismlar bilan almashtirish malakasi); 3) talabalarning shaxsiy taribasiga murojaat qilish; 4) ularning hayotiy qadriyatlari va oriyentirlar/mo‘ljallariga tayanish; 5) shaxsiy qiziqishlar/manfaatlarni hiobga olish; 6) o‘qitishning turli tuman vositalarini qo‘llash; 7) ishning ijobiy tomonlari/jihatlarini diqqat markaziga aylantirish; 8) talabalar faoliyatiga hissiy/emosional baho berish.

Olim V.V. Rijovning[126;173-b] ko‘rsatishicha “hissiyotlar/emosiyalar qulay (yoqimli) va noqulay (istalmaydigan) qo‘zg‘atuvchilarga oid bilimlarni insonga ayni damda ta’sir ko‘rsatayotgan qo‘zg‘atuvchilarga oid bilimlarning mos kelishi natijasi sifatida paydo bo‘ladi. Talabaning hissiyotlari/emosiyalarida uning o‘z faolitining maqsadlari va vazifalariga, u bilayotgan va amalga oshirayotgan, atrofida nimalar sodir bo‘layotgan barcha narsa/hodisalargaga nisbatan munosabati aks ettiriladi” .

Ijobiy hissiyotlar/emosiyalar talaba o‘z ishi uchun ma’qullash va ijobiy baho olganda muvaffaqiyat vaziftlari tufayli paaydo bo‘ladi, va o‘qituvchining izohlari esa tanqid hisoblanmaydi, va konstruktiv tabiatga ega. Ijobiy hissiyotlarning mavjudligi shuningdek talabalarning ijobiy o‘ziga baho berishining rivojlanishi bilan bog‘liq. U (mustaqil baho berish) o‘qituvchining diqqat-e’tibori talabalar ishining ijobiy tomonlari/jihatlari va natijalariga, ularning shaxsiy yutuqlariga jamlanganda shakllanadi. Olima G.V. Rogova[127;47-b] shunday deb yozgan: “Sezib/tegib ko‘rsa bo‘ladigan real bosqich va yakuniy yutuq motivatsiyaga ozuqa beradi va qo‘llab-quvvatlaydi. Agar muvaffaqiyat

bo‘lmasa, motivatsiya so‘nadi, va bu faoliyatni amalga oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi”

5 - расм – Хорижий тил лескикасига ўқитиш стратегиялари



Demak, ijobiy natijaga erishish perspektiv/istiqboldagi natija muvaffaqiyatiga o‘xshatiladi, talaba bugungi natijani kechagi deb qaraydi. Binobarin, beriladigan topshiriq/vazifalar zaruriy tarzda talabalarning imkoniyatlariga mos kelishi, biroq juda ham oson bo‘lmasligi lozim. O‘z kuchi, salohiyati doirasida o‘quv qiyinchiliklarini yengib o‘tish o‘quv faoliyatida ilgari borish, bilimlar va malakalarninshg muayyan darajasiga erishganlik hissini uyg‘otadi. Psixologik qulay (yoqimli) ta’lim muhitini yaratish, ya’ni samarali ta’limning zaruriy shart-sharoiti bo‘lmish hamkorlik, o‘zaro tushunish va o‘zaro xayorixohlik muhitini yaratish ham ijobiy hissiyotlar/emosiyalar manbai hisoblanadi.

Interfaol ta’lim topshiriq talabalarning maksimal jarajadagi tashabbuskorligi uchun sharoitlarni, ularning tinimsiz kommunikativ o‘zaro faoliiyatini shakllantirishga mo‘ljallangan. Bu real muloqot vaziyatlarini yaratish va individual ishni, qo‘yilgan kommunikativ vazifalarni birgalikda yechish/bajarish maqsadida juftliklar/guruhlarda ishlashni tashkil qilish hisobiga mumkin bo‘ladi. Bunday yondashuvda auditoriyadagi kommunikatsiya jarayonining va o‘quv vaziyatining o‘ziga alohida diqqat qaratiladi. Ushbu priyom “o‘qituvchi tomonidan tahsil oluvchilarning o‘zlari bilimlarni ochishlari, olishlari va qurishlari mumkin bo‘ladigan shart-sharitlar yaratilishiga qaratilgan. Tahsil oluvchilarning bilish jarayonida ishtiroki darajai qancha yuqori bo‘lsa, ular shuncha ko‘p axbortni o‘zlashtirishadi” . Interfaol ta’lim topshiriq – talabaga tashabbusni maksimal darajada berishdan iborat. Ushbu priyom quyidagilar yordamida amalga oshiriladi: 1) ko‘p variantli javob va turli nuqtai nazarlarning to‘qnashuvchini taqozo etuvchi, talabalarning nutq faoliyatini uyg‘otuvchi/ishga tushiruvchi va rag‘batlantiruvchi va ularning muhokamaga jalb etuvchi yo‘naltiruvchi savollarni qo‘llash; 2) axborot muvozanatining buzilganligi vaziyatini yaratish. Bunday vaziyat juftlikning yoki guruhning har bir a’zosida zarur axborotning faqat bir qismi borligi va ularga qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarish/yechish uchun ularga faqat zarur axborot almashishlari zarurligini taqozo etadi. Ish quyidagi tarzda am tashkil qilinishi mumkin. Har bir juftlikka bir necha farqlar mavjud ikkita tasvir beriladi. Savollar berish bilan, muloqot bo‘yicha hamkorlar mavjud farqlarni imkoni boricha tez aniqlashlari/topishlari zarur. Vazifani, masalan, talabalarga tasvirlarda ko‘rsatilgan predmet/narsalar nomini qo‘llamaslik, faqat tasviriy iboralar/konstruksiyalarni qo‘llash talabini qo‘yib mrakkablashtirish mumkin. Shuningdek, farqlarni aniqlashga yordam beradigan savollar sonini qisqartirish, yoki berilishi mumkin bo‘lgan savollarning muayyan

turlarini belgilab qo‘yish mumkin; 3) dramatizatsiya elementlarini qo‘llash. Bu muloqot ishtirokchilarining muayyan/konkret kommunikativ vzaiyat uchun maqbul bo‘lgan xulq-atvorini modellashtirish hisobiga o‘quv kommunikatsiyani asl (voqe, haqiqiy) kommunikatsiyaga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Yechimi/bajarilishi talabalardan faol izlanish va intellektual/aqliy faoliyatni talab qiladigan savollar va vazifalardan foydalanish har doim o‘qishga asl/tom ma’nodagi qiziqishni uyg‘otadi. Aynan shu sababdan, aqliy/intellektual-bilish ta’limi topshiriq o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish va uni saqlab turishda yetakchi rollarda birini o‘ynaydi. Ushbu priyomni amalga oshirish quyidagilar bilan ta’minlanadi: 1) muammoli vaziyatlarni yaratish bilan. Muammoli vaziyat talabalar o‘zlarida mavjud leksik zaxira, bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar yordamida yecha olmaydigan qiyinchilikka duch kelganlarida paydo bo‘ladi. Masalan, ular yangi bilimlarni olishga yoki eskilarini yangi vaziyatda qo‘llash zarurligiga ishonch paydo qiladilar.

Olima I.A. Zimnyaya[157;246-b] o‘quv vaziyatlarining mammoliligining bir necha darajalarini ajratib ko‘rsatadi: 1) muammoli vaziyatni fikrlarni shakllantirish va ifodalashning yangi, noma’lum usullarini bayonning tahsil oluvchilarga ma’lum predmetida unga noma’lum vositalar (til birliklari) yordamida aniqlash uchun yaratish daraasi; 2) tahsil oluvchilarga fikrlarni til vositalari vositasida noma’lum, yangi ma’no mazmunini, yangi fikrni, yangi predmetni ifodalash uchun shakllantirish va ifodalashning usullari ma’lum bo‘lgan darajasi; 3) tabiiy sharoitlarga maksimal darajada yaqinlashtirilgan daraja. Bunda yangi muammoli vaziyat qo‘ygan va tahsil oluvchilarning shaxsiy-ahamiyatli muammolarini yechish deb anglaydigan o‘z fikrlash vazifalarini yaratish amalga oshadi .Tilga o‘qitish jarayonida muammoli vaziyat o‘quv faoliyatiga rag‘batlantiradi. U shakklantirilatgan leksik ko‘nikmalar va malakalarning mustahkamligiga (puxtaligiga) quyidagilar bilar yordam beradi: 2) muammo/masalaning tarixiga ekskurslar o‘tkazish bilan; 3) o‘rganilayotgan material bilan bog‘liq hayotdan misollar, latifalar, paradokslardan foydalanish bilan; 4) “kechinish”, ya’ni talabalarga odatiy va ma’lum/tanish materialda yangi, muhim, kutilmagan jihat/tomonni ko‘rsatish bilan; 5) ziddiyat/konflik vaziyatlarni yarartish, ya’ni masala bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni bayon etish yoki hodisani turli (maslan, ijtimoiy) pozisiyalar/qararshlar/nuqtai nazarlardan o‘rganish; 6) materialni atayin yo‘l qo‘yilgan xatoliklar mavjud materialni berish bilan.

O‘yin topshiriq o‘quv faoliyatiga uyg‘otish/qo‘zg‘atish, rag‘batlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan o‘yin vaziyatlarini yaratishga qaratilgan. O‘yin: a) mashg‘ulotlarning psixologik iqlimini yaxshilashga; b) ta’limni xususan qiziqarli va jozibali qilishga; v) barcha talabalarni ta’lim jarayoniga jalb qilinganligini ta’minlash; g) ularning ijodiy qobiliyatlarini ishga jalb qilish/ishga tushirish; d) xorijiy tilda nutqqa tabiiy motivatsiyani yaratish imkonini beradi. O‘yin faoliyatining yuqori darajadagi motivatsiyasi uning ixtiyoriyligi, tanlov imkoniyatlari, musobaqachilik elementlari, o‘z kuchlarini/ qobiliyatlarini ko‘rsatish/isbotlash va o‘z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish bilan shartlangan. Bundan tashqari, o‘yin faoliyati o‘quv kommunikatsiyasini asl/haqiqiy kommunikatsiyaga uning spontanligini kuchaytirish, muayyan emosional/hissiy-psixologik fonni yaratish, paralingvistik vositalarni (qo‘l imo-ishoralari, yuz imo-ishoralari, pozalar (tanani muayayn tarzdat tutib ko‘rsatish), harakatlarni)) ishga kiritish/jalb qilish maksimal tarzda yaqinlashtiradi. O‘yinlardan foydalanish talabalarni nafaqat rag‘batlantiradi, balki leksik bilimlarni, amaliy faoliyat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantiradi, mustaqillikni tarbiyalaydi, hamkorlikka o‘rgatadi, kommunikativ/muloqot malakalarining rivojlanishiga, ijodiy amalga oshishga yordam beradi, diqqatning, xotiraning, nutqning, fikrlashning, tasavvurning rivojlanishi ta’minlaydi. O‘yin vaziyatlarini yaratish quyidagilar vositasida amalga oshiriladi: 1) didaktik maqsadni o‘yin vazifasi sifatida qo‘yish (roli o‘yinlar); 2) o‘quv materialini o‘yin vositasi sifatida qo‘llash (til va nutq o‘yinlari); 3) o‘quv faoliyatiga didaktik vazifani o‘yin vazifasiga o‘tkazadigan musobaqa elementini kiritish .

Grafik tashkild etuvchi vositalardan foydalanish strategiyasi ichki leksikonning tizimli tabiati haqidagi qoida/fikrga asoslanadi. O‘rganilayotgan strategiyaning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi: 1) talabalarning mavjud leksik bilimlar, knikmalar va malakalarini faollashtirish; 2) o‘z fikrlash jarayoni va uning natijalarini vizualizatsiya qilish/ko‘rgazmali shakllga o‘tkazish; 3) ma’lum va yangi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish; 4) materialni mnemik priyomlar yordamida yodga olish va uni saqlash; 5) mavzu bo‘yicha so‘zlarni an’anaviy chiziqli tartibda yozib olishdan voz kechish.

Ushbu strategiyani qo‘llash yangi leksik birliklarni va bilimlarni ichki leksikon tizimiga talabalarning mavjud tajribasi va bilimlari, leksik materialni har tomonlama tahlil qilish, so‘zlar orasida ko‘p o‘lchamli


aloqalar va assosiatsiyalarni yaratish hisobiga “bir biriga bog‘lab, tugunlab kiritishning” samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Quyidagilar ushbu strategiyaning priyomlari siftida ajratiladi:


1) assosiogramma topshiriq ;
2) klaster modelini qo‘llash topshiriq ;
3) matrisa topshiriq ;
4) diagramma topshiriq ;
5) daraxt modelini qo‘llash topshiriq ;
6) “vilka/sanchqi” topshiriq ;
7) “baliq suyagi” modli topshiriq ;
8) g‘oyaviy to‘r topshiriq ;
9) semantik xarita topshiriq .

Grafik tashkil etuvchi vositalarning tavsifi va ularni qo‘lash usullari I bobning §4 bandida keltirilgan edi. Ular qllanilgan ba’zi vazifalarni keltiramiz.

1. Give your associations to the following words [A Graded English Course, 1995:238].



2. Continue associations to the notion "suffering in the body" .



3. Complete the word maps with the words from the box (add three more words to each word map, underline 2-3 key words) .


sightseeing reception voyage bill insurance guide checking in
accommodation family-run stay at trip lobby half board goon return
agency tour B&B excursion all inclusive five-star




4. Choose the right meanings for the verb "to study". Guess another verb by the meanings left. Illustrate each meaning of the verbs with your examples .


To watch, or look at sb/sth carefully in order to find out sth

To gradually change your attitudes about sth
To gain knowledge or skill by studying, from experience
To study and repeat sth to remember
To examine smth carefully in order to understand it
To spend time learning about a subject by going to college, reading
To become aware of sth by hearing about it from sb else.






5. Complete a tree for the word Holiday .



6. Distribute the words according to their meaning .
Expect, look forward to, await, wait, anticipate



7. Use the matrix and complete the following sentences. Think of your own examples .

	a car	a motorbike	a train	a horse	a plane
to fly					+
to drive	+		+		
to ride		+		+	

She has always wanted to have the chance to ... a train.
Russian women are not allowed to ... .passenger aircraft.
... a motorbike can be very dangerous.

8. Fill in with the appropriate words .


spicy	bitter	salty	sweet	sour	creamy	crunchy	greasy

9. Finish the word forks and make them as long as you can [A Graded English Course, 1995:7].


Education adult
broad
free

	schoolmate
School	schooldays
	schoolwork

10. Continue the cluster model .




Make up a semantic map on the topic "Holiday" .



12. Use a fish bone and write all the advantages and disadvantages of eating out

Advantages

Disadvantages




solution

13. Choose the right word for each person. Try dividing words into groups in any way you like. Add 5-7 words to each group.

French fries dessert eggplant jello hamburger meat chips aubergine jelly mince/minced beef alcohol/booze sweet,pudding liquor chickpeas swede beetroot marrow spring onions corn garbanzos bell peppers beet zucchini rutabaga peppers sweetcorn green onions

e.g.



Lisoiiy-tizimlashtiruvchi strategiyaning mohiyati so‘zning semantik axborotni to‘la hajmda va uni qo‘llashning qoidalarini to‘la o‘zlashtirishdan iborat, va bu leksik birliklarni ongli ravishda qo‘llash va ularni tez tanib olishni ta’minlaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan strategiya doirsida leksik birliklar bilan ishlashning quyidagi priyomlari qo‘llanilishi mumkin: 1) so‘zning lug‘at maqollalarini tahlil qilish; 2) so‘zning ko‘pma’noliligini tahlil qilish; 3) so‘zning leksik jihatdan birga qo‘llanish imkoniyatini o‘rganish; 4) sinonimlar va antonimlarni tahlil qilish; 5) derivasion/so‘z yasalish uyasini qurish; 6) so‘zlarni ikki tilda kontrastiv (bir-biriga qarama qarshi qo‘yib, zid qo‘yib) tahlil qilish.

So‘zning lug‘at maqollalarini tahlil qilish topshiriq bitta so‘zning turli luat maqolalarida talqinini, izohlarini o‘rganishdan iborat.

Priyem analiza slovarnых statey slova zaklyuchayetsya v izuchenii tolko¬vaniya odnogo i togo je slova v razlichnых slovarnых statyax. Masalan, breakfast, lunch, dinner, supper so‘zlarining izohlarini ko‘rib chiqamiz . Longman Exams Dictionary изоҳли луғатида ушбу сўзларнинг қуйидаги изоҳлари берилган:

Breakfast - the meal you have in the morning.

Lunch - the meal eaten in the middle of the day.

Dinner - 1) the main meal of the day, eaten in the middle of the day or the evening; 2) a formal occasion when an evening meal is eaten, often to celebrate something.

Supper - 1) the meal that you have in the early evening; 2) the very light meal, for example a drink and a piece of cake, that you have just before you go to bed.

Oxford Advanced Learner's Dictionary луғатида ушбу сўзланинг батафсил изоҳини топамиз:

A meal eaten in the middle of the day is usually called lunch. If it is the main meal of the day it may also be called dinner, especially in the north of the country (Britain).

A main meal eaten in the evening is usually called dinner, especially if it is a formal meal. Supper is also an evening meal, but more informal than dinner and usually eaten at home. It can also be a late meal or something to eat and drink before going to bed.

As a general rule, if a dinner is a word someone uses for the meal in the middle of the day, they probably call the meal in the evening tea or supper. If they call the meal in the middle of the day lunch, they probably call the meal in the evening dinner.

Lug‘atdagi maqolalarni tahlil qilb, bunday tahlil so‘z haqidagi to‘la semantik axborotni ancha to‘la o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu esa, o‘z

navbatida, so‘zning yuqoriroq aniqlikdagi obrazini yaratishga va uni qo‘llash qoidalarining ko‘proq jihatdan ongli o‘zlashtirishga olib keladi. Bu esa kelgusida so‘zni muloqotning turli vaziyatlarida ishlatish va tushunish imkonini beradi.

Ko‘p ma’noli so‘zning ma’nolarini tahlil qilish topshiriq so‘zning funkional xususiyatlarini xorijiy til tizimida chuqurroq tushunishga va uning ma’nolarini ko‘p ishlatilish tartibida o‘rnatish yordam beradi Endi. theatre so‘zining barcha ma’nolarini aniqlaymiz :

Building a building or place with a stage where plays and shows are performed: an open-air theatre, the Mercury Theatre.

Plays a) plays as a form of entertainment: I enjoy theatre and swimming./ He's really interested in literature and the theatre./ Yeat's plays are great poetry but they are not good theatre; b) the work of acting in, writing or organizing plays: classes in theatre and music/ She's been working in the theatre over thirty years.

Place to see a film a building where films are shown: movie theatre/ 'Bambi' was the first movie I ever saw in the theatre.

Hospital a special room in a hospital where medical operations are done: Marylin is still in theatre.

War a large area there a war is being fought: the Pacific theatre during World War II.

Ushbu topshiriq ingliz tili so‘zi ma’nolarining izohilarini rus/o‘zbek tiliga tarjimasiga to‘g‘ri tanlab topish mashqlarida amalg aoshadi. masalan:

Ma’noning talqini	Tarjima
1) a large area where a war is being fought; 2) a building where films are shown; 3) a special room in a hospital where medical operations are done; 4) a building or place with a stage where plays and shows are performed; 5) the work of acting in, writing or organizing plays; 6) plays as a form of entertainment.	1) жарроҳлик хонаси; 2) жанггоҳ; 3) кинотеатр; 4) драматургия, драматик асарлар 5) театр; 6) театр санъати

Ushbu topshiriq ni amalga oshirish uchun ko‘p ma’noli so‘zning ma’nolaridan birini ochib beruvchi mashqlardan foydalaniladi, va bu so‘zni tegishli sinonim yoki antonim bilan almashtirish lozim. Masalan:

We were at the theatre last night (syn. playhouse).

Helen's husband is almost in despair. She has been in theatre for 5 hours already (syn. operating room).

I like watching movies in the theatre (syn. cinema, movie theatre).

The theatre clapped the actor thrice (syn. audience).

Shakespeare was an incredibly talented playwright. I like his theatre very much (syn. drama).

Ko‘p ma’noli so‘z bilan ishlashda talabalardan ko‘p ma’noli so‘zning qaysi ma’noda ishlatilganligi tushuntirib berish talaba qilinishi nazarda tutilgan definisiya/ta’rif mashqlaridan foydalaniladi.

Lekski birga ishlatilish imkoniyatini o‘rganish so‘zning ham semantik va ham sintaktik xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Talaba so‘zlarning birga ishlatilish/qo‘llanish/bog‘lanish imkoniyati qoidalarini o‘zlashtirishlari, ushbu so‘zning va uning rus tilidagi ekvivalentining birgalikda ishlatilish xususiyatlaridagi farqlarni aniqlashi zarur. Leksik birliklarning birgalikda ishlatilish imkoniyatlarini aniqlash ularning ma’nolaridagi farqni o‘rnatish va tipik/oatiy lekski xatoliklarga yo‘l qo‘yishni istisno qilish imkonini beradi.

Tozalash (oziq-ovqat) so‘zining tahlilini amalga oshiramiz. Ingliz tilida ushbu so‘zga: to peel, to scale, to shell kabi ekvivalentlar mos keladi. Rus tilida (o‘zbek tilida) ushbu so‘zga bitta tareima variantining o‘zi mos kelsada, ular orasida jiddiy farqlar kuzatiladi. Masalan, to peel fe’li meva va sabzavotlarni po‘stlog‘idan, qobig‘idan tozalashni anglatadi. Ammo to scale fe’’li esa aynan baliqni tangalaridan tozalash ma’nosini anglatadi. Shu bilan birga to shell fe’li esa (tuxum, yong‘oq, bodomlarni) qobig‘i. po‘stlog‘idan tozalash bilan bog‘liq. Demak, ushbu fe’llar bilan ishlashda talabalarning diqqat-e’tiborini ushbu fe’llarning xususiyatlariga mqsadga yo‘naltirilgan ravishda qaratish lozim.

Birgalikda ishlatish imkoniyati topshiriq i mos variantlarni aniqlash, xatolarni isloh qilish, tugallanmagan so‘z birikmalari va gaplarni to‘ldirish, taklif qilingan so‘zlarni qo‘llab galapr va so‘z birikmalari/iboralar tuzish, gaplarda va matnda tushirib qoldirilgan qismlarni to‘ldirish mashqlarida amalga oshiriladi. Misaol tariqasida, mos keluvchi variantlarni aniqlash mashqini keltiramiz. Unda ko‘rsatilgan so‘zlarni ustunlar bo‘ylab ajratilgan so‘zlarning birgalikda ishlatilishi (mos kelishi) bo‘yicha joylarshtirish zarur:

Onion, coconut, apple, bean, perk, egg, grapefruit, salmon, hazelnut, carrot, peas, hearing, walnut, flounder, potato, cucumber, peanut, perch.

Peel	scale	shell

Sinonimlar va antonimlarning tahlili tahlil qilinayotgan so‘zlarning semantik va uslubiy (stilistik) xususiyatlarini aniqlash va talabalarning leksik kompetentligi darajasini oshirish imkonini beradi. So‘zlarning sinonimik qatorlarining tahlili talabalarda ma’nosi bir biriga yaqin so‘zlarni tahlil qilish va differensiatsiya qilish/farqlash qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Ushbu topshiriq so‘zning ko‘p ma’noliligini tahlil qilish topshiriq i va lksik birga ishlatilish imkoniyatini o‘rganish topshiriq i bilan yaqindan bog‘liq. Quyidagi sinonimlar qatorini tahlil qilib ko‘ramiz: to look, to glance, to gaze, to stare, to glimpse, to glare . Ushbu sinonimlar bitta amalni anglatadi, biroq uning sifati va jadalligi tomondan farq qiladi.

These words are used for an act of looking, when you turn your eyes in a particular direction.

Look - an act of looking.

Glance - a quick look.

Gaze — a long steady look at sb./sth.

Stare - a long look at sb./sth., especially in a way that is unfriendly or that shows surprise.

Glimpse - a look at sb./sth. for a very short time, when you do not see the person or thing completely.

Glare - a long look at sb/sth.

Sinonimik qatorni tahlil qilishni amalga oshirish sinonimlarni qo‘llashning uslubiy xususiyatlarini o‘rnatish uchun ham muhim hisoblanadi, zero bitta fikrni ifodalash uchun vositalarni tanlash va ularni o‘z o‘rinlariga qo‘yish (aranjirovka) qoidalari turli tillarda bir-biridan muloqotning muayyan/konkret vaziyatiga bog‘liq qravishda farq qiladi. Ushbu - to notice — to note -to observe - to perceive sinonimik qatorni tahlil qilib, ushbu so‘zlarning ma’nosi bitta (payqash, sezish, e’tibor berish) ekanligi, biroq ular muloqotning turli vaziyatlarida turlicha qo‘llanilishi haqidagi xulosaga kelish mumkin.

These words all mean to see sth., especially when you pay careful attention to it.

Notice - to see, hear or become aware of sb./sth.; to pay attention to sb./sth. Note - (rather formal) to notice or to pay careful attention to sth. This word is very common in business English.

Observe - (formal) to see or notice sb./sth.

Perceive - (formal) to notice or become aware of sth. that is not obvious.

Sinonimik qatorning tahlili topshiriq i ma’nolari bir biriga yaqin so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llash va tushunishning oldini olish, hamda talabalarning semantik xabardorligi darajasini oshirish imkonini beradi. Antonimlar bilan ham xuddi shunday ish amalga oshiriladi va bu ham talabalarning semantik bazalarini/zaxiralarini kengaytirish imknini beradi.

Sinonimik/antonimik qatorni tahlil qilish topshiriq i turli xil mashqlarda amalga oshiriladi. Bular qatoriga so‘zning talqini/izohiga mos keluvchi variantlarni va unga taalluqli bo‘lgan sinonim/antonimlarni topish, gapda/matnda so‘zlarni tegishli/mos ukeluvchi minonimlar/antonimlari bilan almashtirish, gapda/matnda bo‘sh qoldirilgan joylarni to‘ldirish, minonimlar/antonimlar ma’nolariga izoh berish, sinonilar/antonimlarbilan so‘z birikmalari/gaplar/matnlar tuzish mashqlari kiradi.

Derivasion/so‘z yasash uyasini qurish topshiriq i nafaqat leksikani muayyan tarzda tizimlashtirishga, balki talabalarning lisoniy-kreativ tafakkurining va “tilni his qilishlarini” rivojlantirishga ham yordam beradi. Ushbu topshiriq gaplarda/matnlarda tushirib qodirilgan joylarni derivatlar/yasalgan so‘zlar bilan to‘ldirish, derivasion/so‘z yasash makonini (uyasini) ko‘rsatilgan so‘z yasadigan elementlarni qo‘llash orqali qurish, krossvordlarni to‘ldirish mashqlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, gapda bo‘sh qoldirilgan joylarni derivatlar/yasalgan so‘zlar bilan to‘ldirish mashqi:

Educate - education - educational - educated - educative - uneducated - educator - educationalist .

The Omerod School... handicapped children (educates).

The ... process needs to begin early in a child's life (educational).

He was ... at Bristol University (educated).

She hopes her children will get a good ... (education).

A specialist in theories and methods of teaching is called ... (educationalist/educator).

The ... role of the family is undoubted (educative).

... people have no chance to get a well-paid job (uneducated).

So‘zlarning ikki tilda kontrastiv tahlili topshiriq i so‘zlarning ikki tildagi ma’nolarining hajmini va ularning birga ishlatilishi imkoniyati tabiatini taqqoslash imkonini beradi. Ushbu topshiriq so‘zlarning semantikasida o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash, o‘xshash va farq qiluvchi semalarni (semantik birliklarni) o‘rnatish va, shunga muvofiq ravishda, so‘zlarning birgalikda ishlatilish, uslubiy/stilistik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

“Uy” (dom - rus tilida) so‘zining ma’nolarini va uning ingliz tilidagi "house" va "home" ekvivalentlarining tahlilini amalga oshiramiz .

"uy" - 1) turar joy/yashash binosi, bino; 2) shunday binoda yashaydigan yashovchilar; 3) yashash xonadoni, kvartira; 4) alohida oilaning xo‘jaligi; 5) birga yashaydigan odamlar, oila; 6) insonning doimiy yashash joyi.

"Note" - 1) the house or flat that you live in, especially with your family;

2) a house or flat/apartment, etc., when you think of it as property that can be

bought and sold; 3) the town, district, country, etc. that you come from, or where you are living and that you feel you belong to; 4) used to refer to a family living together, and the way it behaves.

"House" - 1) a building for people to live in, usually for one family; 2) all the people living in a house; 3) a building used for a particular purpose, for exam¬ple for holding meetings in or keeping animals or tools; 3) used in the names of of-fice buildings; 4) a company involved in a particular kind of business, an institu-tion of particular kind; 5) a restaurant; 6) a group of people who meet to discuss and make the laws of the country; 7) a group of people discussing something in a formal debate; 8) the part of theatre where the audience sits.

Tahlilning ko‘rsatishicha, so‘zlarda birbiriga mos keladigan ma’nolari ham, mos kelmaydigan ma’nolari ham mavjud ekan. Rus tilidagi “uy” so‘zi ingliz tilida "house" va "home" so‘zlari yordamida ifodalanidagn ma’nolarni anglatadi. Bir vaqtning o‘zida, "house" so‘zida “uy” so‘zida kuzatilmaydigan ma’nolari bor ekan.

Shunga mos ravishda, kontrastiv tahlil ikki tilning til hodisalarining o‘zaro faoliyati/ta’sirini tushunish, o‘tkazish va interferensiyaning ehtimoliy hududlari aniqlash imkonini beradi.

Ehtimoliy bashorat qilish (“tilni his qilishni” rivojlantirish) strategiyasi tildan faol foydalanishning amaliy tajribasi, xorijiy til leksik vositalari bilan intuitiv darajada ishlash (operirovaniye) qobiliyatining rivojlanishi (rivojlantirish) bilan bog‘liq. Talabalarning quyidagi

malakalari ushbu strategiyaning topshiriq lari deb tushuniladi: 1) yangi so‘zning ma’nosini a) kontekst asosida; b) so‘z yasalish elementlari asosida; v) ovoz belgilari (boshqa tillardan olingan va xalqaro so‘zlar); g) til taxmini asosida mustaqil aniqlash/chiqarib olish; 2) ma’lum so‘zning yangi a’nosini kontekst asosida aniqlab olish; 3) so‘zlarni o‘z va kzchma ma’nolarida, asosiy va ikkilamchi ma’nolarida aniqlash va qo‘llash malakasi; 4) leksik birlikni uning nutq muloqoti jarayonida yangi ma’nolar yaratish potensiali nuqtai nazaridan tahlil qilish; so‘z yasashning ma’lum modellarini qo‘llash bilan yangi so‘zni hosil qilish/yasash; 6) til materialini (so‘zlar, so‘z birikmalarini) yoki til hodisalarini allaqachon ma’lum material/hodisa asosida oldindan bila olish (bashorat qila olish).

Yuqorida sanab o‘tilgan malakalarni gaplar/matnlar/dialoglarda tushirib/bo‘sh qoldirilgan joylarni to‘ldirish, bir necha ehtimoliy leksik birlik orasida bittasini tanlab olishni taqozo etadigan sinov/test vazifalari yordamida aniqlash mumkin.

Kompensator strategiyasi talaba kommunikatsiya jarayonida qiyin/mushkul holatda muammonip yechishga va undan chiqib ketishga intilishi lozim bo‘lgan holatdan iborat. Muloqot jarayonida talaba o‘z fikrini ifodalash uchun zarur leksik birliklarni bilmagan holatda, u mos keluvchi (tegishli) sinonimlar yoki antonimlar topishga intilishi, o‘z fikrini boshqa so‘zlar bilan ifodalashi, gap to‘xtab qolish holatlarini (pauzalarni) to‘ldirishga yordam beruvchi so‘zlarni qo‘llashi, tushuntirish uchun yuz va qo‘l imo ishoralaridan foydalanishi, to‘g‘riligiga ishonchi bo‘lmaganda, bunday til hodisalarni qo‘llashdan o‘zini tiyishga intilishi zarur. Hamsuhbatini tushunmagan hollarda, talaba so‘zlovchiga yordam berishi uchun signal berishi, qayta so‘rab olishi, paralingvistik vositalarni qo‘llashi, til taxminidan foydalanishi zarur. Kompensatorstrategiyasi topshiriq lariga quyidagilarni kiritsa bo‘ladi: 1) bitta fikrni turli usullar yordamida yoki chsklangan til materiali yordamida ifodalay olish malakasini shakllantiruvchi parafraz topshiriq i; 2) axborotni bir verbal (og‘zaki) shakldan boshqa verbal shaklga, yoki verbal shakldan noverbal (og‘zaki bo‘lmagan) shaklga qayta kodlash topshiriq i; 3) sinonimik va antonimik qatorlarni tahlil qilish va tuzish topshiriq i; 4) definisiyalar (ta’rifldar) va tavsif/tasvir konstruksiyalaridan (ibora, matnlaridan) foydalanish topshiriq .

Leksikaga va umuman tilga o‘qitishda parafraz (fikrni/so‘zni/tushunchani boshqa so‘zlar/iboralar bilan ifndalash) topshiriq i katta ahamiyatga ega. Ushbu topshiriq o‘z fikrini cheklangan til materiali yordamida bayon qilish, hamda bitta fikrni turlik leksik birliklar orqali ifoda qilish imkonini beradi, va bu bilan

kommunikatsiyada/muloqotda ehtimoliy muvaffaqiyatsizliklarning oldini olish (ya’ni o‘z fikrini tushuntira olish va boshqalarning tushunishiga erishish) imkonini beradi.Ushb topshiriq o‘z navbatida bita fikrni bir necha usullar bilan ifodalash imkonini beruvchi asosiy so‘zning sinonimlar va antonimlar qatori va definisiyalar/ta’riflar va tasviriy/tavsifiy konstruksiyalarniqo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu topshiriq quyidagi turdagi mashqlarda amalga oshiiladi:

Berilgan so‘zning shaklini o‘zgartirmasdan, birinchi gapning mazmuni ilan bir xil mazmunga ega gap tuzing.

I finished the book in two days, (took)

The doctors won't allow him to leave the hospital, (let)

Shall I carry your luggage? (want)

It's ages since I last went abroad, (been)

When do schools close for the Easter holiday? (break)

She cooks well, (good)

Don't buy as much cheese as the last time, (less)

She attended a course which lasted three years, (year)

He tries hard to keep up with the class, (best)

10. It takes two hours to fly from Athens to Rome, (flight) Сўз ва ибораларни тегишли идиомалар билан алмаштиринг:

The teacher said that the boy in the back of the classroom was (her favorite).

She was (very calm) during the job interview.

It is not really (something that appeals to me) but if you want I will go with you.

He told everyone that they could have a holiday next week but he later had to (take back what he had said) and cancel it.

I told him (briefly) what he wanted to know but he still wasn't satisfied.

Axborotni bir verbal shakldan boshqa verbal shaklga yoki verbal shakldan noverbal shaklga qayta kodlash topshiriq i so‘zning to‘laqonliroq va aniq (tiniq) obrazini yaratish imkonini beradi. Uni dialogni hikoya qilish shaklida taqdim etish shaklidagi, she’rni nasrdagi matn bo‘lagi sifatida berish va hokazo kabi mashqlarda, hamda matn/gap/so‘zning mazmunini rasm, sxema, xaritadagibelgilar, diagramma ko‘rinishida, qo‘l imo-ishoralari yordaida va aksincha turdagi mashqlarda amalga oshiriladi. Masalan: Qo‘l imo-ishoralari bilan quyidagi gaplarning mazmunini ifodalang:

It's too hot! (about the dish)

It's delicious!

Yuk!

Umm...Yummy-yummy!

Thank you, but I'm really full.

Would you like to have some more....

Help yourself to....

I don't eat sweets and bread. I keep to a diet.

The soup is too spicy. Could you give me a glass of water.

10. Stop talking at the table, please!

Sinonimik va antonimik qatorlarni tahlil qilish va tuzish topshiriq i yuqrida ko‘rib chiqilgan edi.

Definisyailar/ta’riflar va tavsifiy/tasviriy konstruksiyalardan foydalanish topshiriq i zarur so‘zlarni bilmagan holda ham o‘z fikrini ifodalay olish imkonini beradi. U shuningdek so‘z haqidagi ongli va har tomonlama bilimni va uning boshqa so‘zlar bilan aloqalarini shakllantirish uchun ham qo‘llaniladi. Ushb topshiriq so‘zlarni ularning ma’nolariga ko‘ra tanish, so‘zlarni ularning ma’nolari bilan taqqoslab moslashtirish, muayyan axborotni cheklangan/berilgan leksika yordamida berish/yetkazish/o‘tkazish, berilgan so‘zlarning ma’nolarini tasvirlash/tavsiflash (so‘z uchun tegishli definisiyalar/ta’riflarni mustaqil tanlash) mashqlarida amalga oshiriladi. Masalan:

So‘zlarni ularning ma’nolariga ko‘ra taqqoslab moslashtirin

A. Food	1. Any of the separate parts of a meal
B. Cuisine	2. Things that people or animals eat
C. Culinary	3. The process of preparing food
D. Cooking	4. Connected with cooking or culinary skills
E. Meal	5. A particular type of food
F. Dish	6. A style of cooking
G. Course	7. Food that has been prepared in a particular way
	8. The food served in a restaurant
	9. Food prepared in a particular way as part of a meal
	10. An occasion when people sit down to eat food
	11. The food that is eaten at a meal

Leksik materialni o‘zlashtirish jarayonining natijalarini nafaqat baholash imkonini beruvchi, balki uni nazorat qilish, uning mazmunini baholash, o‘z faoliyatini, o‘z ichki holatini puxta o‘ylab tushunish, o‘zini

tahlil qilish imkonini ham beradigan refleksiv strategiya alohida muhim rol o‘ynaydi. Refleksiv strategiya: 1) talabaning o‘z hissiy/emosional holatini (bajarilgan ishdan qoniqqanlik/ko‘ngli qolganlik/ qoniqmaganlikni) tahlil qilishi; 2) mashg‘ulotning mazmunini tahlil qilish; 3) o‘zining xorijiy til leksikasini o‘zlashtiishda ilgari borganini (yutuqlarini va muvaffaqiyatsizliklarini) tahlil qilish; 4) bilimlarda kamchiliklarni bartaraf qilish va xatolar bilan ishlash ishini amalga oshirish maqsadida olingan natijani rejalashtirilgan natija bilan taqqoslash; 5) xatolar va kamchiliklar (bo‘shliqlar) sabablarini aniqlash; 6) erishilgan natijalarga baho berish; 7) z yutuqlarini guruhdoshlar yutuqlaribilan taqqoslash (o‘z “plyuslari” va minuslarini”, guruhdoshlar xatolarini aniqlash; 8) leksika bilan kelgusida ishlashni isloh qilishni taqozo etadi

Quyidagilar refleksiv strategiyalarga misollar hisoblanadi: 1) talabalarning kuzatishlar kundaligini (Learner's portfolio) olib borishi; 2) tugatilmagan gapni tugatish (During today's lesson I have got acquainted with.../found out.../learnt...); 3) muammoga bo‘lgan munosabatni ikki ustundan tashkil topgan jadvalni to‘ldirish orqali tahlil qilish topshiriq i: Before/Now (I didn't know/understand/couldn't realize, express...Now I think that/can...); 4) anketa so‘rovnomasi topshiriq i (talabalar: Yangi mavzu doirasida qanaqa bilimlar oldingiz? Nimalar alohida qiziqish uyg‘otdi? Mashg‘ulotda nimalar amalga oshirildi? Maqsad nima edi? Qanaqa natijalarga erishildi? Nimalar qiyinchiliklar tug‘dirdi? – kabi va boshqa savollarga javob berishadi); 5) mashg‘ulotning har bir bosqichida ishni mustaqil baholash topshiriq i (o‘qituvchi va talabalar mashg‘ulotda faoliyat bosqichlarini ajratishadi, so‘ng talabalarga o‘z ishlarini mustaqil baholash taklif qilinadi); 6) talabalarning muloqotbo‘yicha hamkorini ishlari/amallarini tanqidiy baholash maqsadida, hamda juftlikda/guruhiy ish shakllari davomida ularni boshqarish maqsadida o‘zaro nazorat priyemi; 7) mashg‘ulotda birgalikda ishlarni baholash topshiriq i (Me - my neighbor - group - class — teacher) .

Leksik kompetensiyani rivojlantirishda o‘quv strategiyalari leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayonini uning xususiyatlarini va strukturasini kelgusida nutqiy-fikrlash vazifalarni muloqot/kommunikatsiya jarayonida bajarish/yechish maqsadida o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirishga yo‘naltirilgan. Leksik materialni o‘zlashtirish bo‘yicha yuqorida ko‘rsatilgan strategiyalar ushbu bobning §3 bandida ko‘rib chiqiladigan maxsus mashqlar tizimi ramida amalga oshiiladi.

Ta’limning rejalashtirilgan naijasiga – talablarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga erishish maxsus mashqlar tizimining mavjudligini taqozo etadi.

Xorijiy tillarga o‘qitish metodikasida mashqni o‘qitishning funksional (prosessual) jihatiga/aspektiga ham, o‘qitishning vositalari qatoriga ham kiritishadi. Bu mashq(lar) nafaqat o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan materialni strukturalashtiradi, balki uning asosida xorijiy til nutqiy faoliyatini o‘zlshtirish ham amalga oshadi. Demak, mashq “o‘quv materialini va u bilan amalga oshiriladigan amallarni birlashtirish shakli, ya’ni metodik vazifani bajarishning materiallashtirilgan/moddiylashtirilgan jarayoni hisoblanadi” .

Biror faoliyatni o‘zlashtirishning asosini ifodalashi tufayli, mashq muayyan talablarga muvofiq bo‘lishi shart. Olim I.L. Bimning fikriga ko‘ra, mashq quyidagi talablarga javob berishi zarur: 1) vazifaning aniq qo‘yilishini va uni yechish/bajarish usullariga yo‘nalish/tayanchni ta’minlash; 2) zarur motivatsiyani yaratish; 3) verbal/og‘zaki (namuna, kalit so‘zlar, reja va hok.) va noverbal/og‘zaki bo‘lmagan (ko‘rgazmalilik vositalari yordamida) stimullar/rag‘batlar va tayanchlarni yoki ikkalasni ham ta’minlash, hamda tayanchlarning bosqichma-bosqich so‘nishini/kamayib borishini ta’minlash; 4) imkon bo‘lganla kommunikativ yo‘naltirilgan xususiyatiga ega bo‘lish, ya’ni prirroovard natijada shakllantirilayotgan faoliyatni tabiatiga/xarakteriga yo‘naltirish/yo‘l ko‘rsatish, kommuniksiya/muloqotga bevosita chiqishga yaqinlashtiish; 5) zamonda ko‘p kechiktirilmagan ikki tomonlama aloqani ta’minlash, xususan, ijobiy mustahkamlash .

Ushbu talablar quyidagilar bilan to‘ldirilishimumkin: 6) mashq hajmiga ko‘r talabaning bajara olishi uchun yetarli bo‘lishi kerak, qiyinchiliklarning/murakkabliknning bosqichma-bosqich ortib borishini hisobga olishi zarur (material nuqtai nazaridan, nutq faoliyatini bajarish va tabiati sharoitlari nuqtai nazaridan); 7) xotiraning, idrokning va fikrlashning turli xil turlariga murojaat qilishi; 8) hayotiy va tipik/odatiy misollar va vaziyatlarni o‘z ichig olgan bo‘lishi zarur .

Ko‘rsatilgan barcha talablarni nazarga olib, lekski kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan mashqlarga tavsif beramiz.

1. Mashq ta’limga muayyan so‘naltirilganlikka ega. Bu holda mashq leksik materialni o‘zlashtirishga, uning nutq faoliyatining mahsuldor va reyeptiv turlarida amal qilishiga mo‘ljallangan.

2. Har bir mashqda ta’lim maqsadlariga mos keladigan/taqqoslanadigan muayyan/konkret vazifa qayd qilingan

(belgilangan). Mashqlarning ketma-ketligini ularda qo‘yilgaan vazifalarning bajarilish tartibi belgilaydi

3. Mashqda muayyan/konkret nutq amali (yoki bir nechta amallar) berilgan, uni amalga oshirish shart-sharoitlari belgilangan. Mashq til materialini va u bilan amalga oshiriladigan amallarni birlashtirish shakli hisoblanadi. Leksik yo‘naltirilgan mashqlarda, bir tomondan, amallar reproduktiv (qayta ishlab chiqarish, takror) xarakterga ega bo‘ladi, boshqa tomondan esa, ular reseptiv yo‘naltirilganlik hossasiga ega.

4.Mashqda berilgan/belgilangan amal predmeti mavjud: 1) material/moddiy – fikrni/g‘oyani (so‘zlash, yozuvni) shakllantirish va ifodalash, ta’riflash talab qilinadi; 2) ideal – leksik vositalarni tanish. Bu vositalar yordamida matnning (o‘qsh, tinglab tushunish) asosiy g‘oyasi beriladi. Mashqni bajarishga muayyan muddat/vaqt beriladi. Bu muddat cheklangan yoki cheklanmagan bo‘lishi mumkin.

5.Mashq mayyan verbal/og‘zaki va noverbal/og‘zaki bo‘lmagan material: so‘zlar, so‘z birliklari, nutq namunaari, matnlar, rasmlar va hok. asosida bajariladi.

6.Mashqlar turli usullar yordamida va turli tuman tashkiliy shakllarda bajariladi.

7.Har bir mashq boshqa mashqlar bilan yaqindan bog‘liq va muayyan o‘rin egallaydi. Ularni bajarish tartibi til va operasion qiyinchiliklarning ortib borishi bilan belgilandi : Olim V.A. Kruteskiy[83;78-b] mashqlar soni ko‘nikmanir hosil qilish uchun yetarli bo‘lishi zarur. Ularning sonining yetishmasligi ko‘nikmalarning mustahkamlanmasligiga, uning buzilishiga olib keladi. Mashqlarning soni haddan ortiq bo‘lsa salbiy munosabatni keltirib chiqaradi va diqqatni pasaytiradi/susaytiradi, va bu esa ko‘nikmani shakllantirishga xalaqit beradi. Mashqlar bir turli amallarning tasodifiy to‘plaamidan iborat bo‘lmasligi kerak. Ularning asosida muayyan tizim, aniq rejalashtirilgan to‘g‘ri ketma-ketlik, xususan ularning bosqichma-bosqich murakkablashuvi yotishi lozim .

Shunday qilib, qo‘yilgan maqsadga erishi uchun mashqlarning tizim shakllantiruvchi muayyan rasional to‘plami bo‘lishi zarur

Mashqlar tizimi - "nutq faoliyatinining turli xil turlarida malakalar va ko‘nikmlarni o‘zaro faoliyatlarida shakllantirish qonuniyatlarini hisobga oladigan ketma-ketlikda va miqdor/sonda bajariladigan va berilgan sharoitlarda xorijiy tilni egallashning yuqori darajasini ta’minlaydigan mashqlarning turlari, xillari va ko‘rinishlari yig‘indisi hisoblanadi" .

“Mashqlar tizimi” tushunchasiga oydinlik kiritish zarur. Odatda, uni biror bir nutq faoliyati turida malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan

maqshlar qatoriga qo‘shishadi. Nutq faoliyatining tomonlaridan birini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mashqlar (maaslan, so‘zlashga, leksikaga o‘qitish) mashqlarning kichik/quyi tizimini tashkil etadi. Bizning tadqiqot ishimizda ushbu tushunchalar biroz boshqacha ma’noda qo‘llaniladi. Tizim deganda leksik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan va mashqlarning muayyan/konkret vazifalarni bajarishga/yechishga mo‘ljallangan muyyan quyi/kichik tizimlarini o‘z ichiga olgan yig‘indisi tushuniladi.

Bu tizimning muhimligi uning xorijiy til leksikasini o‘zlashtirish va unga o‘qitish jarayonini tashkil qilishidan iborat.

Tizim quyidagilarni ta’minlaydi: 1) u yoki boshqa ko‘nikma yoki malakaning tabiatiga/xarakteriga mos keluvchi zarur mashqlarni tanlab olishni; 2) mashqlarning zarur ketma-ketligini aniqlash: o‘zlashtirish tizimsiz, tartibsiz amalga oshirilmaganligi tufayli, u (o‘zlashtirish) muayyan/qaysi bir ketma-ket bosqichlardan o‘tadi va muayyan metodik tamoyillarda kechadi; 3) materialni joylashtirish va uning nisbati; 4) muayyan material va muyyan mashqlarning muntazamliligi/tizimliligi; nutq faoliyatining turli xil turlarining to‘g‘ri o‘zaro nisbati va o‘zaro faoliyati/ta’siri va o‘z ichidagi to‘g‘ri aloqasi .

Olim I.L. Bim[44;59-b] “mashqlar tizimi tilshunoslik/lingvistika, kognitiv psixologiya, didaktika va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasidan kelib chiqadigan qoidalar asosida qurilishi zarur”, deb ta’kidlaydi .

Leksik kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimini qurishda biz quyidagi mashqlarga tayanamiz:

1. Mashqlarning xorijiy tilga o‘qitish maqsadlariga mos kelishi va ularning bilish jarayoniga va ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirishga teshggishliligi/adekvatligiga.

2.Mashqlarning kommunikativ yo‘naltirilganligiga.

3.Talabalarning aqliy/intellektual-bilish ehtiyojlarini hisobga olish.

4.Leksik zaxirani/boylikni talabalarning barcha kognitiv/bilish jarayonlariga (idrok, diqqat, tasavvur, xotira, tafakkur) tayangan holda o‘zlashtirish.

5.Leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayoni nutqiy-fikrlash vazifalarini lisoniy-kerativ va assosiativ fikrlash yordamida bajarish/yechishning faol va ijodiy jarayoni sifatida qaraladi.

6.Leksika bilan ishlash ichki leksikonning tashkil qilinishi va amal qilishi tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

7.Leksik birliklarni trenirovka qilish va qo‘llash mnemik topshiriq larni qo‘llash bilan amalga oshiriladi.

8.Faol va reseptiv xarakterdagi leksik birliklarni o‘zlashtirish kompetensiyalarning barcha turlariga tayanadi (kommunikativ, lisoniy/lingvis¬tik, ijtimoiy-lisoniy, kompensator va boshq.);

9.Faol va reseptiv xarakterdagi birliklarni o‘zlashtirish talabalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga yo‘naltirilgan.

10.Leksik yo‘naltirilgan mashqlar tizimi leksik kompetensiyani rivojlantirish va o‘qitishning motivasion bazasni shakllantirishni integratsiya qilishga mo‘ljallangan.

Leksik kompetensiyani rivojlantirishning asoasiy vazifalariga ko‘ra: 1) talabalarning kognitiv tayyorligi, ya’ni aqliy/intellektual rivojlanishi; 2) til jihatdan tayyorlik, ya’ni leksik bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish; 3) kommunikativ tayyorlik, ya’ni kommunikatsiya jarayonida mavjud leksik zaxira asosida mashqlarning nazarda tutilgan kognitiv-kommunikativ tizimida uchta quyi/kichik tizimlarini ajratamiz: kognitiv-assosiativ, lisoniy-tizimni hosil qiluvchi; kommunikativ-kognitiv (6-rasm). Har bir quyi/kichik tizimning maqsadlari va vazifalariga bog‘liq ravishda, ularning asosiga u yoki boshqa strategiyalarning ushbu bobning §2 bandda keltirilgan u yoki boshqa topshiriq lari qo‘yiladi.

Kognitiv-assosiativ quyi-tizimning maqsadi talabalarning birlamchi kognitiv bilimlar va hayotiy tajribasini aktuallashtirish, ularning qiziqishlari va hissiyotlari/emosiyalarini jalb qilishdan iborat. Ugbu quyi-tizimning asosiy/kalit strategiyalari rag‘batlantiruvchi strategiya va grafik tashkil ejtuvchi vositalar strategiyalari hisoblanadi. Quyi-tizimning mashqlari quyidagilarga yo‘naltirilgan: a) mavzu bo‘yicha leksik birliklarni xotiradan chiqarishga va leksikon ichida assosiativ vloqalarni uyg‘otishga; b) yangi leksik birliklarni, ularning semantizatsiyasini kiritish; v) mavzuning kalit/asosiy leksik birliklarini aniqlashga.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1.Tilshunoslik OTMining 2-kurs talabalarining leksik komptensiyasini rijlantirish jarayoni leksikaga o‘qitishning quyidagi tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi: 1) o‘qitishning kommunikativ yo‘naltirilganligi; 2) onglilik; 3) leksik materialni taqdim etish/berishga diqqatni jamlaganlik; 4) o‘qitishda nutq faoliyatining barcha turlarining o‘zaro aloqadorligi; 5) leksik birliklarning tizimlilik ususiyatlarini hisobga olish; 6) uslubiy/stilistik farqlash/differensiatsiya; 7) ichki leksikonning tizimli tashkil qilinishiga tayanish; 8) ijtimoiy-madaniy

bilimlarga tayanish; 9) didaktik-metodik vazifalarni kompleks/har tomonlama/birgalikda yechish; 10) pedagogik professionalizatsiya; 11) leksikani kreativ egallagash tamoyilari.

2.O‘qitish tizimining maqsadli komponentining tanlanganligi leksik kompetensiyani shakllantirish talabalarning xorijiy til kommunikativ kompetensiyasining zaruriy tarkibiy qismi ekanligi bilan shartlangan edi. Ko‘p pog‘onali tizimli hosilani ifodalaydigan leksik kompetensiya talabaning shaxsiy xislatlarining egallanadigan leksik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar bilan, shuningdek, mavjud shaxsiy til va nutq tajribasi bilan murakkab o‘zaro faolitidan kelib chiqadi. Leksik kompetensiya murakkab va ko‘p qirrali qobiliyat sifatida talabalarga: a) suhbatdoshning fikrlari/gaplarini ongli idrok qilishni; b) o‘z fikrini, kommunikativ istak/niyatlarini ingliz tili vositalari yordamida ongli ravishda ifodalashni ta’minlashga mo‘ljallangan.

3.Leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida quyidagi kabi maxsus ta’lim strategiyalaridan foydalaniladi: rag‘batlantiruvchi; grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalanish strategiyasi; lisoni-tizimlashtiruvchi; ehtimoliy bashorat qilish strategiyasi; kompensator; refleksiv. Rag‘batlantiruvchi strategiya va grafik tashkil etuvchi vositalardan foydalanish strategiyasi barcha ish bosqichlarining zaruriy komponentlaridir. Qolgan strategiyalarni qo‘llashning rasionalliligi leksik ko‘nikmalarni shakllantirishning va leksik material ustida ishlashning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan bog‘liqdir.

4.Leksika ustida ishlashning ko‘rsatilgan tamoyillari, strategiyalari va topshiriq lari uchta quyi/kichik tizimni o‘z ichiga olgan maxsus mashqlar tizimida amalga oshiriladi: kognitiv-assosiativ; lisoniy-tizimlashtiruvchi; kognitiv-kommunikativ. Birinichi quyi tizim o‘qitishning motivasion asosini/bazasini rag‘batlantirish, yangi leksik material bilan ishlash uchun talabalarning mavjud bilimlarini aktuallashtirish/yangilash, leksikon ichida allaqachon mavjud bo‘lganlari bilan yangi assosiativ aloqalar/bog‘lanishlar yaratish uchun mo‘ljallangan. ikkinchi quyi tizim leksik birliklar haqidagi ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtirishga, uni tizimlashtirish va unga oydinliklar kiritishga qaratilgan. Uchinchi quyi tizim nutqiy leksik ko‘nikmalar va malakalarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Mashqlar tizimiga xorijiy til leksikasini o‘rganish jarayonini baholash va isloh qilish/ to‘g‘rilash imkonini beruvchi nazorat mashqlari kiradi.

III.BOB. INNOVATSION TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

3.1-§. Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metod,usul va vositalari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Barkamol avlodni tarbiyalash uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi har tomonlama yetuk, ma'nan boy va psixologik jihatdan pishiq bo'lishi zarur" deb ta'kidlaganlar. Ushbu g'oya ilmiy jihatdan ham o'z tasdig'ini topgan bo'lib, tadqiqotchi A.A.Lejenina[91;48-b] o'zining ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarning leksik ko'nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantirishda ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish hal qiluvchi va ustuvor omil sifatida namoyon bo'lishini asoslab bergan. Ya'ni, kelajakdagi pedagog qanchalik yuqori psixologik madaniyatga ega bo'lsa, uning leksik ko'nikmalarini o'zlashtirish va takomillashtirish jarayoni ham shunchalik samarali va izchil kechadi.

Bundan tashqari, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish yo'lida amalga oshiradigan amaliy, psixologik, metodik va tadqiqotchilik faoliyatlari o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlanib, bir-birini to'ldirib boradi. Aynan shu turli-tuman faoliyat turlari bilan shug'ullanish jarayonida pedagog o'z leksik ko'nikmalarini yanada boyitadi, chuqurlashtiradi va mukammallashtiradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "O'qituvchi — bu oddiy kasb emas, bu — muqaddas missiya. Shuning uchun ham pedagog o'zini doimo rivojlantirib, yangilanib borishi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni muntazam egallashi lozim" deb alohida urg'u berganlar. Binobarin, bo'lajak o'qituvchining psixologik madaniyatini va leksik ko'nikmalarini bir vaqtda hamda bir-biri bilan uyg'un tarzda rivojlantirish — zamonaviy pedagogik ta'limning eng muhim va ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik faoliyatlari o‘qituvchining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan boyib bormoqda.

Innovatsion ta’lim sharoitida leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishda «Leksik kompetentlik» tushunchasining mazmuni va mohiyatini o‘rganish unga nisbatan bir nechta izohlarning mavjudligini ko‘rsatdi. «Kompetentlik» tushunchasi turli fan sohalaridagi olimlar tomonidan qo‘llaniladi. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda «kompetentlik» (lot.

«competo», ingl. «competens» (competents) – qobiliyat, kompetentli, kompetentlar) tushunchasi shunday talqin etiladi: biror narsani muhokama qilmoq, bilimlarni egallash; biror masala haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish; yaxshi ma’lumot berilgan masalalar sohasi; muayyan sohaga tegishli, qobiliyatli, bilimdon va yaxshi o‘zlashtiruvchi ; biror sohada malakali, bilimdon, hurmatga sazovor shaxs.

P.V. Paydukov[116;94-b] «kompetentlik» va «qobiliyat» tushunchalarini o‘zaro solishtirish asosida izohlashga harakat qilgan. Shunday qilib, aksariyat muallif «kompetentlik» deganda xulq-atvor xususiyati, shaxs faolligi shakli, unga mos holda muayyan ko‘nikma va qobiliyatlarning rivojlanganligini tushunadi. Natijada, «kompetentlik» tushunchasi o‘qitish natijalari, o‘zlashtirish natijasi sifatida tushuniladi .

Psixologiya, didaktika pedagogika sohalarida olib borilgan ilmiy-amaliy izlanishlar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalari rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqish imkonini berdi. (3.1-jadval).

Turli murakkab ko‘nikma tarkibiga barcha bilim va malakalar kiradi. Ammo amaliy faoliyat jarayoni xususiyatlariga ko‘ra individual malakalarning nisbiy ahamiyati o‘zgaruvchan bo‘lish imkoniyati mavjud.

3.1-jadval

Bilim, ko‘nikma va malakalarni leksik ko‘nikmalarini shakllanish bosqichlari

Ko‘nikma	Malaka	Bilim	Oddiy ko‘nikma	Oddiy malaka
Nazariy bilim	Mahorat	Amaliy bilim	Murakkab ko‘nikma	Murakkab malaka
Vizual 3D				

Ingliz tili oliy ta’lim muassasalarida quyidagi xususiyat mavjud: ta’limiy – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi, amaliy – ingliz tili o‘qituvchining amaliy faoliyati.

J.Ravenningfikriga[124;217-b] ko‘ra, kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari: muayyan turdagi kompetentlik uchun zarur bo‘lgan motivasiya, qadriyat yo‘nalishlari va ish sifatlari, insonning jamiyat tarkibidagi ahamiyatiga nisbatan his-tuyg‘ulari va munosabati, ijtimoiy munosabatlar va uning tartibi nimani anglatishini tushunish kabilardan iborat. A.K.Markova[99;45-b] professionalizm kompepsiyasini ishlab chiqib; bilim, ko‘nikma, holat, shaxsiy xususiyatlar kabi kompetentlik

tarkibini belgilaydi. Bunda holat deganda xulq-atvorni belgilovchi munosabatlar tizimi tushuniladi .

Ta’limda faoliyatli yondashuvni qo‘llagan holda ingliz tili o‘qituvchisi yuqorida ko‘rsatilgan barcha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Aamaliy darsni rivojlantiruvchi va tashkiliy guruhlarga kiruvchi ko‘nikmalar alohida rol o‘ynaydi. Ularni ta’limda faoliyatli yondashuvni amalga oshirishda o‘qituvchining faoliyati nuqtai nazaridan tavsiflaymiz.

Amaliy darsda ko‘nikmalar faoliyatli yondashuvi talablarini inobatga olgan holda, dars va dars tizimini rejalashtirish qobiliyatida ifodalanadi; darsning ta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash; o‘quv-bilish faoliyatini va darsdagi o‘z faoliyatini, hamkorlik va o‘zaro munosabatlar vaziyatlarini loyihalash; ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etuvchi optimal metodlar, usullar, vositalar va shakllarni tanlab olish; darsning har bir bosqichida ta’limni boshqarish va boshqaruvchanlik sifatini, guruhda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni aniqlash; kerakli o‘quv materialini tanlash; darsda o‘quv-bilish motivasiyasi, umumta’lim ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishni ko‘zda tutish; talablarining rejalashtirilgan faoliyatida o‘ziga xos harakatlar va operasiyalarni ajratib olish.

Safarbalik ko‘nikmalari talablarning mavjud bilim va ko‘nikmalarini faollashtirish, dars davomida bilim va ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan talabni yaratish; faoliyatini rag‘batlantirish va ularda bilish motivlari va qiziqishlarini rivojlantirish; muammoli vaziyatlarni yaratish bilan uzviy bog‘liq.

Rivojlantiruvchi ko‘nikmalar darsning rivojlantiruvchi maqsadlarini aniqlash, yaqin rivojlanish zonasini aniqlash ko‘nikmalari; ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; muammoli vaziyatlarni yaratish va ta’limiy vazifani belgilash; o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish va boshqarishdir.


Tashkiliy ko‘nikmalar – ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadiga muvofiq o‘zining faoliyati va o‘quv faoliyatini tashkil etish qobiliyati; talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish faoliyati; talabalarning ijodiy-izlanuvchanlik faoliyati; talabalarning jamoaviy-guruhli faoliyati; hamkorlik; maqsadni belgilash, rejalashtirish, nazorat qilish kabi dars bosqichlarida talabalarning ishtirok etishlari .

Faoliyat samaradorligi qonuniyatlarini amalga oshirish darajasi – faoliyatning shaxsiy va buyumli tomoni o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro almashinuvi bilan belgilanadi. Bu qonuniyat, V.A.Belikovning[41;84-b] fikriga ko‘ra, quyidagi tamoyillarni joriy etish asosida amalga oshiriladi: shaxsiy yo‘naltirilganlik – motivlar, qadriyatlar va shaxsiy ahamiyatga

ega ta’limiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan faoliyat; shaxsiy ahamiyat yoki ahamiyatsizlik nuqtai nazaridan yondashuv .


Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlash bilan yakunlanuvchi ta’lim shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Kasbiy ko‘nikma – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malakalar va ularni kasbiy faoliyatda namoyon eta olishidir. Uni rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Leksik ko‘nikmani kasbiy ko‘nikmalar bilan bog‘liqlik bosqichlari

Ma’lumki, u qaysi sohaga taalluqli bo‘lmasin, leksik kompetentlik negizida muayyan sifatlar aks etadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish sifatlari quyidagicha o‘z aksini topdi (3.2-rasm).




3.2-rasm. Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish sifatlari

Barcha soha vakillarida kasbiy ko‘nikma va kompetentlik negizida ma’lum bir sifatlar yotadi. Shuni inobatga olib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalar negizida aks etuvchi sifatlar aniqlandi (3.3-rasm).

Leksik ko‘nikmalarni rivojlantirish murakkab va oldindan aytib bo‘lmaydigan ishlab chiqarish vaziyatlarining xilma-xilligi, kasbiy faoliyatning oqibatlari haqida g‘oyalar olish va ular uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Amaliy dars faoliyatida ijtimoiy hayotning beqaror, tez o‘zgaruvchan sharoitlarida ishlash uchun xorijiy ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarini tayyorlashning yetakchi mezoni sifatida e’tirof etiladi.

Leksik ko‘nikmalar samarali faoliyat ko‘rsatish qobiliyati, natijaga erishish qobiliyati, muammoni samarali hal etish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Nazariy tahlil bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasini tavsiflovchi vizual 3D obrazli tasavvur kasbiy ko‘nikmalarning zaruriy qismi sifatida ajratib ko‘rsatishimizga imkon berdi.



3.3-rasm. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalar negizida aks etuvchi sifatlar

«Vizual 3D» tushunchasining mohiyatini aniqlash uchun biz asosiy tushunchalarni tavsiflashda mantiqiy bog'liqlikni yaratdik: ob'ekt - statik tasvir - ob'ektning modeli - animatsion model - vizualizatsiya - vizual va hissiy idrok.

Leksik ko'nikma bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, professionallikni belgilashda, bo'lg'usi mutaxassis ingliz faoliyatining ijtimoiy ahamiyatli mahsulotlarni yaratishga qaratilgan amaliy bilimlariga jalb qilish jarayonida qo'llaniladi.

«Vizual 3D» tushunchasining mohiyatini aniqlashda vizuallarning rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash muhim rol o'ynaydi. Vizuallarning rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash uchun psixologik-pedagogik adabiyotlarga murojaat qilamiz.

Fikrlashning kengligi muayyan atipik holatlarga taalluqli bo'lgan harakatlarning umumlashtirilgan usullarini rivojlantirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ushbu sifat tanish vaziyatda yangi ma'lumotlarni hisobga olish (ochib berish) istagida namoyon bo'ladi. Bu vizual ma'lumotni qabul qilishni rivojlantirishda, yangi qo'shimcha ma'lumot olish jarayonida ishtirok etadi.

Vizual fikrlashning moslashuvchanligi harakat usullarining variativlik qobiliyati bilan tavsiflanadi; harakat sharoitlarini o'zgartirganda qayta qurish qulayligi; bir murojaat nuqtasidan ikkinchisiga o'tish qulayligi; bir harakat rejimidan boshqasiga; bitta ob'ektning fazilatlarini boshqasiga o'tkazish qobiliyati; odatdagi

harakatlar usuli chegaralaridan chiqib ketish; ob’ektning muhim xususiyatlari saqlanib qoladigan, ammo ahamiyatsiz bo‘lganlari o‘zgarib turadigan bir necha mumkin bo‘lgan vaziyatlarni ko‘rish qobiliyati.

Fikrlashning bu sifati ingliz tilini o‘qitishda vizuallarni rivojlantirishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi. Vizuallarning barqarorligi obrazning dastlab yaratilgan asosini hisobga olgan holda obrazni manipulyatsiya qilish erkinligining darajasini ifodalaydi.

Vizual fikrlashning maqsadga muvofiqligi muammolarni hal qilishda harakatlarni oqilona tanlash, maqsadga doimo e’tibor berish, uni hal qilishning eng qisqa yo‘lini topishga intilish bilan tavsiflanadi. Ushbu sifatning mavjudligi muammoni hal qilish rejasini qidirishda, qo‘shimcha vizual ma’lumotni olishda muhim ahamiyatga ega.

Qayd etilganlar vizuallarni shakllantirishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi, ammo ular amaliy darslarni bajarganligini har xil vazifa tomonidan belgilangan yangi aloqalar va yangi sharoitlarga qo‘shish bosqichida eng muhimdir. Shunday qilib, vizual fikrlash fazilatlarini topshiriqlar orqali rivojlantirish ko‘rsatkichlariga ta’siri aniq. Vizual faoliyat natijasida bilimlari shakllanadi, shuning uchun vizual fikrlash fazilatlari dars jarayonida egalagan bilimlari bila ifodalanadi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish quyidagi tamoyillarni ajratib ko‘rsatishga imkon berdi:

nazariya va amaliyotning uyg‘unligi;

fanlararo aloqadorlik;

ta’lim jarayonining ilmiylik, izchillik, uzviyligini ta’minlash;

har bir bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining xususiyatini inobatga olib individual yondashish;

ijodiy yondashuv;

mashg‘ulotlarda tushunarlilik, ko‘rsatmalilikning ustunligi;

mashg‘ulot davomida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda onglilik va faollikkni saqlab turish.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni maqsad va vazifalarini kasbiy ko‘nikmalar bilan bo‘liqligini bosqichlari va 3D vizuallar orqali senxromlashtirish asosida takomillashtirilgan.

3.2-§. Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasini baholash me’zoni va ko’rsatkichlari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish — bu bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir" deb ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish va o'qish jarayonlarini yanada intensivlashtirish zarurati tobora dolzarb tus olmoqda. Bu holat, birinchi navbatda, o'quv axborotlari hajmining kun sayin ko'payib va murakkablashib borishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning yakuniy sifati va samaradorligini ta'minlash esa ta'lim tizimi oldidagi asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida o'quv jarayonini texnologik jihatdan izchil takomillashtirish, jumladan, interaktiv texnologiyalarni keng qo'llash orqali elektron ta'lim imkoniyatlarini maksimal darajada kengaytirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Elektron ta'lim va masofaviy o'qitish tizimlarini rivojlantirish, interaktiv usullarni dars jarayoniga tatbiq etish — bu ta'lim sifatini oshirishning eng samarali va zamonaviy yo'lidir" deb alohida urg'u berganlar.

Oliy ta'lim muassasalarida interaktiv texnologiyalardan to'laqonli va samarali foydalanish esa o'z navbatida psixologik omillar tizimini chuqur va har tomonlama o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda ta'lim subyektlarining — ya'ni ham o'qituvchi, ham talabaning — faolligini oshirish muhim shart hisoblanadi. Zero, passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirilgan talabagina zamonaviy raqamli ta'lim muhitida o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqara oladi.


Ingliz tili ta’limida bo‘lajak ingli tili o‘qituvchisi amaliy mashg‘ulot ma’lumotlarni qabul qilish jarayonida ular tahliliy-sintetik, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, aniqlashtirish kabi aqliy amallar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tili ta’limining dastlabki bosqichlaridayoq ular mavhumlashtirish qobiliyati namoyon bo‘ladi. Mazkur qobiliyat ingliz topshiriqlarni, so‘rovnomalarni bajarishda rivojlanadi, mavhumlashtirish shakli ham takomillashadi.

U.Sh.Begimkulov[39;87-b] zamonaviy ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Axborot texnologiyalari samarali va ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Biroq, o‘quv jarayonida kompyuterdan foydalanish hamma vaqt ham muvaffaqiyat garovi bo‘la olmaydi va undan to‘g‘ri foydalanilgandagina muhim natijalarga erishish mumkin.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitishning muammolari, ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etish masalalari bo‘yicha ma’lumotlar B.Abdullayeva[21;56-b], R.Djurayev[53;78-b], R.Isyanov[68;34-b] va axborot kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish afzalliklari va imkoniyatlari A.Abduqodirov ilmiy ishlarida yoritilgan.

Ingliz tili fanini o‘rgatishda bir qator tamoyillarga amal qilishni talab etadi. (3.2.1-rasm).



3.2.1-rasm. Ingliz tili fanini o‘rgatish jarayonidagi tamoyillar

Muvofiqlik tamoyili. Ushbu tamoyil talabalarni ingliz tili fanini o‘rgatishda muammoga oid taklif etilgan ta’lim texnologiyalarini Davlat ta’lim standartlariga hamda zamon talablariga mos holda bo‘lishini ta’minlaydi .

Vizual o‘qitish tamoyili. Ushbu tamoyilning asosiy vazifalaridan biri o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etishdan iborat . Bularga 3-D formatli grafik vositalar (jadvallar, klasterlar, chizmalar, xaritalar va boshqalar) va multimedia manbalari (animatsiya, audio, video) kiradi. Bu borada, K.D.Ushinskiyning[148;26-b] fikriga ko‘ra, vizual o‘qitish

talabalarni fanga nisbatan qiziqtirishga hamda kreativ fikrlashini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Vizualizatsiya tamoyili - qadim zamonlardan beri qo‘llanilgan ta’limning eng mashhur va intuitiv tamoyillaridan biridir.

O‘qitish amaliyoti ko‘rgazmalilik printsipini ochib beruvchi juda ko‘p qoidalarni ishlab chiqdi. Keling, ulardan ba’zilarini ta’kidlaymiz:

1. Mashg‘ulotda og‘zaki yoki yozma shaklda berilgan bir xil turkumlarni eslab qolishdan ko‘ra natura ko‘rinishida (rasm yoki maketda) ko‘rsatilgan bir qancha ob’ektlarni yodlash yaxshiroq, oson va tezroq ekanligidan foydalanish kerak.

2. Vizualizatsiya bilan cheklanib bo‘lmaydi, chunki ko‘rsatmalilik maqsad emas, balki o‘qitish, talabalarning tafakkurini rivojlantirish vositasidir.

3. Vizualizatsiyadan nafaqat illyustratsiya uchun, balki mustaqil bilim manbai sifatida ham foydalanish kerak. Vizualizatsiya talabalarning tadqiqot ishlarini tashkil etish imkonini ham beradi.

Talabalarning o‘qitish jarayonida faoliyat xorijiy ravishda, didaktikaning ushbu printsipi - vizualizatsiya printsipidan foydalanishni o‘z ichiga oladi, chunki kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, “Ingliz tili” fanidan amaliy dars davomida integratsion yondashuvdan foydalangan holda talabalar o‘z lesin kitoblari natijalarini mustaqil ravishda savol javoblari o‘zlashtiradilar. Mustaqil ish jarayonida bajariladigan yuqorida aytilganlarning barchasi talabaning qiziqishini uyg‘otadi va ularning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ergonomik tamoyili. Ushbu tamoyil talabaga nisbatan insoniy munosabatni va ta’lim uchun qulay muhitni ta’minlash zarurati bilan bog‘liq . Talabalarni ingliz tili faniga o‘rgatishda ta’lim texnologiyalari intuitiv tarzda ta’minlanishi lozim. Bunda talaba, o‘qituvchisiz foydalanishi mumkin bo‘lgan, puxta o‘ylangan takliflar va ko‘rsatmalar tizimi, o‘qish sur’atini erkin tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ergonomik tamoyili talabalarning kognitiv, psixo- fiziologik, jismoniy rivojlanishi xolda o‘quv materiallari tanlandi. Ushbu tamoyil asosida talabalarning aqliy zo‘riqishining oldi olinadi.

Integrativlik tamoyili. Ta’lim jarayonida ingliz tili fanini fanlararo aloqadorlik o‘z-o‘zidan emas, balki talabaning leksik, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tayyorgarligi orqali hamda uning mohiyatini chuqur anglash asosida samarali amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun talaba ingliz tili fanni puxta bilib qolmasdan, balki unga yaqin fanlararo

bilimlardan xabardor bo‘lishi lozim. Bunga bilimlarning alohida turlari va ular o‘rtasidagi aloqadorlik shakllarini egallash yordam beradi. Shuningdek, integrativlik tamoyili - tizimning alohida differensiatsiyalashgan qismlari va funksiyalarining bir butunlikka birlashishini taqozo etadi va ushbu jarayonga yaxlitlik bag‘ishlaydi .

Integrativlik tamoyili asosida tashkil etilgan darslar fanlararo bog‘liqlikni o‘zida jamlagan holda talabalar dunyoqarashini har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon an’anaviy ta’lim tizimi doirasida ham, zamonaviy o‘quv-tarbiya jarayonida ham amalga oshirib borish mumkin. O‘zaro aloqadorlik jarayonining o‘ziga xosligi esa - integrativ tizimning har bir komponenti mohiyatiga ko‘ra sifatli o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Demak, integrativlik tamoyili asosidagi dars odatdagi darslardan:

- aniqligi;
- darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o‘quv fanlarining har taraflama mantiqiy shartlanganligi;
- berilayotgan o‘quv materialidagi keng ko‘lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

O‘qitib tadqiq etish, tadqiq etib o‘qitish tamoyili. Ushbu tamoyil quyidagi ikki jihatni yoritishga xizmat qiladi:

1) oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchisi o‘z fani sohasiga talabalarni jalb qilgan holda tadqiqotlarni olib borishi lozim;

2) o‘qituvchi ta’lim texnologiyasini ishlab chiqadi, uni amaliyotda sinab ko‘radi, kuzatadi va tuzatishlar kiritadi, ya’ni, u ta’lim jarayoniga tadqiq etadi. O‘qitish jarayonining mazkur ikki jihati muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘qituvchining kasbiy hamda pedagogik mahoratini oshirib borishga va talabalarni bo‘lajak ingliz tili fani faoliyatiga puxta tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Ingliz tili fanini o‘rgatish jarayoni tuzilmasi asosida talabalarga o‘rgatish ishlari avvalo ma’ruza darslari orqali amalga oshirilishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiya tuzilishini ko‘rib chiqishda tadqiqotchilar to‘rt yoki besh komponentni ajratib ko‘rsatishadi. Tadqiqotimizda oliy ta’lim muassasalari talabalarida ingliz tili faniga oid bilimlarni shakllanish darajasini aniqlash uchun va boshqalarning dissertatsiyalarini tahlil qildik va yuqoridagi mualliflarning ishlarida axborot kompetensiyalarining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqladik:

N. G. Vitkovskaya quyidagi komponentlarni taklif qiladi:

- kognitiv - ma’lumot uchun so‘rov, ma’lumot bilan ishlash;
- qiymatga asoslangan - axborotga o‘rnatish;

- refleksiv - leksik muammolarni hal qilish uchun ma’lumotlardan foydalanish;

- texnologik - axborotni tahlil qilish va umumlashtirish, natijalarni taqdim etish.

Axborot kompetensiyasini shakllantirishning tarkibi quyidagilar kiradi:

- motivatsion
- kognitiv
- operativ va faoliyat
- qiymat-semantik.

Har bir mezon bir nechta ko‘rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Axborot kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirishning yuqoridagi mezonlari va ko‘rsatkichlari elektron ta’lim tizimidan foydalangan holda bakalavrlarning sifatlarini rivojlantirish darajalarini aniqlash uchun dastlabki ma’lumotlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda ingliz tili fanidan amaliy darslarining media materiallari (audio va video fayllari) va didaktik materiallar to‘plami (elektron ko‘rgazma materiallari va animatsiyalari), fotogaleriyalari, nazorat dasturlari va dars mazmunini to‘laqonli namayyon qiluvchi qo‘shimcha materiallar qo‘llanildi. Shuningdek, ingliz tili fani darsda foydalanilayotgan turli axborot texnologiyalari bilan birga virtua laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Vizualizatsiya – nima va u qanday ishlaydi? Vizualizatsiya - bu hodisani vizual idrok yetish va tahlil qilish uchun qulay bo‘lgan shaklda mavhum ma’lumotlarni taqdim etish usulidir. Ushbu atama ko‘p qirrali bo‘lib, uning mohiyati faoliyat sohasiga asoslangan. Ushbu usulning maqsadi ma’lumotni muvaffaqiyatli assimilyatsiya qilishdir. Ma’lumot uzoq mulohazani talab qiladigan mavhum hodisadan kelib chiqishi kerak va bu jarayon natijasida ko‘rinmas ko‘rinadiganga aylanadi.

Ma’lumotlarni vizuallashtirish tushunchasi. Vizualizatsiya abstrakt (mavhum) ma’lumot va hodisalarni, ob’ektni vizual idrok etish uchun qulay bo‘ladigan tarzda tranformatsiya (o‘zgartirish) ga yordam beradi.

Ushbu atama statistika, animatsiya va interaktiv vizualizatsiya kabi barcha ma’lumotlarni vizuallashtirish usullariga taalluqli emas. Interaktiv vizualizatsiya va animatsiya o‘rtasidagi farqdan tashqari maxsus dasturlar yordamida qo‘llaniladigan ilmiy vizualizatsiya yaxshi natija beradi. Chunki axborotni vizualizatsiya qilish ta’limda alohida o‘rin tutadi.

Ilm-fanda qo‘llash usuli. Bugungi kunda vizualizatsiya ilm-fanda, texnologik ishlab chiqarish jarayonida, tillarda va hayotning boshqa ko‘plab sohalarida faol qo‘llaniladi. Mazkur usul kompyuter grafikasi sohasida ham muhim o‘rinni egallashi bilan bir qatorda kompyuter dunyosining ajralmas qismidir. Shuningndek, vizualizatsiya animatsiyani rivojlantirishda ham alohida rol o‘ynaydi.



3.4-rasm. vizual 3D obrazlarning shakllanish jarayoni

Raqamli animatsiya, masalan, teleekran orqali ob-havo prognozini translyatsiya qilish vaqtida meteorologik axborotlarni uzatishda qo‘llaniladi. Telekanallarda siz ilmiy tomondan vizualizatsiya ko‘plab misollarining, masalan, yo‘llar yoki turli lesinlarni animatsiya shakliga almashtirilgan holatini ko‘rishingiz mumkin.

Ushbu texnologiyaning eng qiziqarli namunalari – ta’lim sohasida animatsion videoroliklarga talab juda katta, chunki mazkur usulda barcha

kerakli ma’lumotlarni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarga osonlikcha yetkazish imkoni mavjud.

Maqsadga erishish vositasi sifatida. Vizualizatsiya – maqsadga erishishning eng muhim vositasi hamdir. Bu aqliy tasvirlarni vizuallashtirish yoki aks ettirish orqali motivatsiyani yaxshilashga qaratilgan affirmatsiya bilan bir xilda yordam beradi. Bu usul 70-yillar oxiridan 80-yillar boshlarida turli sohalarda qo‘llanila boshlandi.

Vizuallashtirish ishning ijobiy natijalarini kuzatish jarayonida o‘z maqsadlaringizga erishishga yordam beradi. Aksariyat muvaffaqiyatli odamlar avvalo tasavvurlarida muvaffaqiyat yo‘lini o‘ylashadi, tasavvur qilishadi va shundan so‘nggina uni amalga oshirishga shoshilishadi. Bu o‘ziga xos harakatlar rejasini shakllantirishga yordam beradi va yaqinlashib kelayotgan bo‘lajak inglizlarning «repetitsiyasi» hisoblanadi.


Maqsadga erishishdan oldin vizualizatsiya yordamida unga erishish yo‘lini qurish kerak. Ushbu usul kelajakda o‘zingizning xatti-harakatlaringizni loyihalashtirishga va kerakli natijaga erishishga imkon beradi, shuning uchun bu usul muvaffaqiyatli odamlar orasida juda mashhurdir.

Usulning muvaffaqiyati. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu mashg‘ulot kundalik hayot voqelikka o‘xshash tarzda o‘zgartiradi. Ushbu jarayonni o‘z-o‘zini dasturlash deb ham atash mumkin.

Vizualizatsiya fikrlash va tasavvur jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Shuni yodda tutish kerakki, fikrlar haqiqatga bevosita ta’sir qiladi. Hayot sifatini yaxshilash, kelajakdagi harakatlaringizni loyihalashtirish orqali ifodalanadi.

Vizual 3D obrazlarni rivojlantirishda asosiy komponent sifatida kompyuter animatsion modellar yaratildi.

Modellashtirish natijasida tasvir va modelini olishingiz mumkin. Modellashtirish jarayoni bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning ijodiy tasavvur, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur jarayon kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga va modellashtirish qobiliyatlarining shakllanishiga asos bo‘la oladi(3.4-rasm).



3.4-rasm. Real ob’ektning vizual 3D hosil qilish sxemasi

Modellashtirish jarayoni tizimli bo‘lib, unda quyidagi vazifalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

idrok etish, kuzatish;

berilgan ob’ektlarni boshqa narsalar yoki tasvirlar orasida tanib olish;

modellarini yaratish,

ob’ektlarni boshqa modellar bilan taqqoslash, tahlil qilish, modellarni kombinatsiya qilish;

Mazkur yondashuv o‘quv fanlarini mukammal o‘zlashtirishda imkon yaratadi:

ingliz tili fanidan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida leksik tafakkurning jadal ishlashi;


ingli tili fanida vizual kuzata olish;

ingliz tili fanidan bilimlarni tizimlashtirish;

o‘qitish metodlarining samaradorligini va variativligini oshirish;

Qayd etilgan tahlil, xulosa va fikrlardan kelib chiqib «vizual 3D» tushunchasiga quyidagicha ta’rif berildi – bu virtual makon modelida real ob’ekt, abstrakt ma’lumot va hodisalarni tranformatsiya qilish orqali ularni vizual ko‘rib idrok etish, ob’ekt haqida ob’ektiv ma’lumot olish, ularda mujassam bo‘lgan axborotni anglash demakdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, vizual 3D obrazlarning shakllanish mexanizmi ishlab chiqildi (3.5 –rasm).




3.5-rasm. 3D obrazlarning shakllanish mexanizmi

Vizual 3D obraz hosil qilishda axborotning quyidagi xususiyatlari belgilab olindi (3.6-rasm).

Vizual axborotni tahlil qilish bu ma’lum bir mavhum ob’ekt yoki axborot mazmun-mohiyatining joylashtirilgani bo‘lib, uni vizual kuzata olish, axborotning umumiy tuzilishini ko‘rsatish bilan boshlanadi.

Shunday qilib, axborot texnologiyalari muhim rolni uning alohida qismlarini aniqlash shakli yoki ma’nosi jihatidan o‘xshash bo‘lgan bir xil visual axborot larni aniqlash muhim rol o‘ynaydi. Tanlangan ishonchliligini tizimi ushbu vizual axborotning tuzilmasini tashkil etadi. Dastlabki vizual ma’lumotlarning tuzilishini bilish uning to‘liqlik orasida afzalligi munosabatlarni aniqlashdan iborat.



3.6-rasm. Vizual 3D ning axborot texnologiyalaring xususiyatlari

Yuqoridagilarning barchasini umumlashtirish va tizimlashtirish uchun talabalarda ingliz tili fanidan vizual 3D ni shakllantirish uchun umumiy sxema ishlab chiqilgan.

Aksariyat hollarda bunday vosita kompyuter bo‘lib qolmoqda, bu ajablanarli emas, chunki insoniyat kelajagini kompyuter texnologiyasiz tasavvur qilish qiyin. Shuni ham aytib o‘tish mumkinki, axborot texnologiyalari imkoniyati shu darajaga yetdiki, u kelajakda ko‘plab ingliz tili fanlarni o‘qitish jarayonida asos bo‘la olishi mumkin.

Kompyuter animatsiyasidan foydalangan holda inliz tili fanini rivojlantirishda quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir, har bir bosqichda alohida modellaridan foydalaniladi:

1. O‘rganilayotgan modeli
2. Dinamik animatsiya modeli.
3. Statik .

Har bir keyingi bosqich avvalgisidan ancha katta mavhumlik darajasi bilan farq qiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ushbu bosqichlarning har biri haqiqiy texnologiyaning o‘ziga xos modelidan foydalanadi.

Vizual 3D modellaridan foydalanish samaradorligi insonning assotsiativ obrazli tafakkurining axborotni tahlil qilishga bog‘liqligidan kelib chiqadi. Vizual 3D modellashtirishning muhim xususiyati-haqiqiy fazoviy ob’ektlar va mavjud bo‘lmagan modellarni yaratish qobiliyatidir.

Bundan tashqari, modellashtirish maydoni butunlay boshqa axborot mazmuniga ega bo‘lgan modellarni birlashtirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Bu esa mazkur submodellarning har birining idrokini yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirish, shuningdek, kuzatuvchiga taqdim etilayotgan ma’lumotlarning talqinini sezilarli darajada tezlashtirish imkonini beradi. Natijada vizual 3D modellarini yaratishda, ko‘pincha, o‘rganilayotgan muammoga tegishli bo‘lgan barcha ma’lumotlarni birlashtirish uchun modellashtirish maydonidan foydalanish istagi paydo bo‘ladi. Vizual modelning parametrlaridan biri uning axborot qiymati bo‘lib, u modelga ulangan axborot manbalari soni va ma’lumotlarni izohlash tezligi bilan ham aniqlanadi . Vizual 3D modelni yartish prinsiplari quyidagicha:

yaratilayotgan modelning umumiy bayoni;

modelni shakllantirishda ishtirok etishi shart bo‘lgan ma’lumot manbalari;

ma’lumotlarning har xil turlarini bitta modelda ifodalash yo‘llari;

modeldagi natijalarni, shu jumladan, manba ma’lumotlarini va variantlarini qo‘shimcha qayta ishlash usullari, modelning axborot qiymati oshishi sharti;

to‘g‘ri tasvirlash uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlarning to‘g‘riligini shuningdek, modelni soddalashtirishning mumkin bo‘lgan variantlari;

modelning barcha mavjud komponentlarini hisobga olgan holda ularni imkon qadar samarali talqin qilish imkonini beruvchi ma’lumotlarni tasvirlash usullarini aniqlash.

Modellashtirish bosqichida vizualizatsiyani amalga oshirish turlicha hal etilishi mumkin. Agar yaratilgan ob’ektlar murakkabroq xarakterga ega bo‘lsa, unda vizual tasvir turli xil teksturaga ega bo‘lishi mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olib, vizual model yaratish texnologiyasining bosqichlari hamda vizual 3D obrazlarning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar ishlab chiqildi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining leksik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quv mashg‘ulotlariga, ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta’lim metodlarini tanlashga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash unda samarali natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida leksik ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik asoslarini axborot texnologiyalari yordamida takomillashtirilgan.

3.3-§. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining leksik ko‘nikmalarini Work Based Learning konsepsiyasini takomillashtirishning asosiy sifatlari

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz ta'lim tizimini shunday yo'lga qo'yishimiz kerakki, u hayot bilan, amaliyot bilan chambarchas bog'liq bo'lsin, yosh mutaxassislar nazariy bilimlarini amalda qo'llay olsinlar" deb ta'kidlaganlar. Aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda zamon talablariga to'liq javob bera oladigan, har tomonlama kamol topgan va xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda ishga asoslangan ta'lim — Work Based Learning konsepsiyasi alohida va beqiyos o'rin egallaydi. Buning asosiy sababi shundaki, axborot makoni misli ko'rilmagan tezlikda kengayib va yangilanib borayotgan hozirgi sharoitda talaba uchun zarur bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni faqatgina an'anaviy dars mashg'ulotlari doirasida yetkazib bo'lmaydi.

Work Based Learning konsepsiyasi doirasidagi faoliyatni takomillashtirish esa muayyan muammo va vazifalar yuzasidan puxta o'ylangan yechimga kelish hamda mavjud variantlar ichidan eng maqbul va samaralisini tanlay olish ko'nikmasi bilan uzviy bog'liqdir. Bu ko'nikma esa, avvalambor, mustaqil va ijodiy mehnat jarayonida asta-sekin shakllanib, amaliyot orqali mustahkamlanib boradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlasin, mustaqil qaror qabul qila olsin, o'z kelajagini o'zi bela olsin — mana shu bizning asosiy maqsadimiz" deb alohida urg'u berganlar. Binobarin, Work Based

Learning yondashuvi nafaqat kasbiy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtiradi, balki bo'lajak mutaxassisda mustaqillik, mas'uliyat va ijodiy tashabbuskorlik kabi muhim shaxsiy fazilatlarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Ye.A.Shmeleva[139;45-b] Work Based Learning konsepsiyasi talabalar mehnat yo‘llarini umumiy shakllantirish, bilimni kengroq ulashish, moslashuvchanlik, fikrlash mustaqillik va shubhasiz zarur shart-sharoitlar va talabalarning ijodiy erkinlik ko‘rsatkichlari namoyon bo‘ladi - deya munosabat bildiradi.

Work Based Learning konsepsiyasida quyidagi asosiy maqsad, vazifalar belgilab berilgan(3.3.1-rasm);



3.3.2-rasm. Work Based Learning konsepsiyasining xususiyatlari(Ye.A.Shmeleva[139;45-b])

E.A.Ponomaryov[120;78-b] Work Based Learning ta’limi faoliyat natijasi sezgi kiritishni o‘z ichiga oladi va uni mantiqiy xulosa asosida olish mumkin emas. Ikki shaxsiy fazilat ijodkorlik bilan bog‘liq, ya’ni fikrlash jarayonida paydo bo‘ladigan izlanish motivatsiyasi va yondosh bilimlarga nisbatan sezgirlikning intensivligi -deb izohlaydi.

N.M.Gnatko[60;78-b] Work Based Learning ta’limidagi moslashuvchanlik bu birlikning protsessual-mahsulotli tomoni, rivojlanish esa subyektni shartlashtiruvchi tomoni hisoblanadi - deya tariflaydi.

Binobarin, Work Based Learning ta’limidagi moslashuvchanlik va ijodkorlik tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi mazmundor konseptual asosga ega bo‘lgan differensial leksemalardir(3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval.

Olimlarning Work Based Learning ta’limidagi moslashuvchanlik sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha fikrlarini qiyosiy tahlili.

Mualliflar	Olimlarning Work Based Learning ta’limidagi sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha fikrlari
F.Alipxonova	- muammolarni hal qilish istagi; - guruhlarda ishlash istagi; - leksik o‘sishga qiziqish.
M.Vahobov	- topqirlik; - o‘z-o‘zini tanqid qilish; - moslashuvchan fikrlash; - mustaqillik; - fikr-mulohazalar erkinligi; - jasorat va g‘ayrat; - ishni oxirigacha yetkazishda matonat; - maqsadga muvofiqlik.
E.Demyankov	- qiziqqonlik; - shiddatlilik; - qarashlarning mustaqilligi; - yuqori intellekt (bilimdonlik); - o‘yinga moyillik; - yumor hissi; - originallik (asllik); - talabchanlik.
V.A.Kan-Kaalik	- modifikatsiyalash kombinatsiyalash qobiliyati; - o‘z faoliyatini nostandart yechimga moslashtirish; - asosiy g‘oyani aniqlash qobiliyati; - eruditivlik xususiyatining mavjudligi.
I.Medinseva	- axborotni yangi tuzilmalarga kiritish jarayonida; - yetishmayotgan ma’lumotlarni aniqlash jarayonida; - yechimlarni topish va ularni tekshirish jarayonida; - natijalarni umumlashtirish jarayonida.


Jumladan, Ye.A.Shmeleva[139;45-b] kasbiy amaliy vazifalarni hal qilish texnikasi va ularning usullarini o‘zlashtirish hamda ulardan foydalanish qobiliyati; fikrlashni rivojlantirish; o‘zlarining faoliyatini aks ettirish - degan fikrni bildiradi.

Modernizatsiya qilingan ta’lim sharoitida o‘qituvchining maqomini va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi ta’lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ye.A.Shmeleva[139;45-b] Work Based Learning ta’limini shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi qobiliyatlar va shaxsiy xususiyatlarini aniqlagan ; “Fikrlashning divergensiyasi; fikrlashning o‘ziga xosligi; semantik moslashuvchanlik; muammoni aniqlash va yuzaga keltirish qobiliyati; ko‘plab g‘oyalarni yaratish qobiliyati; tahlil qilish qobiliyati; stereotiplarni yengish qobiliyati; ko‘plab uyushmalarni topish qobiliyat” va boshqalar .

D.B.Bogoyavlenskaya[13;45-b]ning fikricha Work Based Learning ta’limidagi rag‘batlantirish – samarali yoki passiv daraja. Ushbu intellektual faoliyat darajasining vakillari baquvvat va vijdonan ishlaydilar, ammo dastlab topilgan harakat usuli doirasida qoladilar. Ularning faoliyati tashabbussiz. U har safar tashqaridan rag‘batlantiriladi - degan fikrni bildiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida Work Based Learning ta’limidagi moslashuvchanlik rivojlantiruvchi asosiy sifatlar (3.3.2-rasmda) ko‘rsatib o`tilgan.



3.1.2-rasm. Work Based Learning ta’limini rivojlantiruvchi asosiy sifatlar.

Work Based Learning ta’limini rivojlantiruvchi atamalarni o‘zlashtirgan o‘qituvchi fiziologiya fanidagi yangi bilimlarni haqiqiy hayotda, amalda tatbiq eta olishi, o‘z ustida muntazam ishlashi va nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarda olgan bilimlarini yosh avlodga yetkaza olishi nazarda tutiladi.

Ingliz tili fanidan Work Based Learning ta’limini qo‘llash jarayonidagi asosiy faoliyat darajasiga ega bo‘lgan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning u yoki bu intellektual tashabbusning namoyon bo‘lishi bilan tavsiflanadi, bu tashqi omillar tomonidan rag‘batlantirilmaydi yoki faoliyat natijalarini qoniqarsiz deb subyektiv baholaydi.

Ye.A.Shmeleva[139;45-b] bunday Work Based Learning ta’limidagi faoliyat rivojlanishining egasi o‘z faoliyatining tarkibi va tuzilishini tahlil qila oladi, vazifalarni taqqoslaydi va bu hal qilishning yangi o‘ziga xos usullarini kashf etishiga olib kelishini ta‘kidlaydi .

D.B.Bogoyavlenskaya[13;45-b] Work Based Learning ta’limining eng muhim omili sifatida tan olingan va ko‘plab sezgirlik testlarida aniqlanadi. Bunday bo‘lajak ingliz tili mutaxassis muammoning tubiga kirib borishga harakat qiladi, garchi uni hech kim buni qilishga majbur qilmasa ham. U bilim obyektini faktlarning mohiyatini tushuntiradigan va hodisalarning sabablarini, tushunishga harakat qiladigan nazariyani yaratishga olib keladi.

Barcha pedagog mutaxassislarda ingliz tili fanini o‘qitilishi, ta’lim sifatini oshirishda Work Based Learning ta’limidan foydalanib mashg‘ulotlarni olib borish kelgusida talabalarni hayot davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili fanini o‘qitishda Work Based Learning konsepsiyasini qo‘llash metodikasini takomillashtirishda ta’lim-tarbiyaning zamonaviy metodologiyasini o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili fanini o‘qitishda Work Based Learning konsepsiyasini qo‘llash o‘qitish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan malaka talablari va o‘quv rejasi asosida shakllantirilgan bo‘lib, ingliz tili fanga oid yangiliklar, innovasion ta’lim texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalaridan foydalanish, AKTni o‘quv jarayonida faol qo‘llash bo‘yicha leksik kompetensiyalari shakllantiriladi.

